

DTM

DTM 2015  
(31 variant)

✓Original

# T A R I X



**TestLIDER**  
**JALOL BOLTAYEV**

Jalol BOLTAYEV | TestLIDER | TARIX | +99897 299 00 66

Elektron test dasturi  
(TestLider EXE, APK)

DTM  
BAZASI

Elektron XRONOLOGIYA (APK)

8 xil darajadagi testlar

DTM exemplar

Telegram kanalimizga a'zo bo'ling  
va testlarni bepul yuklab oling!

[t.me/@testLIDERtarix](https://t.me/@testLIDERtarix)



**BARCHASI  
BEPUL!**

Urganch-2018

**Variant-000**

1. Amir Temur huzuriga yuborilgan ispan elchisi Klavixoning Samarqandga safari taassurotlari hikoya qilingan asarlarini aniqlang.  
1) "Buyuk Temur tarixi"; 2) "Temur qarorgohi";  
3) "G'alabalar kitobi"; 4) "Tarix majmuasi";  
5) "Samarqandga sayohat kundaligi".  
A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 3, 5
2. Rossiya tarixida chuqur iz qoldirgan hukmdor Pyotr I hukmronligi nihoyasiga yetgan yilda . . .  
A) Tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi Yosimune hukmronligi boshlandi  
B) Nodir Quli afg'on qo'shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on qaramligidan ozod etdi  
C) Xitoy bandargohlari tashqi savdo uchun yopib qo'yildi  
D) Koreyada qirol Yonchjon hukmronligi boshlandi
3. Afrika xalqlari Yevropa mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashlarida ularga rahbarlik qilgan shaxslar mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) Muhammad Ahmad; 2) Ketchvayo; 3) Xendrik Vitboy; 4) Samuil Magarero;  
a) gererolar; b) namalar; c) sudanliklar; d) zuluslar  
A) 1 - a; 2 - d; 3 - b; 4 - c B) 1 - c; 2 - b; 3 - d; 4 - a  
C) 1 - d; 2 - c; 3 - b; 4 - a D) 1 - c; 2 - d; 3 - b; 4 - a
4. Fransiyada Uchinchi Respublika davrida anarxiyachilar kurashning terror usulini qo'llab bir qator qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirganlar. Fransiyaning qaysi prezidenti terror qurboniga aylangan edi?  
A) S. Karno B) T'yer C) Troshyu D) M. Magon
5. Lotin Amerikasi mamlakatlari rahbarlaridan kim sarmoya va mehnat o'rtasida hamkorlikni ta'minlay olganligini aniqlang.  
A) J.Vargas B) I.Irigoyen  
C) S.Bernardis D) M.Alvero
6. Kiyev knyazi Svyatoslav kimlarga qarshi urushlar olib borgan?  
1) Xazar xoqonligiga; 2) drevlyan qabilalariga;  
3) Bolgariyaga; 4) bijanaklarga; 5) qipchoqlarga;  
6) Vizantiyaga  
A) 1, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4  
C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 6
7. Pyotr I kimning bergan ma'lumotlari ta'sirida o'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi va ikki harbiy ekspedisiya tashkil etadi?  
A) Haqquli B) Xoja Nafas  
C) Qulibek D) I.Xoxlov
8. Nechanchi yilda va kim boshchiligida xioniyar So'g'dga bostirib kirganlar?  
A) 353-yil, Grumbat B) 351-yil, Xion

- C) 353-yil, Sumbat D) 355-yil, Malxut
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining nechanchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomi berilgan?  
A) VII B) V C) VI D) VIII
10. Chingizxon qo'shinlari Dashti Qipchoq yerlariga qaysi hududlar orqali chiqqan?  
A) Afg'oniston, Sharqiy Eronni egallab, Kavkaz orqali  
B) Sharqiy Eron, Xorazm egallab, Kaspiy sohillari orqali  
C) Afg'oniston, Shimoliy Eron egallab, Xorazm orqali  
D) Yettisuv, Sharqiy Eron, O'rta Osiyo orqali
11. XVIII asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning Rossiya bilan aloqalar o'natishga intilishlari sabablarini aniqlang.  
1) jung'orlar bosqinlaridan himoyalaniish; 2) o'zaro ichki nizolarga barham berish; 3) savdo-tijorat ishlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdorlik; 4) Xitoy hujumidan himoyalaniish  
A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 3
12. XIX asrning I yarmida Xiva xonligida mavjud bo'lgan uchta devon qanday sohalar bilan shug'ullangan?  
1) xo'jalik; 2) soliq va yig'imlar; 3) ijtimoiy-siyosiy ishlar; 4) yer masalalari; 5) harbiy ishlar;  
6) chegaralar masalasi  
A) 2, 4, 6 B) 1, 2, 4 C) 3, 5, 6 D) 1, 3, 5
13. 1857-yilda imzolangan Parij Tinchlik shartnomasidan keyin Eron va Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo qaysi davlat vositachiligida hal etiladigan bo'ldi?  
A) Germaniya B) Buyuk Britaniya  
C) Fransiya D) AQSh
14. Buyuk ajdodlarimiz haqidagi "Alisher Navoiy" tarixiy-biografik filmi kim tomonidan yaratilgan?  
A) N.G'aniev B) K.Yormatov  
C) A.Hamroev D) L.Fayziev
15. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Shimoliy Afrika mamlakatlari tarixiga oid to'g'ri ma'lumotni toping.  
A) 1882-yilda Misr qo'shini rahbarlaridan biri Jamoliddin al-Afg'oniy Qohirada oliy davlat organi – Muvaqqat Kengash tuzdi.  
B) XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoli-g'arbida, ya'ni arablar yashamaydigan hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi.  
C) XIX asrning oxirida Misr, Tripolitaniya, Kirenaika va Tunis amalda Turkiya sultoniga itoat etardi.  
D) 1888-yildagi konvensiyaga ko'ra Suvaysh kanalidan barcha davlatlar xoh urush, xoh tinchlik vaqtida bo'lsin, erkin foydalanish huquqini olishdi.

**16.** Qadimgi Rim tarixchi olimlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Plutarx; 2) Arrian; 3) Tit Liviy; 4) Tatsit; 5) Strabon.  
A) 2, 3, 4    B) 1, 2, 5    C) 1, 3, 4    D) 1, 3, 5

**17.** Qaysi davrdan boshlab Shayboniylarning taxtga hukmdorni o'tqazish borasidagi urf-odatiga rioya etilmay qo'yildi va taxtga vafot etgan xonning avlodlari bevosita o'tqaziladigan bo'ldi?

- A) XVI asrning 20-yillaridan boshlab  
B) Muhammad Shayboniy vafot etishi bilan  
C) XVII asr boshlaridan boshlab  
D) XVI asrning 40-yillaridan so'ng

**18.** XVIII asrdayoq paydo bo'lgan Konservativizm qaysi toifa mafkurasi sanalar edi?

- A) yirik yer egalari bo'lgan pomeshchiklar  
B) burjua jamiyatidagi aslzodalar  
C) intelligensiya  
D) burjua jamiyatidagi o'rta toifa

**19.** Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilgan yilda amirlikning ichki siyosiy hayotida quyidagi voqealardan qaysi biri yuz berganligini aniqlang.

- A) Amir siyosatiga qarshi Miyonqo'lda qo'zg'olon ro'y berdi.  
B) Amirlik taxtiga Amir Haydar o'tirdi.  
C) Dinnosirbek hokimlik qilayotgan Marv viloyati aholisi qo'zg'olon ko'tardi.  
D) Amir Shohmurod hukmronligi nihoyasiga yetdi.

**20.** 1947-yil 14-martda qabul qilingan "Trumen doktrinasi" qanday maqsadga mo'ljallanganligini aniqlang.

- A) Germaniyani tiklash va moliyalashtirish  
B) Yevropaning 16 davlatiga iqtisodiy yordam ko'rsatish  
C) Gretsiya va Turkiyaga yordam berish  
D) urushda vayron bo'lgan Yevropa davlatlariga vayrongarchiliklarni tugatishga yordam ko'rsatish

**21.** Afg'onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan Shoh Mahmudning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan Xiva xonini aniqlang.

- A) Eltuzarxon    B) Muhammad Rahimxon II  
C) Muhammad Rahimxon I    D) Olloqulixon

**22.** I.Lazarev boshchiligidagi rus qo'shinlarining turkman qabilalariga qarshi dastlabki harbiy harakatlari boshlangandan ularning batamom bo'ysundirilishigacha bo'lgan yillar oralig'i to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) 1880-1885-yillar    B) 1879-1884-yillar  
C) 1879-1885-yillar    D) 1878-1885-yillar

**23.** Prussiya qirolligida konstitutsiya joriy qilingan yilni toping.

- A) 1849-yil    B) 1847-yil    C) 1846-yil    D) 1848-yil

**24.** Buyuk Britaniyaning qaysi bosh vazir boshchilidagi hukumati kamomadsiz budjetni uzoq vaqt ushlab turish maqsadida daromadidan qat'i nazar 18 yoshdan yuqori barcha fuqarolarni soliqqa tortish siyosatini qo'lladi?

- A) M. Tetcher    B) J. Meyjor  
C) G. Vilson    D) G. Braun

**25.** XVIII asrda Zarafshon daryosidan chiqarilgan (3-4 chaqirim uzunlikdagi) ariqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) Xurmo; 2) Qozonariq; 3) Toyman; 4) To'g'uzariq;  
5) Sarazm; 6) Oqariq  
A) 2, 4    B) 3, 6    C) 1, 5    D) 1, 2

**26.** Kiyev Rusi knyazi Vladimir Monomax nima maqsadda 1097-yilda Lyubech shahrida Rus knyazlarining 1-syezdini chaqirdi?

- A) o'zaro qonli urushlarga chek qo'yish  
B) keng ko'lamli bosqinchilik urushlari olib borish  
C) qipchoqlar hujumlariga qarshi ittifoq tuzish  
D) knyazlar hokimiyati mavqeini kuchaytirish

**27.** Quyidagi qaysi oliy o'quv yurtlari XX asrning 70-yillarida tashkil etilgan?

- A) Toshkent elektrotexnika aloqa va Toshkent fizkultura institutlari  
B) Toshkent pediatriya va Andijon tillar pedagogika instituti  
C) Andijon paxtachilik va Sirdaryo pedagogika institutlari  
D) Nukus davlat universiteti va Toshkent avtomobil yo'llar instituti

**28.** O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byorns;  
a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil  
A) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d    B) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d  
C) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d    D) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b

**29.** Chingiziyardan bo'lgan To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasidagi hal qiluvchi jang qayerda bo'lib o'tgan?

- A) Oltin O'rdada    B) Shimoliy Kavkazda  
C) Yettisuvda    D) Orolbo'yida

**30.** Quyidagi davlatlardan qaysi birining konstitutsiyasi 1924-yilning 20-aprelida qabul qilingan?

- A) Eron    B) Germaniya  
C) Turkiya Respublikasi    D) Fransiya Respublikasi

**31.** XX asr boshlarida Italiya hukumatini boshqargan J.Jolitti davrida qanday qonunlar qabul qilinganligini toping.

- 1) Ish haqi minimumi to'g'risida; 2) Kasaba uyushmalari tuzishga ruxsat etuvchi; 3) Ish tashlash o'tkazilishiga ruxsat beruvchi; 4) Tungi smenada

bolalar va ayollar mehnatidan foydalanmaslik haqida; 5) Saylovchilarning mulk va savodxonlik senzini bekor qilish haqida; 6) Ko'ppartiyaviylik tizimi asosida saylovni tashkil etish haqida; 7) Pomeshchik yer egaligini tugatish haqida.

A) 1, 2, 4, 6 B) 4, 5, 6, 7 C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 3, 4, 5

**32.** "Birlik va taraqqiyot" partiyasi a'zolarining yevropacha nomini belgilang.

A) panislomistlar B) yosh turklar  
C) panturklar D) tolibonlar

**33.** 1918-yilda Buyuk Britaniya parlamentiga o'tkazilgan saylovlar davrida Leyboristlar partiyasi o'z saylovchilariga bergan va'dalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) ishlab chiqarish vositalariga jamoaviy egalik qilishga imkon beruvchi yangi jamiyat qurish; 2) yangi hukumat tarkibiga ishchi dehqonlarning vakillarini kiritish; 3) ishchilar hukumatini tuzish; 4) kasaba soyuzlarining vakolatlarini kengaytirish; 5) milliy transport, energiya manbalari va banklarni egalaridan sotib olish orqali milliy lashtirish; 6) bojsiz savdoni bekor qilish

A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 4, 6

**34.** Inglizlar Efiopiyaga urush qilib, podsho Feodor II ning birlashtiruvchi siyosatiga putur yetkazgan yilda sodir bo'lgan voqeani toping.

A) Transvaalda oltin va mis konlari ochildi.  
B) Jamoliddin al-Afg'onoy "Xizb ul-Vatan" partiyasini tuzdi.  
C) Tunisda Fransiya hukmronligi o'rnatildi.  
D) Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan Kasa hokimiyati ag'darildi.

**35.** Qoraqalpog'iston poytaxtini respublikamizning temir yo'l tarmog'i bilan bog'lagan Taxiatoch-Nukus yo'nalishi qachon ishga tushirilgan?

A) 1962-yilda B) 1975-yilda C) 1969-yilda  
D) 1957-yilda

**36.** Tropik Afrika davlatlari tarkibiga kirmagan davlatni aniqlang.

A) Eritreya B) Serra-Leone C) Nyasalend D) Lesoto

### Variant-001

**1.** Ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlangan yilda quyidagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

A) Xitoy-Yaponiya urishi bo'lib o'tdi  
B) Berlin kongressi chaqirildi  
C) Kushka shahri bosib olindi  
D) Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Amerika Respublikasiga birlashdi

**2.** Toshkentda "Qo'shchi" uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tgan vaqtda jahon sahnasida bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Antanta davlatlari va mag'lub Turkiya o'rtasida Sevr shartnomasi imzolandi.

B) Xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni cheklovchi "Beshlar shartnomasi" imzolandi.

C) Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolatlari to'g'risidagi "To'rtlar shartnomasi" imzolandi.

D) Antanta davlatlari va mag'lub Avstriya o'rtasida Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida shartnoma imzolandi.

**3.** O'rta asrlarda Xorazm davlatining mustaqillikka erishishi qaysi hukmdor nomi bilan bog'liq?

A) Otsiz B) Qutbiddin Muhammad C) Anushtegin  
D) Elarslon

**4.** Zamondoshlari "Buxoro shoirlari taxtida sulton" deb ulug'lagan shaxsni aniqlang.

A) Turdi Farog'iy B) Sayido Nasafiy  
C) Mirzo Abdulqodir D) Mushfiqiy

**5.** Qoraqalpog'iston poytaxtini respublikamizning temir yo'l tarmog'i bilan bog'lagan Taxiatoch-Nukus yo'nalishi qachon ishga tushirilgan?

A) 1975-yilda B) 1962-yilda C) 1969-yilda  
D) 1957-yilda

**6.** Birinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniyaning qaysi sanoati eng qoloq tarmoqa aylanib qolganligini toping.

A) metallurgiya sanoati B) to'qimachilik sanoati  
C) ko'mir sanoati D) oziq-ovqat sanoati

**7.** Kiyevdagi avliyo Sofiya ibodatxonasi nima munosabat bilan barpo etilgan?

A) Kiyev ostonalarida paydo bo'lgan drevlyan qabilalari ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga  
B) Vizantiya ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga  
C) Bijanak qabilalari ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga

D) Yaroslavning Kiyev taxtiga o'tirishi munosabati bilan

**8.** Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini kim topshirgan?

A) Haqquli B) Ernazar C) Qulibek  
D) Xoja Nafas

**9.** Quyidagi Uyg'onish davri vakillarining aytgan fikrlari to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) M.Servantes; 2) Leonardo da Vinchi; 3) V.Shekspir.  
a) «Inson - tabiatning ajoyib mo'jizasi!»; b) «Rassomlik san'ati - san'atlar malikasi»; c) «Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek jonni xavfga qo'yish kerak».



A) 1-c; 2-b; 3-a B) 1-a; 2-c; 3-b C) 1-a; 2-b; 3-c  
D) 1-b; 2-c; 3-a

**10.** Buxoro hukmdori Nodir Muhammad toj-u taxtni o'g'li Abdulazizdan qaytarib olish maqsadida qaysi Hindiston podshosidan yordam so'raydi?

A) Shoh Jahondan B) Avrangzeb Olamgirdan  
C) Akbarshohdan D) Bahodirshoh I dan

**11.** Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'lini ochgan sayyoh nomini aniqlang.

A) Vasko da Gama B) Frensis Dreyk  
C) Fernand Magellan D) Xristofor Kolumb

**12.** Quyidagi qaysi davlatlar Bolqon ittifoqiga birlashgan?

1) Bosniya; 2) Bolgariya; 3) Serbiya; 4) Sloveniya;  
5) Albaniya; 6) Chernogoriya; 7) Ruminiya; 8) Gretsiya  
A) 2, 3, 6, 8 B) 1, 2, 4, 8  
C) 1, 4, 5, 7 D) 2, 5, 6, 7

**13.** Ismoil G'aspirali tomonidan Boqchasaroyda va Buxoro amirligida birinchi jadid maktablari ochilgan yillarni toping.

A) 1884, 1894-yillar B) 1884, 1893-yillar  
C) 1888, 1894-yillar D) 1888, 1893-yillar

**14.** Qo'qon xoni Muhammad Alixon qachon va kimning foydasiga taxtdan voz kechdi?

A) 1842-yil, Amir Nasrullo  
B) 1842-yil Ibrohim dodxoh  
C) 1841-yil, Xudoyorxon  
D) 1841-yil, Sulton Mahmudxon

**15.** Buyuk Karl davriga oid voqeani aniqlang.

A) an'anaviy xalq lashkari tuzilgan  
B) Yevropada ilk graflikga asos solingan  
C) xalq maktabi joriy etilgan  
D) 20 yillik urushdan so'ng sakslar bo'ysundirilgan

**16.** AQShda bir yilda qabul qilingan qonunlarni ko'rsating.

1) Vagner qonuni; 2) Halol raqobat kodeksi;  
3) Ijtimoiy sug'urta haqida; 4) Betaraflik to'g'risida;  
5) Sanoatni qayta tiklash haqida  
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 3, 4, 5

**17.** Etrusklar Italiyaning qaysi qismida yashaganlar?

A) sharqiy qismida B) shimoli-g'arbiy qismida  
C) janubi-g'arbiy qismida D) shimoli-sharqiy qismida

**18.** Turkiston o'lkasining quyidagi viloyatlaridan Rossiyaga mardikorlikka olinganlarning soni mos ravishda korsatilgan javobni toping.

1) Sirdaryo; 2) Samarqand; 3) Farg'ona;  
a) 38 ming; b) 50 ming; c) 87 ming  
A) 1 - c; 2 - a; 3 - b B) 1 - a; 2 - c; 3 - b  
C) 1 - c; 2 - b; 3 - c D) 1 - b; 2 - c; 3 - a

**19.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo'lish vaqti Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi?

1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi; 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste'foga chiqishi; 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi; 4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o'ringa ko'tarilishi; 5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi

A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 5

**20.** Buyuk Britaniyada kimning davrida "narx-navo va daromadlar" siyosati bekor qilingan? (XX asrning II yarmi)

A) E. Xit B) A. Iden C) T. Vilson D) G. Vilson

**21.** Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi; 2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi; 3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi; 4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi; 5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi; 6) qalmaq va oyratlarga qarshi

A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 4 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 4

**22.** 1821-yilda Gvineya qirg'oqlarida tashkil etilgan manzilgoh qanday atalgan?

A) Kalaxari B) Monroviya C) Bushmeniya  
D) Zambeziya

**23.** Otto fon Bismark Germaniyada mavjud davlatlarning Prussiya bilan "Shimoliy Germaniya Ittifoqi"ni tuzish haqida shartnoma imzolashga erishgan yili vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Kaspiyorti viloyati tashkil topdi.  
B) Jizzax shahri rus askarlari tomonidan egallandi.  
C) Buxoro taxtiga Amir Muzaffar o'tirdi.  
D) Qo'qon shahrida Po'latxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi.

**24.** Yaponiyada aholining barcha tabaqalari - feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand, savdogarlar rasman teng huquqli deb e'lon qilingan yilda. . .

A) Buyuk Britaniya parlamenti deputati, olsterlik protestant, yer egasi Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni talab qildi  
B) Eronda mujohidlar tashkiloti shaxs erkinligi, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy etish talablari bilan chiqdi  
C) Buyuk Britaniyada saylovda qatnashuvchilar uchun mulk senzi kamaytirildi va erkak aholining 50 foizi saylov huquqiga ega bo'ldi  
D) Avstriya-Vengriya imperiyasi poytaxti Vena shahrida ishchilarning demokratik erkinliklar berilishini talab qilgan ommaviy namoyishlari o'tkazildi

25. Afg'onistondagi kurash maydoniga "tolibonlar" nechanchi yildan qo'shildi?

- A) 1996-yil B) 1994-yil C) 1995-yil D) 1997-yil

26. Qaysi davrda Rossiya o'zbek savdogarlari uchun kata imkoniyatlar yaratdi va ba'zi cheklashlar bekor qilinib, ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo'lishdi?

- A) XIX asrning o'rtalarida  
B) XVIII asrning o'rtalarida  
C) XVIII asrning oxirlarida  
D) XIX asrning boshlarida

27. Qoraqalpoq xalqi tomonidan bunyod etilgan qal'a shaklidagi shaharlarni aniqlang.

- 1) Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a; 2) Jonbosqal'a, Tuproqqal'a; 3) Eshonqal'a; 4) Qo'yqirilganqal'a; 5) Janaqal'a, Ko'ko'zakqal'a.  
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 2, 4, 5

28. Fransiyada gotika uslubida bunyod etilgan ibodatxonalarni ko'rsating.

- 1) Ruan; 2) Milan; 3) Reyms; 4) Laax; 5) Bibi Maryam; 6) Shartr; 7) Avliyo Mark; 8) Axen  
A) 5, 6, 7, 8 B) 1, 3, 4, 6 C) 2, 4, 5, 7  
D) 1, 3, 5, 6

29. Buyuk Britaniya tarixida birinchi marta Leyboristlar partiyasiga hukumat tuzish topshirilgan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.

- A) SSSRning Konstitutsiyasi qabul qilindi  
B) V.I.Lenin instituti ochildi  
C) SSSR tashkil qilindi D) Glavlit tashkil qilindi

30. "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Prezident Farmoni qachon qabul qilingan?

- A) 1994-yil 15-mayda B) 1994-yil 1-iyulda  
C) 1994-yil 16-iyunda D) 1994-yil 15-iyunda

31. Qadimgi Rimda xonadon o'chog'i ilohasini aniqlang.

- A) Diana B) Venera C) Geya D) Vesta

32. Quyidagi harbiy bloklar tashkil etilgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) SENTO; 2) ANZYUS; 3) SEATO.  
A) 3, 1, 2 B) 2, 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 1

33. Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida "Buyuk Britaniyaning Afg'onistonda temir yo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat berish" talablari ko'zda tutilgan bitim qachon imzolangan?

- A) 1901-yilda B) 1905-yilda C) 1907-yilda  
D) 1910-yilda

34. Eftaliylar davrida O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, . . .

A) Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylandi

B) Turkiy xalqlar madaniyati an'analarning qo'shilishi va ilk o'rta asrlar madaniyati ravnaqiga olib keldi  
C) dasht aholisi mahalliy me'morchilik an'analari bilan uyg'unlashib ilk o'rta asr madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi

D) Xitoy va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashuvi yuz berib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga ta'sir etdi

35. Quyidagi davlatlar 1875-1900-yillarda chet ellarda joylashtirgan kapitalining o'sish darajasi kamayish tartibida joylashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Buyuk Britaniya; 2) Fransiya; 3) Germaniya  
A) 3, 1, 2 B) 3, 2, 1 C) 1, 3, 2 D) 2, 1, 3

36. Amir Temur qo'shinlari tuzilishini esga oling. Quyidagi qaysi atama qo'shinning har bir qanoti yon tomonidagi qo'riqchi askariy qo'shilmani anglatgan?

- A) qanbul B) yasovul C) izofa  
D) manglay-avangard

#### Variant-002

1. To'g'ri ma'lumot keltirilgan javobni toping.

- A) Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakati yetakchilaridan bo'lmish Madaminbek Ahmadbek o'g'li 1882-1920-yillar oralig'ida yashagan.  
B) 1919-yil o'rtalariga kelib Skobelev, Marg'ilon, Andijon, Namangan va O'sh kabi hududlarda harakat qilayotgan taniqli rahnamolar, ularning jangchilari Madaminbekning yashil bayrog'i ostida birlashayotgan edi.  
C) 1920-yilning birinchi yarmida milliy-ozodlik kuchlari sovet qo'shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarba berdilar.  
D) Katta Ergash turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo'lmagan edi, deb yozgandi uning muxolifatlaridan biri.

2. Turkiston general-gubernatori bosh qo'mondonlikdan tashqari yana qanday lavozimni egallagan?

- A) xazinabon B) bosh sudya C) bosh vazir  
D) politsiya boshlig'i

3. Hindistonda 1890-yilda shakllangan "so'l" radikal oqimga kim rahbarlik qilgan?

- A) Bal Gangadxara Tilak B) Kesari  
C) Morarji Desay D) Robindranat Thokur

4. Quyidagi voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.

- 1) Rossiya va Shvetsiya o'rtasida hozirgi Ukraina hududida urush bo'lib, unda Rossiya g'alaba qozondi;  
2) Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi

qo'zg'olon bo'ldi va unga Mir Vaisxon rahbarlik qildi;  
3) Rossiya va Fransiya o'rtasida "Tilzit shartnomasi"  
nomini olgan shartnoma imzolandi; 4) Rim Papasi  
Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi.

A) 1, 2      B) 2, 4      C) 1, 3      D) 3, 4

**5.** Venetsiyalik sayyoh Marko Poloning Uzoq Sharq va Xitoyga qilgan safari davriga to'g'ri keluvchi voqeani aniqlang.

A) Moskva knyazligi taxtiga Ivan Kalita o'tirdi.  
B) Movarounnahr noibi Ma'sudbek pul islohotini amalga oshirdi.  
C) Usmonli turklar davlati asoschisi Usmon I taxtga o'tirdi.  
D) Oltin O'rda xoni Berkaxon jangda halok bo'ldi.

**6.** Xitoyda milliy buyuk inqilobdan keyin Gomindan partiyasi faoliyati bilan bog'liq holatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish; 2) xususiy mulkni himoya qilish;  
3) davlat mulkini qo'llash va xususiy mulkni tugatish;  
4) Xitoyni chet davlatlar uchun ochiq deb e'lon qilish;  
5) milliy bozor rivojiga g'ov bo'layotgan ichki boj to'siqlarini bekor qilish

A) 2, 3, 4      B) 3, 4, 5      C) 1, 2, 5      D) 1, 2, 3

**7.** O'zbekistonning qaysi viloyatida Xitoyning "Nunkel" firmasi bilan hamkorlikda yo'g'och tolali plita ishlab chiqarish yolga qo'yildi?

A) Jizzax      B) Samarqand      C) Namangan  
D) Qashqadaryo

**8.** Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi, Turkiston muzeyi tashkil etilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1871, 1877-yillar      B) 1872, 1879-yillar  
C) 1870, 1876-yillar      D) 1870, 1878-yillar

**9.** XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro amirligi hududlari orqali Afg'onistonga qanday buyumlarni katta miqdorda chiqarib turgan?

1) temir; 2) movut; 3) farang matolari; 4) chinni buyumlar; 5) baxmal; 6) mo'yna; 7) chit; 8) g'alla; 9) gugurt; 10) kerosin; 11) cho'qqi qalpoqlar

A) 3, 5, 7, 9, 10, 11      B) 1, 4, 5, 6, 8, 10  
C) 2, 4, 5, 7, 9, 10      D) 1, 3, 4, 8, 9, 11

**10.** Buxoro amirligida joylarda yetishtirilgan hosilning hisobini yuritish, soliqlar va boshqa tushumlarning belgilangan muddatda yig'ilishi uchun mas'ul bo'lgan amaldorni aniqlang.

A) zakotchi      B) devonbegi  
C) amlodkor      D) mushrif

**11.** Qaysi davlat tarixda "Tonggi tarovat" nomini olgan?

A) Ilk o'rta asrdagi Yapon davlati  
B) Qadimgi Choson (ilk Koreys) davlati

C) Qadimgi Xorazm davlati

D) Qadimgi Xitoy davlati

**12.** Amir Temur markazlashgan davlat barpo etishdek ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini nimadan boshlagan edi?

A) avvalo o'z davlati uchun qulay poytaxt tanlashdan  
B) avvalo ichki g'animga qarshi kurashdan  
C) davlat chegaralarini qayta tiklashdan  
D) Oltin O'rdaga hujum qilishdan

**13.** XVIII asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning Rossiya bilan aloqalar o'natishga intilishlari sabablarini aniqlang.

1) jung'orlar bosqinlaridan himoyalanih; 2) o'zaro ichki nizolarga barham berish; 3) savdo-tijorat ishlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdorlik; 4) Xitoy hujumidan himoyalanih

A) 1, 3      B) 1, 2      C) 2, 4      D) 3, 4

**14.** Quyidagi atamalar nimani anglatishi to'g'ri juftlangan javobni toping.

1) aqinak; 2) sagaris; 3) bargustivon;  
a) jangovar oybolta; b) jangovar otlar ustiga va ko'kragiga yopiladigan yopinchiq; c) xanjar  
A) 1 - a; 2 - c; 3 - b      B) 1 - c; 2 - a; 3 - b  
C) 1 - b; 2 - a; 3 - c      D) 1 - c; 2 - b; 3 - a

**15.** Quyidagi tarixiy asarlar mualliflari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

1) "Gulshan ul-mulk"; 2) "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar"; 3) "Fathnomayi Sultoniy"; 4) "Yilnomalar to'plami";  
a) Mir Olim Buxoriy; b) Muhammad Hakimxon;  
c) Muhammad Yaqub ibn Doniyolbiy; d) Mirzo Shams Buxoriy

A) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a      B) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b  
C) 1 - c; 2 - b; 3 - d; 4 - a      D) 1 - c; 2 - d; 3 - a; 4 - b

**16.** Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan qaysi asarda ta'kidlanishicha xonlikda xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan?

A) "Tarixi Toshqand"      B) "Tarixi Rashidiy"  
C) "Saralangan tarixlar"      D) "Tarixi Turkiston"

**17.** Milodiy IV asrda Qadimgi Rim tarixida bo'lib o'tgan voqealarni aniqlang.

1) Vizantiy (Konstantinopol) shahri poytaxt deb e'lon qilindi; 2) Italiyaga xunn qabilalari bostirib kirdilar; 3) Rimga germanlarning vandal qabilalari bostirib kirdilar; 4) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi.

A) 1, 4      B) 1, 2      C) 2, 3      D) 3, 4

**18.** XX asrning 30-yillarida Germaniya sarmoyalari Lotin Amerikasining quyidagi qaysi davlatlari iqtisodiyotiga joylashtirilgan?

1) Argentina; 2) Meksika; 3) Urugvay; 4) Braziliya; 5) Chili; 6) Peru; 7) Paragvay; 8) Kolumbiya



- A) 4, 5, 6, 8      B) 1, 2, 5, 6      C) 2, 3, 6, 8  
D) 1, 4, 5, 7
- 19.** Qadimgi davrda O‘zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti nimaga asoslangan?  
A) savdo-sotiq sohasidagi yutuqlarga va harbiy ittifoq mezonlariga  
B) hunarmandchilik taraqqiyotiga va urug‘chilik udumlariga  
C) Qadimgi Sharqdagi shaharlar va manzilgothlar rivojiga  
D) mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga
- 20.** Konservatizm ta’limotining ko‘zga ko‘ringan arbobini aniqlang.  
A) Sharl Monteskye      B) Sen Simon  
C) Lui de Bonald      D) Sharl Fyure
- 21.** Berdaq o‘zining qaysi she’rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi?  
1) “Hoy yigitlar, yigitlar”; 2) “El bilan”;  
3) “O‘g‘limga”; 4) “Umrin”; 5) “Ahmoq bo‘lma”;  
6) “Xalq uchun”; 7) “Bor, bolam bor”  
A) 3, 5      B) 4, 6      C) 1, 6      D) 2, 7
- 22.** Fransiya tomonidan 1891-1896-yillar davomida quyidagi qaysi hududlar bosib olingan?  
1) Laos; 2) Mavritaniya; 3) Vyetnam; 4) Gvineya; 5) Senegal; 6) Madagaskar; 7) Tunis; 8) Efiopiya; 9) Mozambik; 10) Angola  
A) 3, 4, 5, 10      B) 1, 3, 4, 9, 10      C) 1, 3, 7, 8, 9  
D) 2, 4, 5, 6
- 23.** Silla qirolligi o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishgan asrni aniqlang.  
A) VI asr      B) IX asr      C) VII asr      D) VIII asr
- 24.** XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Shimoliy Afrika mamlakatlari tarixiga oid to‘g‘ri ma’lumotni toping.  
A) 1888-yildagi konvensiyaga ko‘ra Suvaysh kanalidan barcha davlatlar xoh urush, xoh tinchlik vaqtida bo‘lsin, erkin foydalanish huquqini olishdi.  
B) 1882-yilda Misr qo‘shini rahbarlaridan biri Jamoliddin al-Afg‘oniy Qohirada oliy davlat organi – Muvaqqat Kengash tuzdi.  
C) XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoli-g‘arbida, ya’ni arablar yashamaydigan hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi.  
D) XIX asrning oxirida Misr, Tripolitaniya, Kirenaika va Tunis amalda Turkiya sultoniga itoat etardi.
- 25.** Qaysi davrdan boshlab yevropaliklar tomonidan Afrika qit‘asining ichkari qismini ham mustamlakaga aylantirish harakatlari boshlandi?  
A) XIX asrning 80-yillaridan  
B) XIX asrning 50-yillaridan  
C) XIX asrning 60-yillaridan  
D) XIX asrning 70-yillaridan
- 26.** 1878-yildagi Berlin kongressida Bolgariya masalasida qabul qilingan qaror to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.  
A) Bolgariya ega bo‘lgan hududlarni qisqartirish  
B) Bolgariya ega bo‘lgan hududlar o‘zgarishsiz qoldirish  
C) Bolgariyaga Turkiya qo‘l ostidagi yerlarning bir qismi qo‘shib berish  
D) Bolgariyaning davlat mustaqilligi tugatish
- 27.** Liviya Italiya mustamlakasiga aylangan yilda quyidagi voqealardan qaysi biri sodir bo‘lgan?  
A) Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o‘zini Turkiyadan to‘la mustaqil deb e’lon qildi  
B) Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida Albaniya mustaqillikka erishdi  
C) Italiya Fransiyaning Marokashga bo‘lgan huquqlarini tan oldi  
D) Panama kanali ochildi
- 28.** Nechanchi yilda Yugoslaviyada ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklaydigan konstitutsiya qabul qilingan?  
A) 1971-yil      B) 1972-yil      C) 1974-yil      D) 1973-yil
- 29.** Buyuk Britaniya parlamenti Lloyd-Jorj hukumatiga ishchilar harakatini bostirish uchun favqulodda vakolatlar bergan yili bo‘lib o‘tgan voqeani aniqlang.  
A) Buyuk Britaniyada konchilar talabini qondirishni istamagan kon egalari lokaut e’lon qildilar.  
B) Sovet Rossiyasining M.Frunze boshchiligidagi Janubiy front qo‘shinlari Qrimni to‘la egalladi.  
C) Fransiya urushdan keyingi birinchi parlament saylovi bo‘lib o‘tdi.  
D) Germaniyada Veymar Respublikasi tashkil topdi.
- 30.** Quyidagi tarixiy shaxslar orasidan Barakzaylar sulolasi vakillarini belgilang.  
1) Sulton Husayn; 2) Do‘st Muhammadxon; 3) Shuju; 4) Fathxon; 5) Mir Vaysxon  
A) 1, 2      B) 1, 3      C) 2, 4      D) 3, 5
- 31.** Quyidagi qaysi shaharda 1947-yilda agronomlar tayyorlaydigan uch yillik maktab tashkil etilgan?  
A) Farg‘ona      B) Andijon  
C) Toshkent      D) Samarqand
- 32.** Germaniya va Italiya Lotin Amerikasi davlatlarida hokimiyatni fashistlar egallashlarida qaysi davlatda amalga oshirilgan usulga umid bog‘lagan edilar?  
A) Yaponiya      B) Italiya      C) Ispaniya  
D) Avstriya
- 33.** Chingiziy hukmdor To‘xtamish ustidan Amir Temurning g‘alaba qozonishi (1395-yil) nima uchun xizmat qilgan?  
A) Yetti yillik urushning g‘alaba bilan yakunlanishi



B) Amir Temurning Hindiston yurishiga tayyorgarlik ishlari

C) Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarining o'rnatilishi

D) rus knazliklarining birlashishi

**34.** XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilinib,

nafaqat musulmon sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab bergan asarni aniqlang.

A) "Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim"

B) "Ziji jadidi Ko'ragoniy"

C) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"

D) "Al-jabr val-muqobala"

**35.** SSSRda "rivojlangan sotsializm" nazariyasi ilgari surilgan yilda. . .

A) Bangladesh Xalq Respublikasi tuzildi

B) Yaponiya Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi

C) Liviya Respublika deb e'lon qilindi

D) Yugoslaviyada I.Broz Tito cheklanmagan muddatga prezident qilib saylandi

**36.** Quyidagi qo'zg'olonlarni ularning bo'lib o'tgan sanalari bilan mos ravishda keltirilgan javobni aniqlang.

1. Boljuvon bekligidagi qo'zgon;

2. Ko'lob bekligidagi qo'zgon;

3. Kalif bekligidagi qo'zgon;

4. Matyoqub pishiq qo'zgoni;

5. Yetimxon qo'zgoni;

a) 1902-yil; b) 1888-yil; c) 1885-yil; d) 1889-yil;

e) 1878-yil

A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-e B) 1-e, 2-b, 3-d, 4-c, 5-a

C) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e D) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a, 5-e

### Variant-003

**1.** Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat", Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" gazetalari chop etilgan yillarda tarixda sodir bo'lgan voqeani ko'rsatining.

A) Buxoro amirligida barcha jadid maktablari yopildi.

B) Xitoyda chet el intervensiyasi boshlandi.

C) Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi.

D) Rus-Yapon urushi bo'lib o'tdi.

**2.** 1566-yil Gollandiyada qo'zg'olon boshlanganda qo'zg'olonchilar Ispaniya zulmining tayanchi bo'lgan nimalarni vayron qildilar?

A) savdo kompaniyalarini B) manufakturalarni

C) cherkov va monastirlarni D) bandargohlarni

**3.** Marokash davlati bilan bog'liq voqealar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) 1956-yil 5-aprelda Ispaniya Marokash mustaqilligini tan oldi; 2) 1961-yilda AQSh harbiy bazalari tugatildi;

3) G'arbiy Sahroyi Kabir masalasida Fransiya bilan ziddiyatlar tug'ildi; 4) 1962-yildan mutlaq monarxiya o'rnatildi; 5) 1956-yilda Fransiya o'z qo'shinlarini olib chiqib ketdi; 6) 1999-yil taxtga Muhammad VI o'tirdi  
A) 1, 2, 6 B) 3, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

**4.** Kimlar Buyuk Karlning joylardagi vakillari sifatida uning buyruqlarini bajaruvchilar hisoblangan?

A) graflar, gersoglar B) feodallar, graflar

C) tunginlar D) yepiskoplar, yirik monastirlar abbatlari

**5.** Lotin Amerikasida Paragvay davlati mustaqillikka erishgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.

A) Napoleon Elba oroliga surgun qilindi.

B) Qozoqlarning o'rta juz xonligi tugatildi.

C) Tarixga "Xalqlar jangi" nomi bilan kirgan jang bo'lib o'tdi.

D) Napoleon armiyasi Rossiyaga bostirib kirdi.

**6.** Ispaniyada fashistik diktaturalar o'rnatilgan yillar to'g'ri berilgan javobni toping.

A) 1920-, 1936-yillar B) 1929-, 1938-yillar

C) 1931-, 1939-yillar D) 1923-, 1939-yillar

**7.** Keyinchalik buyuk sarkarda bo'lib yetishgan Amir Temur dastlabki harbiy faoliyatini . . .

A) viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan

B) Tug'luq Temurga xizmat qilishdan boshlagan

C) Kesh dorug'aligidan boshlagan

D) Amir Husayin qo'shinida xizmat qilishdan boshlagan

**8.** Xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qaysi davrda bo'lib o'tgan?

A) IV-VII asrlar B) V-VII asrlar C) IV-VI asrlar

D) V-IX asrlar

**9.** O'z davrida Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini o'tagan hududni aniqlang.

A) Balx B) Chag'oniyon C) Baqtriya

D) Xuroson

**10.** 1918-1921-yillarda O'zbekiston madaniy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

1) Toshkentda Turkiston xalq universiteti ochildi;

2) Hamza nomidagi Akademik drama teatri ochildi;

3) Sharq institute faoliyat yurita boshladi; 4) Toshkent davlat konservatoriyasi ish boshladi; 5) «Chig'atoy gurungi» adabiy uyushmasi qizg'in ish boshladi;

6) Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti ochildi

A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 6

**11.** Qadimgi Rim tarixchi olimlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Plutarx; 2) Arrian; 3) Tit Liviy; 4) Tatsit; 5) Strabon.

A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4

**12.** Xorazmda Afrig'iyalar suloasi davrida qanday tasvirlar tushirilgan tangalar zarb etilgan?

- A) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan oltin tangalar  
 B) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalar  
 C) old tarafiga shoh surati, orqasiga malika tasviri tushirilgan kumush tangalar  
 D) old tarafiga shoh surati, orqa tarafiga bars tasviri tushirilgan oltin tangalar

**13.** XIX asrning 90-yillariga kelib Germaniya hukmron doiralari tomonidan Tinch okeanida qo'lg'a kiritilgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Kurill orollari; 2) Karolina orollari; 3) Mariana orollari; 4) Gavay orollari; 5) Samoa orolining bir qismi; 6) Marshall orollari; 7) Faros oroli; 8) Filippin oroli.

- A) 1, 6, 7, 8      B) 1, 2, 4, 7      C) 2, 3, 5, 6  
 D) 4, 5, 6, 8

**14.** Umum Hindiston kasaba uyushmalari kongressi qachon tashkil etilgan?

- A) 1922-yilda      B) 1919-yilda      C) 1921-yilda  
 D) 1920-yilda

**15.** Angliyada mutlaq monarxiya davrida mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini . . . belgilar edi.

- A) qo'shin bosh sarkardalari va cherkov  
 B) Maxfiy Kengash      C) Parlament      D) Bosh Vazir

**16.** Shayboniylarga amakivachcha bo'lgan ashtarxoniyar qachondan boshlab Ashtarxon xonligida hukmronlik qila boshlagan?

- A) XVII asr boshlaridan  
 B) XIV asrning 80-yillaridan  
 C) XVI asr o'rtalaridan      D) XV asrning 20-yillaridan

**17.** XIX asrning I yarmida Toshkentda muhtasham me'moriy inshootlar qurilib, eskilarini ta'mirlash ishlari olib borildi. Mazkur ishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) Kamol qozi, Tunqator, Hakim To'ra jome' masjidlari qurildi. 2) Shayx Xovandi Tohur me'moriy majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi. 3) Zayniddin Bobo uchun yangi maqbara qad ko'tarildi. 4) Ko'kaldosh madrasasi bunyod etildi. 5) Baroqxon madrasasi qayta ta'mirlandi. 6) Qo'qon O'rdasi bunyod etildi.

- A) 2, 3, 5, 6      B) 3, 4, 5, 6      C) 1, 3, 4, 6  
 D) 1, 2, 4, 5

**18.** 1921-yil martida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jumladan, . . . zarur edi.

- 1) Turkiston asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi bo'lib, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish; 2) o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish; 3) ko'p millatli o'lkadagi yerli xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini, an'analarini

- hisobga olish; 4) o'lkaning izdan chiqqan iqtisodiyotini yo'lga solishda Markazdan yordam olish; 5) o'lkada yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini chetga sotish  
 A) 1, 2, 3      B) 3, 4, 5      C) 2, 3, 4      D) 1, 3, 5

**19.** Vengriya hukumati tomonidan Xorvatiya Seymi tarqatib yuborilib, Konstitutsiyasi to'xtatib qo'yilgan yilda quyidagi qaysi voqea ro'y bergan?

- A) Chexiyada sud va ma'muriy ishlar uchun 2 til joriy qilindi  
 B) Chexiyada qamal holati joriy qilindi  
 C) Avstriya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi  
 D) Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi

**20.** Fransiyada minimal ish haqi eng ko'p darajada oshirilib, saylovda qatnashish yoshi 20 dan 18 yoshga tushirilishi qaysi prezident davriga to'g'ri keladi?

- A) F.Mitteran      B) J.Shirak      C) N.Sarkozi  
 D) J.d'Esten

**21.** Buyuk Britaniya nemislar tashabbusi bilan qurilayotgan Bag'dod temir yo'lining Fors qo'ltig'iga chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun qachon va qayerda o'z protektoratini o'rnatdi?

- A) 1899-yil Quvaytda      B) 1898-yil Falastinda  
 C) 1891-yil Suriyada      D) 1896-yil Iroqda

**22.** Qaysi davrda Rossiya o'zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi va ba'zi cheklashlar bekor qilinib, ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo'lishdi?

- A) XVIII asrning o'rtalarida  
 B) XIX asrning boshlarida  
 C) XIX asrning o'rtalarida  
 D) XVIII asrning oxirlarida

**23.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo'lish vaqti Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi?

- 1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi; 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste'foga chiqishi; 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi; 4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o'ringa ko'tarilishi; 5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi

- A) 1, 3, 4      B) 1, 3, 5      C) 2, 3, 5      D) 1, 2, 5

**24.** XIII asr boshlarida Orolbo'yi qoraqalpoqlarining bir qismini Volga va Ural daryolari bo'ylariga, Sirdaryo vohalariga ko'chib ketishga majbur qilgan voqeani aniqlang.

- A) Chingizxon tomonidan Amudaryo to'g'oni buzdirib tashlangach, Amudaryo o'zani o'zgarib, bu yerlarning suvsiz qolishi  
 B) Xorazmshohlar davlatining barham topishi  
 C) No'g'ay xonligining tarkib topishi

D) qipchoq qabilalarining beto'xtov va ayovsiz hujumlari

**25.** Yunusxo'ja bilan yaqin aloqada bo'lgan qozoq sultoni Bukey qaysi bo'lisning sultoni edi?

A) Samat B) Qorakesak C) Qorako'l D) Tabin

**26.** Mil.avv. VII asrlarda etrusklar Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun kimlarga qarshi kurash olib borgan?

A) yunon koloniyalariga B) elamiylarga  
C) doriylarga D) karfagenliklarga

**27.** 1827-yilda Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim qayerda imzolangan?

A) Parijda B) Londonda C) Afinada  
D) Istanbulda

**28.** Quyida berilgan qabilalar va ular yashagan hududlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.

1) massagetlar; 2) saka-tigraxauda; 3) saka-xaumovarka; 4) saka-tiay-taradarayya.

a) Orol dengizi bo'ylari va Sirdaryoning quyi oqimi;  
b) hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida; c) Pomir tog'li tumanlari va Farg'onada;  
d) Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida

A) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c B) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d  
C) 1-d; 2-b; 3-c; 4-a D) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b

**29.** Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.

1) Olimxon; 2) Erdonabiy; 3) Umarxon; 4) Norbo'tabiy

A) 2, 4, 1, 3 B) 1, 3, 2, 4 C) 4, 2, 1, 3  
D) 1, 2, 3, 4

**30.** Tropik Afrikada joylashgan Nyasalend qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?

A) Buyuk Britaniya B) Fransiya C) Ispaniya  
D) Belgiya

**31.** O'rta asrlarda arablarga qarshi bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlarining yillari bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Kufa shahridagi qo'zg'olon; 2) Abu Muslim qo'zg'oloni; 3) Muqanna qo'zg'oloni; 4) Bobek qo'zg'oloni;

a) 747-749-yillar; b) 685-687-yillar; c) 815-yil;  
d) 769-783-yillar

A) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d  
C) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d

**32.** Oliver Kromvel vafot etgan yili Dehli shahri kim tomonidan egallanganligini toping.

A) Jahongirshoh B) Shoh Jahon  
C) Avrangzeb Olamgir D) inglizlar

**33.** Quyidagi qurollar ilk bor qachon qo'llanilganligi sanasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) suv osti kemalari; 2) zaharli gaz (xlor); 3) tank;  
4) ognemyot;

a) 1917-yil noyabr; b) 1916-yil iyul; c) 1915-yil may;  
d) 1915-yil aprel

A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a; B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d;  
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d; D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a;

**34.** Italiya tarixiga oid birinchi jahon urushi natijalari bilan bog'liq ma'lumotlarni toping.

1. Janubiy Tirol va Triest porti Italiyaga o'tdi.  
2. Eypen va Morelle okruglari Italiyaga o'tdi.  
3. Germaniya to'laydigan reparatsiyaning 0,8%iga ega bo'ldi.

4. Yugoslaviyaning ba'zi hududlari Italiyaga berildi.  
5. Dodekanes oroli Italiya o'tdi.

6. Millatlar Ligasining doimiy a'zosiga aylandi.

7. Yaponiya harbiy-dengiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.

8. Fransiya harbiy-degiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.

A) 2, 3, 5, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6, 7 C) 1, 2, 3, 5, 8  
D) 1, 4, 5, 6, 8

**35.** 1917-yil 25-dekabr kuni Qo'qonda bo'lib o'tgan o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarning favqulodda qurultoyi qanday shior ostida o'tkazildi?

A) Qo'qon muxtoriyatini tezlik bilan tugatish choralarini ko'rish va sovetlashtirishni jadallashtirish  
B) Farg'ona vodiysida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish  
C) O'lkada sovet hokimiyati tuzumini mustahkamlash  
D) Muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish

**36.** XIX asrning I yarmida Xivada xon safarda bo'lgan vaqtlarda xonlikni kim boshqargan?

A) qo'shbegi B) devonbegi C) mehtar  
D) valiahd shahzoda

#### **Variant-004**

**1.** Amir Temur davlatidagi qaysi lavozim harbiy lavozim hisoblanmagan?

A) qo'shnboshi B) aylboshi C) xonsolar  
D) bakovul

**2.** Quyidagi qaysi davlat mil.avv. II asrda barham topgan?

A) Qang' B) Kushon C) Yunon-Baqtriya  
D) Dovon

**3.** Angliya qirolligi tomonidan Denlo qo'shib olingan vaqtni aniqlang.

A) IX asr oxirida B) X asrning so'nggi choragida  
C) X asr o'rtalarida D) X asrning birinchi choragida

**4.** Buxoroda amirlik taxti Shohmurod qo'lga o'tgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A)Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat tuzildi.

B) Qrim xonligi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.



- C) Afg'oniston shohi Ahmadshoh "Durri-Duron" unvonini oldi.  
 D) Eronda Qojarlar hukmronligi boshlandi.
- 5.** Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiyaqa yaqinlashgan yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsating.
1. Buyuk Britaniyada parlament islohoti o'tkazildi.  
 2. Rossiyada agrar islohot o'tkazildi.  
 3. Skobelev boshchiligida rus qo'shinlari turkmanlarga qarshi harbiy harakatlar boshladi.  
 4. "Hindiston milliy kongressi" tuzildi.  
 5. Efiopiya va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi.  
 6. Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi.  
 A) 3, 4, 5    B) 1, 2, 6    C) 2, 4, 5    D) 2, 3, 6
- 6.** "Ozbek sanoat" davlat assotsiatsiyasi Hindistonning qaysi firmasi bilan yiliga 4000 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan korxonaga qurgan?  
 A) "Xabar group"    B) "Shri export"    C) "Silk group"  
 D) "Indian-uzbek textile"
- 7.** "Risoi aziza" asarining muallifini aniqlang.  
 A) So'fi Olloyor    B) Sadridin Ayniy  
 C) Nozir Sholikorov    D) Xo'ja Hofiz
- 8.** Quyidagi qaysi voqea Qo'qon xonligida Muhammad Alixon hukmronlik qilgan yillar oralig'ida sodir bo'lgan?  
 A) Eron shohi Nodirshoh ichki ziddiyatlar oqibatida o'ldirildi.  
 B) Xitoyda II afyun urushi bo'lib o'tdi.  
 C) Lion to'qimachilari qo'zg'olon ko'tardilar.  
 D) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat qabul qilindi.
- 9.** Italiya bosh vaziri Orlando davrida amalga oshirilgan ishlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
- 1) Italiya qo'shinlari Vladivostokka jo'natildi;  
 2) Italiya Simernani bosib olish uchun hujum boshladi va bu hujum mag'lubiyat bilan tugadi;  
 3) Egey dengizi sohilidagi Triyest porti Italiyaga o'tdi;  
 4) Italiya armiyasi safidan bo'shatilganlar ishsiz qoldi;  
 5) Italiya Albaniyani tashlab chiqishga majbur bo'ldi;  
 6) Yugoslaviyaga qarashli Dodekanes oroli Italiya mulkiga aylandi;  
 7) Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirildi  
 A) 1, 3, 5, 7    B) 4, 5, 6, 7    C) 1, 2, 4, 5  
 D) 2, 3, 4, 5
- 10.** Rus qo'shinlari Kattaqo'rg'onga hujum uyushtirishdan oldin Buxoro amirligining qaysi shahrida mahalliy aholining qarshiligiga duch kelgan?  
 A) Jizzax    B) Urgut    C) Samarqand  
 D) Zirabuloq

- 11.** Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni toping.
- 1) G'arbiy Rim imperiyasining qulashi;  
 2) Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi;  
 3) Verden bo'linishi;  
 4) Franklar davlatining tashkil topishi  
 A) 1, 4, 3, 2    B) 3, 2, 1, 4    C) 2, 3, 4, 1  
 D) 1, 3, 2, 4
- 12.** Silla qirolligi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishgan asrni aniqlang.  
 A) IX asr    B) VI asr    C) VIII asr    D) VII asr
- 13.** XVIII asrning I yarmida Sibirda istehkomlar barpo etgan harbiy guruh rahbarini aniqlang.  
 A) F.Berg    B) I.Buxgols    C) B.Cherkasskiy  
 D) I.Kirillov
- 14.** Safaviylar xazinaga tushadigan daromadlar kamayishining oldini olish maqsadida XVIII asrdan boshlab qanday yo'l tutganliklarini aniqlang.  
 A) dehqonlar to'laydigan soliqlarni oshirish  
 B) katta ko'lamdagi urushlar olib borish va mustamlakachilik  
 C) davlat yerlarini sotish va dehqonlar sharoitini yaxshilash  
 D) savdo-sotiqdan keladigan tushumni ko'paytirish
- 15.** Makedoniyalik Aleksandr bosib olingan shaharlarda nima maqsadda yunonlarni joylashtirgan?  
 A) ushbu hududlarda o'ziga tayanch bo'ladigan zodagonlar toifasini shakllantirish  
 B) mahalliy xalqlarni qirib yuborish  
 C) bosib olingan hududlarda yunon davlatlarini barpo etish  
 D) ulkan hududda yunon madaniyatining tarqalishiga imkon yaratish
- 16.** O'zbekistonda "Sihat-salomatlik yili" deb nomlangan yilda yuz bergan voqealarni aniqlang.
- 1) Toshkentda Moskva Davlat Universitetining filiali ochildi.  
 2) "Isuzu" markali avtobuslar ishlab chiqarish boshlandi.  
 3) Sankt-Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti davlat rahbarlarining kengashida Markaziy Osiyo Umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi.  
 4) Moskvada O'zbekiston-Rossiya o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma imzolandi.  
 5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tuzilib, faoliyat yurita boshladi  
 A) 1, 3, 4    B) 3, 4, 5    C) 1, 2, 4    D) 1, 2, 5
- 17.** Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilingan yili sodir bo'lgan voqeani toping.

A) Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo‘shin bilan qipchoqlar qirg‘inini uyushtirdi.

B) Yaponiyadagi AQSh fuqarolariga eksterritoriallik huquqi berildi.

C) Rossiya O‘rta Osiyo xonliklariga olib boradigan yo‘lda ikkita istehkom qurdi.

D) Hindistonda sipohilar qo‘zg‘oloni boshlandi.

**18.** 1918-1921-yillarda O‘zbekiston madaniy hayotida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?

- 1) Toshkentda Turkiston xalq universiteti ochildi;
- 2) Hamza nomidagi Akademik drama teatri ochildi;
- 3) Sharq instituti faoliyat yurita boshladi;
- 4) Toshkent davlat konservatoriyasi ish boshladi;
- 5) «Chig‘atoy gurungi» adabiy uyushmasi qizg‘in ish boshladi;
- 6) Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti ochildi

- A) 1, 2, 4      B) 2, 4, 6      C) 1, 3, 5  
D) 1, 2, 3

**19.** O‘zbekistondagi eng yirik Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurilgan davrni toping.

- A) XX asrning 70-yillarida
- B) Ikkinchi jahon urushi yillarida
- C) XX asrning 50-yillarida
- D) XX asrning 60-yillarida

**20.** Germaniya imperiyasi tarixida nechanchi yildan boshlab yakshanba dam olish kuni deb belgilandi?

- A) 1892-yildan      B) 1890-yildan      C) 1889-yildan  
D) 1891-yildan

**21.** Qadimgi Xitoy tarixchilari qayerni Ansi deb keltirishgan?

- A) Ershini      B) Eronni      C) Antioxni      D) Baqtriyani

**22.** Litva nechanchi yilda NATOga a‘zo bo‘lgan?

- A) 2004-yilda      B) 1998-yilda      C) 2008-yilda  
D) 2001-yilda

**23.** O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan qaysi davlatda viloyat hukmdori voliy, shahar hokimi rais deb yuritilgan?

- A) Qoraxoniylar davlatida
- B) Qoraxitoylar davlatida
- C) G‘aznaviylar davlatida      D) Somoniylar davlatida

**24.** Qo‘qondagi Madrasayi Mirda o‘qib, keyinchalik qo‘shinga sipohlik qilgan ijodkorni aniqlang.

- A) Fazliy Namangoniy      B) Gulxaniy      C) Muxsim  
D) Maxmur

**25.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo‘lish vaqti Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to‘g‘ri keladi?

- 1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;
- 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste‘foga chiqishi;
- 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e‘lon

qilinishi;

4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o‘ringa ko‘tarilishi;

5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi

- A) 1, 2, 5      B) 2, 3, 5      C) 1, 3, 4      D) 1, 3, 5

**26.** Yaponiya tarixiga doir quyidagi ma‘lumotlardan bir yilda sodir bo‘lganlarini toping.

1. Simonoseki sulhi tuzildi.
2. 10 yillik qurollanish dasturi qabul qilindi.
3. Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o‘ziga qo‘shib oldi.
4. Yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e‘lon qilindi.

- A) 2, 3      B) 3, 4      C) 1, 2      D) 1, 4

**27.** Amir Temur bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib borgan Angliya qirolini aniqlang.

- A) Genrix IV      B) Karl VI      C) Ioann VII  
D) Genrix III

**28.** Abulxayrxon o‘z davlati poytaxtini Turadan qaysi shaharga ko‘chirgan?

- A) Marvga      B) Oqqo‘rg‘onga      C) Sig‘noqqa  
D) Suzoqqa

**29.** Quyidagi ma‘lumotlardan qaysi biri to‘g‘ri?

- A) 1890-yil iyul oyida chet el interventlari yalpi hujumga o‘tdi va Pekin shahri egallandi.
- B) Shimoliy Xitoyda 1890-yilda 600 dan ziyod chet el firmalari mavjud edi.
- C) 1884-yilda Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi.
- D) XIX asrning 60-yillaridayoq ajnabiylar Xitoyning 26 bandargohiga bemaol kirdilar va o‘zlarini xo‘jayinlardek tutdilar.

**30.** Oda Nobunaga nima sababdan Yaponiyada xristian dinining tarqalishiga homiylik qilgan?

1. Budda peshvolari Oda Nobunagaga dushman bo‘lgan kuchlarni qo‘llab-quvvatlamogda edi;
2. Oda Nobunaganing fikricha yaponlar xristian dinini qabul qilsa, yevropaliklar Yaponiyaga hech qachon harbiy hujum qilmas edi;
3. Oda Nobunaga tezlik bilan qo‘shinini Yevropa qurol-aslahasi bilan to‘la qurollantirish maqsadida yevropaliklar ishonchini qozonish uchun ham xristianlikni qo‘llab quvvatlagan edi;
4. Oda Nobunaga xristian dini vositasida yaponlarni yagona bayroq ostida birlashtirmogchi edi;
5. Oda Nobunaga shu yo‘l bilan Yaponiyaga yevropaliklarni ko‘plab kirgizib, shu orqali yapon xalqining naslini ham o‘zgartirmogchi edi.

- A) 2, 3      B) 2, 5      C) 1, 4      D) 1, 3

**31.** Germaniyada Federativ davlat maqomi bekor qilingan yilda. . .

- A) A.Gitler reyxkansler etib tayinlandi

- B) Fransiyada "Xalq fronti" vujudga keldi  
 C) SSSRda 10 yillik ta'lim joriy etildi  
 D) Angliyada "Vestminster nizomi" joriy etildi
- 32.** Rossiya tarixida birinchi inqilob boshlangan yilda. . .  
 A) Rossiya Koreyani Yaponiya ta'sir doirasida deb tan oldi  
 B) Eron Buyuk Britaniya va Rossiyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimni tan olishga majbur bo'ldi  
 C) Yaponiya Kurill orollarini Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi  
 D) Yaponiya urush e'lon qilmasdan Port-Arturdagi Rossiya harbiy dengiz kuchlariga hujum qildi
- 33.** Afg'oniston o'z mustaqilligiga erishgan vaqtda Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini egallab turgan shaxsni aniqlang.  
 A) D.Lloyd-Jorj    B) S.Bolduin    C) R.Makdonald  
 D) B.Lou
- 34.** Eron va Rossiya o'rtasida imzolangan qaysi shartnomadan keyin Eron Kavkazorti hududlariga bo'lgan da'vosidan voz kechdi?  
 A) Gandamak    B) Kuchukqaynarji    C) Turkmanchoy  
 D) Tehron
- 35.** O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti; 3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti  
 A) 3, 4, 5    B) 2, 3, 4    C) 1, 2, 3    D) 1, 3, 5
- 36.** XX asrning 20-yillarida Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiga xos xususiyatlar to'g'ri berilgan javobni toping.  
 1) qishloqda latifundiyachilar zo'ravonligi; 2) qisman qullar mehnatidan foydalanish; 3) ishlab chiqarishning asosan tashqi bozor ehtiyojlariga moslashib qolganligi; 4) yagona ichki bozorning yo'qligi; 5) chet el kapitaliga qaramlik; 6) yerlarning dehqonlarga taqsimlab berilishi  
 A) 1, 4, 6    B) 1, 3, 5    C) 1, 2, 6    D) 2, 4, 5

**Variant-005**

- 1.** 1887-yilda Transvaal oltin va mis konlari ochilgan edi. Quyidagi shaxslardan qaysi biri unga egalik qilgan?  
 A) Sesil    B) Reyter    C) Filipp II    D) Simens
- 2.** Makedoniyalik Aleksandr bosib olingan shaharlarda nima maqsadda yunonlarni joylashtirgan?  
 A) ushbu hududlarda o'ziga tayanch bo'ladigan zodagonlar toifasini shakllantirish  
 B) mahalliy xalqlarni qirib yuborish  
 C) ulkan hududda yunon madaniyatining tarqalishiga imkon yaratish

- D) bosib olingan hududlarda yunon davlatlarini barpo etish
- 3.** Shayboniyxon Farg'onani egallagach Axi va Andijonni kimga tortiq etgan?  
 A) Ko'chkunchixonga    B) Jovshon Sultonga  
 C) Xoja Mahmud Sultonga    D) Jonibek Sultonga
- 4.** 1921-yilda imzolangan shartnomalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) AQSh-Germaniya tinchlik shartnomasi;  
 2) Buyuk Britaniya-Sovet Rossiyasi savdo shartnomasi;  
 3) Germaniya-Sovet Rossiyasi savdo shartnomasi;  
 4) Sovet-afg'on do'stlik shartnomasi; 5) To'rtlar shartnomasi; 6) Italiya-Ispaniya do'stlik shartnomasi;  
 7) Sevr shartnomasi  
 A) 3, 4, 5, 6    B) 1, 2, 4, 5    C) 1, 2, 6, 7  
 D) 1, 2, 3, 6
- 5.** Quyidagi qaysi voqea tufayli AQSh Yaponiyaga 147 mln dollarlik qurol-yarog' yetkazib berdi?  
 A) 1927-yilda "Tanaka memorandum" qabul qilinishi  
 B) 1938-yil 29-iyulda Sovet davlatiga hujum uyushtirishi  
 C) 1939-yilda Mog'ulistoniga hujum boshlashi  
 D) Yaponiya tomonidan Manchjou-Go davlati tuzilishi, Jexe va Xebey viloyatlarining egallanishi
- 6.** Uyg'onish davri namoyandalaridan qaysi biri rasm chizish san'atini "san'atlar malikasi" deb atagan?  
 A) Mikelanjelo Buanarroti    B) Leonardo da Vinchi  
 C) Rembrandt    D) Rafael Santi
- 7.** Argentinada Uruburi boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazilganidan so'ng yangi hukumat tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarni ko'rsating.  
 1. Kongress tarqatib yuborildi.  
 2. 8 soatlik ish kuni joriy etildi.  
 3. Mamlakatda qamal holati joriy etildi.  
 4. 8 soatlik ish kuni bekor qilindi.  
 5. Matbuot uchun qattiq senzura tartibi o'rnatildi.  
 6. Sanoat korxonalari milliylashtirildi.  
 7. Yerlar dehqonlarga taqsimlab berildi.  
 8. Mamlakat neft sanoatini milliylashtirish haqidagi qarori bekor qilindi.  
 9. Konstitutsiyaning amal qilishi vaqtincha to'xtatildi.  
 A) 2, 5, 7, 8, 9    B) 1, 2, 5, 6, 7    C) 2, 6, 7, 8, 9  
 D) 1, 3, 4, 5, 8
- 8.** Arab Muhammadxonning o'g'illari otalariga qarshi isyon ko'targan yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan shaxsni ko'rsating.  
 A) Nodir Muhammad    B) Vali Muhammad  
 C) Abdulazizxon    D) Imomqulixon
- 9.** XX asrning 50-80-yillarida qurib ishga tushirilgan O'rta Osiyoda eng yirik Qayroqqum GESi qaysi Respublika hududida joylashgan?  
 A) Qozog'iston    B) Qirg'iziston    C) Tojikiston



D) O'zbekiston

**10.** O'zlarini Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari deb hisoblovchilar jamoasi yetakchisining unvonini aniqlang.

- A) muhtasib      B) naqib      C) shayxulislom  
D) sadr

**11.** II jahon urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyotini tezroq tiklash maqsadida iqtisodiyotning "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi" modeli tanlangan davlatni aniqlang

- A) Italiya      B) GFR      C) Fransiya  
D) Ispaniya

**12.** Nechanchi yilda Fransiyada davlat byudjeti daromadlari ilk bor urushdan keyingi xarajatlardan ortiq boldi?

- A) 1920-yil      B) 1922-yil      C) 1926-yil  
D) 1919-yil

**13.** Kiyev knyazi Svyatoslav kimlarga qarshi urushlar olib borgan?

- 1) Xazar xoqonligiga; 2) drevlyan qabilalariga;  
3) Bolgariyaga; 4) bijanaklarga; 5) qipchoqlarga;  
6) Vizantiyaga  
A) 1, 4, 5, 6      B) 2, 3, 4, 5      C) 1, 2, 3, 4  
D) 1, 3, 4, 6

**14.** O'rta asrlar Yevropa universitetlarining ular tashkil topgan davlatlar bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Italiya; 2) Ispaniya; 3) Fransiya; 4) Angliya;  
a) Oksford; b) Tuluza; c) Bolonya; d) Seviliya  
A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a      B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b      D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d

**15.** Xiva xonligida kimlar bevatan deb atalgan?

- A) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari  
B) qoraqalpoqlar  
C) ko'chmanchi qozoq chorvadorlari  
D) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar

**16.** Chig'atoy ulusi davriga oid me'moriy obidalarni aniqlang.

- 1) To'rabekxonim maqbarasi; 2) Bayonqulixon maqbarasi; 3) Nomozgoh masjidi; 4) Ernazar elchi madrasasi.  
A) 2, 3      B) 1, 4      C) 1, 2      D) 3, 4

**17.** XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda mustamlaka tartibi qay tarzda o'rnatildi?

- 1) harbiy kuch, politsiya tizimi joriy etildi; 2) mahalliy bosma nashrlar tashkil qilindi; 3) temiryo'llar qurildi;  
4) Davlat kengashi faoliyatida mahalliy aholi qatnashadigan bo'ldi; 5) paxta ekiladigan maydonlar kengaytirildi; 6) yangi usul maktablari ochildi  
A) 2, 4, 6      B) 3, 4, 5      C) 1, 2, 4      D) 1, 3, 5

**18.** Muhammad Shayboniyxon harbiy yurishlarda faol qatnashgan Jonibek Sulton kimning o'g'li edi?

- A) Berka Sultonning o'g'li Iskandarning  
B) Shohbudoq Sultonning o'g'li Mahmudning  
C) Abulxayrxonning o'g'li Xo'ja Mahmud Sultonning  
D) Abulxayrxonning o'g'li Suyunchxo'janing

**19.** Abdullaxon II vafotidan necha yil o'tib Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?

- A) 3      B) 1      C) 5      D) 6

**20.** O'zbekiston brezent ishlab chiqaruvchi "Kenaf" qo'shma korxonasini qaysi davlat hamkorligida tashkil etgan?

- A) Vengriya      B) Chexiya      C) Gretsiya  
D) Italiya

**21.** Nechanchi yilda Yugoslaviyada ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklaydigan konstitutsiya qabul qilindi?

- A) 1974-yil      B) 1972-yil      C) 1971-yil      D) 1973-yil

**22.** Yaponiya tarixiga doir quyidagi ma'lumotlardan bir yilda sodir bo'lganlarini toping.

1. Simonoseki sulhi tuzildi.  
2. 10 yillik qurollanish dasturi qabul qilindi.  
3. Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi.  
4. Yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e'lon qilindi.  
A) 1, 2      B) 3, 4      C) 1, 4      D) 2, 3

**23.** Turk xoqonligining Sosoniylar va Vizantiya bilan yaqinlashuviga sabab bo'lgan siyosiy vaziyatni aniqlang.

- A) Sosoniylar va Vizantiya bilan savdo-sotiq aloqalarining manfaatliligi  
B) Eftallar bilan to'qnashuvning muqarrarligi  
C) Bu davlatlar o'rtasida diniy yaqinlikning mavjudligi  
D) Turk hoqonligining ikkiga bo'linib ketishi

**24.** Quyida berilgan voqealardan bir yilda bo'lib o'tganlarini toping.

- 1) BXSР Konstitutsiyasi qabul qilindi.  
2) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi.  
3) O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi.  
4) IV Butun Xorazm qurultoyida respublikaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.  
5) Moskvaga ma'qul kelmagani uchun P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo'lgan XXSR hukumati tarkibi bekor qilindi  
A) 1, 3, 4      B) 3, 4, 5      C) 2, 3, 4      D) 1, 2, 5

**25.** Quyidagi tarixiy voqealar orasidan bir yilda yuz berganlarini aniqlang.

1. Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida do'stlik shartnomasi imzolanishi;  
2. Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma imzolanishi;  
3. Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolanishi;

4. Londonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim imzolaniishi.

- A) 1, 4      B) 1, 3      C) 2, 3      D) 2, 4

**26.** Germaniya Reyxstagi lyuterchi-knyazlar o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan yilda. . .

- A) Abdullaxon II Badaxshonni egalladi  
B) Shayboniy Abu Said taxtga o'tirdi  
C) Abdullaxon II tavallud topdi  
D) Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solindi

**27.** Buxoro amirligida suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lash bilan birga yana qanday majburiyatni bajarishi lozim edi?

- A) ushbu yerlarda yashovchi aholini yangi kanallar qazish ishlariga safarbar etishi  
B) amirlikdagi qurilishlar uchun o'z mablag'idan ulush ajratishi va mardikorlar yuborishi  
C) oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi  
D) yiliga bir marotaba amir saroyida bazm uyushtirishi

**28.** XIX asrning oxirlarida Xitoy-Fransiya munosabatlarining yomonlashuviga nima sabab bo'lganini toping.

- A) Xitoy tomonidan bandargohlarning yopib qo'yilishi  
B) Fransiya konsuliga uyushtirilgan fitna  
C) Fransiya tomonidan Vyetnamning bosib olinishi  
D) Afyun urushining kelib chiqishi

**29.** Turkiyada 1912-yil avgustidan 1913-yil yanvar oyigacha davlatni boshqargan siyosiy partiya qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) "Yosh turklar"      B) "Ittihodi Muhammadiy"  
C) "Hurriyat va birdamlik"      D) "Birlik va taraqqiyot"

**30.** Angliyada "Oq va Qizil gullar urushi" necha yil davom etgan?

- A) 20 yil      B) 30 yil      C) 25 yil      D) 35 yil

**31.** To'g'ri ma'lumot keltirilgan javobni toping.

- A) Katta Ergash turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo'lmagan edi, deb yozgandi uning muxolifatlaridan biri.  
B) 1919-yil o'rtalariga kelib Skobelev, Marg'ilon, Andijon, Namangan va O'sh kabi hududlarda harakat qilayotgan taniqli rahnamolar, ularning jangchilari Madaminbekning yashil bayrog'i ostida birlashayotgan edi.  
C) 1920-yilning birinchi yarmida milliy-ozodlik kuchlari sovet qo'shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarba berdilar.  
D) Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakati yetakchilaridan bo'lmish Madaminbek Ahmadbek o'g'li 1882-1920-yillar oralig'ida yashagan.

**32.** Ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlangan yilda quydagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

- A) Kushka shahri bosib olindi  
B) Xitoy-Yaponiya urishi bo'lib o'tdi  
C) Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Amerika Respublikasiga birlashdi  
D) Berlin kongressi chaqirildi

**33.** Quyida berilganlardan XIX asrda Afrikadagi eng muhim qul savdosi bazalarini aniqlang.

- 1) Misr; 2) Tunis; 3) Marokash; 4) Sudan; 5) Angola; 6) Mozambik; 7) Madagaskar  
A) 1, 2      B) 5, 6      C) 3, 4      D) 4, 7

**34.** Odamlar Nil daryosi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtirishga bel bog'lagan davrda tarixda yuz bergan voqealarni toping.

- 1) Misrda quyosh xudosiga e'tiqod qilish boshlandi;  
2) Krit orollarida sivilizatsiya shakllandi; 3) O'rta Osiyo janubida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchlik vujudga keldi; 4) Eronda ilk davlat vujudga keldi; 5) Shumerliklarning mixxat yozuvi vujudga keldi; 6) Babil davlati vujudga keldi  
A) 5, 6      B) 1, 2      C) 3, 4      D) 3, 5

**35.** Samarqandda Amir Temur ko'rsatmasi bilan barpo etilgan bog'larning qaysi birida mehmonlar qabul qilinadigan oltin taxtli qarorgoh bo'lgan?

- A) Bog'i Chinor      B) Bog'i Baland      C) Bog'i Nav  
D) Bog'i Dilkusho

**36.** Pyotr I kimning bergan ma'lumotlari ta'sirida o'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi va ikki harbiy ekspeditsiya tashkil etadi?

- A) I.Xoxlov      B) Qulibek      C) Xoja Nafas  
D) Haquli

### Variant-006

**1.** Lotin Amerikasidagi qaysi davlatda 2010-yildagi Prezident saylovlarida ilk marta ayol kishi g'olib bo'ldi?

- A) Chili      B) Argentina      C) Venesuela  
D) Braziliya

**2.** XX asr 60-yillarida O'zbekistonning irrigatsiya mashinasozlik tarmog'i markaziga aylangan shaharni toping.

- A) Toshkent      B) Jizzax      C) Samarqand  
D) Andijon

**3.** XVI asrda Niderlandiyaning iqtisodiy va savdo markazi bo'lgan Antverpen shahri hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?

- A) Shvetsiya      B) Daniya      C) Belgiya  
D) Lyuksemburg

**4.** Turkistondagi sovet hokimiyati rahbarlari tomonidan Amudaryo bo'limida Xiva xonligi tuzumiga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan harbiy dastalarga kimlar boshchilik qilgan?

- A) N.B.Sherbakov va N.K.Shomansurov  
B) Sh.Eliava va Kuybishev  
C) N.A.Shaydakov va N.M.Sherbakov  
D) N.A.Shaydulina va M.V.Frunze

**5.** 1919-yil Fransiya saylovlarida g'alaba qozongan "Milliy blok" saylovchilarga bergan va'dalarini bajarmaganligiga nima sabab b'ldi?

- A) jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi  
B) mustamlakalarda boshlangan milliy ozodlik harakatlari  
C) Milliy blokda boshlangan bo'linish  
D) Germaniya xavfining kuchayib ketishi

**6.** Qaysi javobda davlat, tarixiy shaxs va yuz bergan tarixiy voqea to'g'ri moslashtirilgan?

- A) Xuroson - Tohir ibn Husayn - Muqanna qo'zg'olonining bostirilishi  
B) Chig'atoy ulusi - Kebek - pul islohoti  
C) Xuroson - Husayn Boyqaro - Arab xalifaligiga qarshi kurash  
D) Chig'atoy ulusi - Temur Malik - Sarbadorlar rahbari

**7.** Milodiy IV asrda Qadimgi Rim tarixida bo'lib o'tgan voqealarni aniqlang.

- 1) Vizantiy (Konstantinopol) shahri poytaxt deb e'lon qilindi; 2) Italiyaga xunn qabilalari bostirib kirdilar; 3) Rimga germanlarning vandal qabilalari bostirib kirdilar; 4) Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi.

- A) 1, 2    B) 1, 4    C) 3, 4    D) 2, 3

**8.** Quyidagi tasviriy san'at ijodkorlaridan qaysi biri Nasrulloxon amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan?

- A) Mir Ma'sum Olamiyon    B) Mirzo Sodiq Jondoriy  
C) Ahmad Donish    D) Ahmad Dabir

**9.** Xiva xonligida mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lgan amaldorlarni belgilang.

- A) qoshbegi va mushrif    B) mehtar va qo'shbegi  
C) mehtar va otaliq    D) devonbegi va naqib

**10.** Yut qabilalari Kent viloyatini bosib olgan davrda mamlakatimiz tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Yettisuv va Sharqiy Turkistondan xion qabilalari kirib keldi  
B) toxar qabilalari Xorazm va Amudaryo havzalariga kirib keldi  
C) eftal qabilalari kirib keldi  
D) Turk hoqonligi tashkil topdi

**11.** XIX asrning I yarmida Xivada xon safarda bo'lgan vaqtlarda xonlikni kim boshqargan?

- A) devonbegi    B) qo'shbegi    C) mehtar  
D) valiahd shahzoda

**12.** Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intilib rus qo'mondonligi vakillaridan kim bilan maxfiy ravishda uchrashadi?

- A) A.V.Voskovoynikov    B) V.V.Velyaminov-Zernov  
C) N.S.Mixaylov    D) A.T.Beznosikov

**13.** Eron va Rossiya o'rtasida imzolangan qaysi shartnomadan keyin Eron Kavkazorti hududlariga bo'lgan da'vosidan voz kechdi?

- A) Kuchukqaynarji    B) Turkmanchoy    C) Tehron  
D) Gandamak

**14.** Buxoro amiri Muzaffarning tobelik siyosatidan norozi bo'lib, xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan amirning katta o'g'li kim edi?

- A) Abdulahad    B) Abdumalik to'ra    C) Bobobek  
D) Jo'rabek

**15.** Tropik Afrikada joylashgan Nyasalend qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?

- A) Ispaniya    B) Buyuk Britaniya    C) Belgiya  
D) Fransiya

**16.** Quyida keltirilgan ma'lumotlardan to'g'risini aniqlang.

- 1) "Marshall rejasi"ga ko'ra AQSh 1948-1952-yillar oralig'ida G'arb davlatlariga 13 mlrd dollar miqdorida yordam ko'rsatdi.  
2) 1999-yilning dekabr oyida YHning a'zolari qurolli kuchlarni tuzish haqida qaror qabul qildilar.  
3) XX asr 80-yillari oxirlariga kelib Yevropa Hamjamiyatiga a'zo 15 ta davlatning 13 tasida hukumatni sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar vakillari boshqardi;  
4) XX asrning 20-40-yillarida totalitar taraqqiyot modelining mavqei kuchli bo'ldi.  
5) 2008-yilda Yevropa liderlari Fransiya, Italiya va Ispaniya yangi "O'rtayer dengizi ittifoqi" tashkiloti tuzilganligini e'lon qildilar.

- A) 1, 3, 4    B) 1, 2, 4    C) 2, 4, 5    D) 1, 2, 3

**17.** Fransiyada diniy urushlar davom etayotgan davrda katolik liga tuzgan shaxsni aniqlang.

- A) Fransua Giz    B) Genrix Giz    C) Genrix Burbon  
D) Karl IX

**18.** XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro amirligi hududlari orqali Afg'onistonga qanday buyumlarni katta miqdorda chiqarib turgan?

- 1) temir; 2) movut; 3) farang matolari; 4) chinni buyumlar; 5) baxmal; 6) mo'yna; 7) chit; 8) g'alla; 9) gugurt; 10) kerosin; 11) cho'qqi qalpoqlar  
A) 2, 4, 5, 7, 9, 10    B) 1, 4, 5, 6, 8, 10  
C) 3, 5, 7, 9, 10, 11    D) 1, 3, 4, 8, 9, 11

**19.** O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 2011-yil yanvar oyida Bryusselga tashrifi chog'ida uchrashgan Yevropa



Ittifoqi Komissiyasi Prezidentini va NATO Bosh kotibini aniqlang.

- A) J.Kollinz va R.Kembri  
B) R.fon Vayzenker va G.Kol  
C) R.Romer va T.Sandvest  
D) J.M.Barrozo va A.F.Rasmussen

**20.** Qadimgi misrliklar yerosti saltanati xudosini qanday atashgan?

- A) Ptax      B) Osiris      C) Maat      D) Isida

**21.** Quyidagi siyosiy arboblarning faoliyatiga oid faktlar to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Lord Dafferin; 2) Tilak; 3) Parnell; 4) A.Griffit.

a) «Shinfeyn» partiyasi asoschisi; b) Irlandiya uchun gomrul talab qilgan Angliya parlamenti a'zosi; c) HMK so'l-radikal oqimi rahbari; d) Angliyaning Hindistondagi vitse-qiroli.

- A) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a                      B) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c  
C) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d                      D) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b

**22.** O'rta asrlarda arablarga qarshi bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlarining yillari bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Kufa shahridagi qo'zg'olon; 2) Abu Muslim qo'zg'oloni; 3) Muqanna qo'zg'oloni; 4) Bobek qo'zg'oloni;

- a) 747-749-yillar; b) 685-687-yillar; c) 815-yil; d) 769-783-yillar

- A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c                      B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c  
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d                      D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

**23.** Makedoniyalik Aleksandr bosib olingan shaharlarda nima maqsadda yunonlarni joylashtirgan?

- A) ushbu hududlarda o'ziga tayanch bo'ladigan zodagonlar toifasini shakllantirish  
B) mahalliy xalqlarni qirib yuborish  
C) bosib olingan hududlarda yunon davlatlarini barpo etish  
D) ulkan hududda yunon madaniyatining tarqalishiga imkon yaratish

**24.** II jahon urushidan keyin Lotin Amerikasida latifundiyachilikning qulashi sabablarini aniqlang.

- 1) dehqonlar kurashi ta'sirida hukumatning agrar islohot o'tkazishga majbur bo'lishi; 2) milliy sanoatning gurkirab rivojlanishi; 3) kuchli demografik o'zgarishlar yuz berganligi; 4) Lotin Amerikasida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning keskin kamayib ketganligi; 5) qahva oligarxiyasining hokimiyatdan chetlashtirilganligi

- A) 1, 3, 5      B) 1, 2, 3      C) 1, 4, 5      D) 2, 3, 4

**25.** Turkiston jadidlarining fikricha mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda zarur hisoblangan choralarni aniqlang.

- 1) yer, suv, yerusti va yerosti boyliklarini Turkiston xalqining umumiy boyligi deb e'lon qilish; 2) turli

ijtimoiy va ma'rifiy jamiyatlar tuzish; 3) barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash; 4) zavod va fabrikalar qurish, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarish;

5) mustamlakachilikka qarshi kurash dasturini yaratish; 6) dehqonlar ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirish

- A) 1, 5, 6      B) 1, 3, 4      C) 2, 5, 6  
D) 2, 3, 4

**26.** 1938-yilning 3-noyabrida Yaponiya. . .

A) Sharqiy Osiyoda tartib o'rnatish haqida deklaratsiya e'lon qildi

B) Tinch okeanida joylashgan AQSh harbiy bazalariga ig'vogarlik hujumlari uyushtirdi

C) Xitoy hududlariga bostirib kirdi

D) Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga hujum qildi

**27.** Nechanchi yildan boshlab Turkistonda

mustamlakachilar oddiy fuqarolarni ma'murlarga qarshilik ko'rsatgan taqdirda bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar?

- A) 1895-yildan      B) 1893-yildan      C) 1891-yildan  
D) 1892-yildan

**28.** Quyidagi qaysi voqealar orasida bir asrlik (100 yil) farq bor?

- 1) X.Kolumb ekspeditsiyasining boshlanishi;  
2) "Yengilmas armada"ning mag'lub bo'lishi;  
3) Braziliyaning kashf etilishi;  
4) Avstraliyaning kashf etilishi; 5) "Ost-Indiya"

kompaniyasining tuzilishi; 6) Atlantika orqali Hindistonga boradigan dengiz yo'lining kashf etilishi

- A) 5, 6      B) 4, 5      C) 3, 5      D) 1, 2

**29.** Toshkent hokimligining Katta qozoq juzi ustidan nazoratni kuchaytirishi qaysi davlatning iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ydi?

- A) Qo'qon xonligining      B) Buxoro amirligining  
C) Xiva xonligining      D) Sibir ma'muriyatining

**30.** XIX asrning so'nggi choragida Avstriya-Vengriya imperiyasining ilg'or Yevropa mamlakatlariga nisbatan sanoat taraqqiyoti sur'atlarining sekinlashuviga nima sabab bo'lgan edi?

- A) imperiya asosiy aholisining ishsizligi  
B) mamlakatda feodalizm sarqitlarining saqlanib qolganligi

- C) mustamlakalarning mavjud emasligi  
D) chet davlatlarga ko'plap sarmoya chiqarganligi

**31.** Buxoro amirligida tanobona solig'ining miqdori nimaga asoslanib belgilangan?

- A) ekinzordagi ekinnig turiga  
B) tanobona to'laydigan xo'jaliklarning soniga  
C) ekinzorning bozorga uzoq-yaqinligiga  
D) ekinzor maydonining miqdoriga

**32.** 1451-yida temuriy shahzodalar Abu Said bilan Mirzo Abdulla o'rtasida jang qayerda bo'lgan?

- A) Damashq qishlog'i yaqinida  
 B) Sheroz qishlog'i yaqinida  
 C) Tarnob yaqinida D) Ray viloyati yaqinida

**33.** Rossiya tarixiga doir quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1. V.Plexanov rahbarligida "Mehnatni ozod qilish guruhi" tuzildi.

2. Peterburgda "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tuzildi.

3. II Davlat dumasiga saylov o'tkazildi.

4. Rossiyadagi barcha sotsial-demokratik guruhlar "Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi" deb atalgan partiyaga birlashdi.

- A) 1, 3, 2, 4 B) 1, 2, 4, 3 C) 2, 1, 4, 3  
 D) 1, 2, 3, 4

**34.** O'rta asrlarda Fransiyada qirolning markazlashtirish siyosatiga kimlar qarshi edilar?

- A) shaharliklar, mayda va o'rta feodallar  
 B) yirik dunyoviy va diniy feodallar  
 C) dehqonlar va hunarmandlar  
 D) yirik feodallar, savdogarlar va shaharliklar

**35.** Mo'g'ullar hukmronli davriga joriy etilgan soliq turlarini aniqlang.

1) xiroj; 2) kalon; 3) tamg'a; 4) targ'u; 5) qopchur; 6) shulen; 7) ushr; 8) tuz solig'i; 9) tutun solig'i; 10) jun solig'i; 11) jiz'ya; 12) kumush solig'i.

- A) 2, 4, 7, 8, 10, 11, 12 B) 1, 2, 4, 5, 6, 9, 10  
 C) 2, 3, 5, 6, 10, 11, 12 D) 2, 4, 5, 6, 8, 10, 12

**36.** G'arbiy Afrikada mustamlakalar uchun kurashda quyidagi qaysi davlatlarning manfaatlarini to'qnash keldi?

1) Angliya; 2) Fransiya; 3) Ispaniya; 4) Portugaliya;  
 5) Italiya; 6) Germaniya; 7) Belgiya; 8) AQSh;  
 9) Daniya; 10) Shvetsiya

- A) 1, 2, 3, 7, 9, 10 B) 1, 2, 4, 6, 7, 8  
 C) 1, 2, 3, 5, 6, 9 D) 1, 2, 4, 5, 6, 10

#### Variant-007

**1.** O'rta asrlarda Xorazm davlatining mustaqillikka erishishi qaysi hukmdor nomi bilan bog'liq?

- A) Anushtegin B) Qutbiddin Muhammad  
 C) Otsiz D) Elarslon

**2.** Turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasiga Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari, shuningdek, sobiq Ittifoq tomonidan berilgan rasmiy nom qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A) Panislomizm B) Yosh turklar C) Panturkizm  
 D) Militarizm

**3.** Fon Kaufman Turkiston general-gubernatori lavozimini egallab turgan davrda jahon tarixida quyidagi voqealardan qaysilari yuz bergan?

1) Fransiya-Prussiya urushi bo'lib o'tdi.

2) Uchlar Ittifoqi tuzildi.

3) Buyuk Britaniya hukumati irlandlarga "Yer-suv akti"ni taklif qildi.

4) Porfilio Dias Meksika prezidenti deb e'lon qilindi.

5) O'rta Osiyo chor Rossiyasiga to'la bo'ysundirildi.

6) Rim Italiya qirolligi poytaxti deb e'lon qilindi.

- A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 1, 2, 4, 5  
 D) 3, 4, 5, 6

**4.** Quyidagi voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.

1) Rossiya va Shvetsiya o'rtasida hozirgi Ukraina hududida urush bo'lib, unda Rossiya g'alaba qozondi;

2) Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon bo'ldi va unga Mir Vaisxon rahbarlik qildi;

3) Rossiya va Fransiya o'rtasida "Tilzit shartnomasi" nomini olgan shartnoma imzolandi; 4) Rim Papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi.

- A) 1, 2 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 2, 4

**5.** 1441-1442-yillarda Shohrux Mirzo Hindistonga yuborgan elchilarga kim rahbarlik qilgan?

- A) Ardasher B) Qozizoda Rumiy

- C) Abdurazzoq Samarqandiy D) G'iyosiddin Jamshid

**6.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda tuzilgan, milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda katta rol o'ynagan xaziradagi diviziyani toping.

- A) 353-o'qchi diviziya B) 258-o'qchi diviziya  
 C) 24-o'qchi diviziya D) Panfilov diviziyasi

**7.** Slovakiya Yevropa Ittifoqi va NATOga qabul qilingan yil sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) L.Kachinskiy Polsha Prezidenti bo'ldi.  
 B) M.Karzay Afg'oniston Prezidenti qilib saylandi.  
 C) Ozarbayjonda I.Aliyev Prezident qilib saylandi.  
 D) A.Akayev Qirg'iziston Prezidenti lavozimidan ketdi.

**8.** Germaniya Bag'dod temir yo'li loyihasining Izmir-Anqara qismini qo'lga kiritgan va bu loyihani to'la qo'lga kiritgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) 1889-, 1902-yillar B) 1888-, 1905-yillar  
 C) 1888-, 1903-yillar D) 1889-, 1904-yillar

**9.** Yevropa Kengashining oliy organlarini aniqlang.

- A) Yevroparlament va Bosh vazirlar Kengashi  
 B) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Gaaga Sudi  
 C) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Parlament Assambleyasi  
 D) Parlament Assambleyasi va Strasburg Kengashi

**10.** Tarixda aynan bir vaqtda sodir bo'lgan voqealar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1. Xan imperiyasi uchga bo'linib ketdi.  
 2. O'rta Osiyoda qadimgi shaharlar rivoj topdi.  
 3. Kushon davlati inqirozga yuz tutdi.  
 4. Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.  
 A) 1, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 2, 4

11. XIX asrning I yarmida Toshkentda muhtasham me'moriy inshootlar qurilib, eskilarini ta'mirlash ishlari olib borildi.

Mazkur ishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1) Kamol qozi, Tunqator, Hakim To'ra jome' masjidlari qurildi.

2) Shayx Xovandi Tohur me'moriy majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi.

3) Zayniddin Bobo uchun yangi maqbara qad ko'tarildi.

4) Ko'kaldosh madrasasi bunyod etildi.

5) Baroqxon madrasasi qayta ta'mirlandi.

6) Qo'qon O'rdasi bunyod etildi.

A) 3, 4, 5, 6      B) 1, 3, 4,      6 C) 2, 3, 5, 6

D) 1, 2, 4, 5

12. "Al-izoh" jurnali . . . ning nashriy organi hisoblangan.

A) "Sho'royi Islomiya"      B) "Yosh buxoroliklar"

C) "Yosh turklar"      D) "Sho'royi Ulamo"

13. Angliyada mutlaq monarxiya davrida mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini . . . belgilar edi.

A) Parlament      B) Maxfiy Kengash

C) qo'shin bosh sarkardalari va cherkov

D) Bosh Vazir

14. Xiva xonligi tarixi to'g'risidagi asarlar bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'rilarini belgilang.

1) XVIII asrda yashagan Hasanbek Rumlning "Eng go'zal tarix" asari XVI asrning I yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan.

2) Abulg'oziyxon Bahodirning "Shajarayi turk" asarining X bobi Xiva-Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan.

3) "Firdavs-ul iqbol" asari Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan.

4) Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixi Yusufbek Bayoniy tomonidan yaratilgan.

A) 1, 3      B) 2, 4      C) 3, 4      D) 1, 2

15. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti nimaga asoslangan?

A) mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga

B) hunarmandchilik taraqqiyotiga va urug'chilik udumlariga

C) savdo-sotiq sohasidagi yutuqlarga va harbiy ittifoq mezonlariga

D) Qadimgi Sharqdagi shaharlar va manzilgohtarlar rivojiga

16. Qo'qon xoni Muhammad Alixon qachon va kimning foydasiga taxtdan voz kechdi?

A) 1842-yil, Amir Nasrullo

B) 1842-yil Ibrohim dodxoh

C) 1841-yil, Sulton Mahmudxon

D) 1841-yil, Xudoyorxon

17. Yuz yillik urush natijasida Angliya . . . tashqari Fransiyadagi barcha yerlaridan mahrum bo'ldi.

A) Burgundiyadan

B) Lotaringiyadan

C) Kale portidan

D) Bretaniyadan

18. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qishloq jamoalari qanday tabaqalarga ajralib borganligini aniqlang.

A) sarkor va kashovarlar

B) sudxo'r va kashovarlar

C) dehqon va kadivarlar

D) kadivar va chorvadorlar

19. Birinchi jahon urushi tufayli Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga sabab bo'lgan holatlarni toping.

1) urushayotgan davlatlarda Lotin Amerikasi mamlakatlari xomashyosi va qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning ortib ketganligi;

2) urushayotgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish orqali katta miqdordagi foiz hisobiga foyda ko'rishi;

3) urush tufayli Yevropadan keltiriladigan tayyor mahsulotlar keskin kamayib, Lotin Amerikasi davlatlarida qayta ishlash sanoatining kuchayishi;

4) Jahon bozorida xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxining ko'tarilishi;

5) urushayotgan davlatlarga qurol-yarog' sotish va undan foyda olinishi;

6) urushayotgan davlatlar oltin zahiralarning sotib olinishi.

A) 1, 4, 6

B) 1, 3, 4

C) 2, 3, 5

D) 2, 5, 6

20. Yaponiya Sovet davlati bilan betaraflik shartnomasini tuzgan yili . . .

A) SSSR Millatlar Ligasidan chiqarildi

B) Germaniya armiyasi Italiyaning Bolqon yarimorolidagi armiyasiga yordamga keldi

C) Germaniya armiyasi G'arbiy frontda hujumga o'tdi

D) Sovet davlati va Turkiya o'rtasida "Do'stlik va birodarlik to'g'risida" shartnoma imzolandi

21. Buxoro va Qo'qon xonliklarining qaysi hukmdorlari harbiy islohot o'tkazganlar?

A) Xudoyorxon va Doniyolbiy otaliq

B) Muhammad Ali va Amir Haydar

C) Olimxon va Nasrullo

D) Sheralixon va Muhammad Rahimxon

22. Quyidagi qaysi davlatlar Bolqon ittifoqiga birlashgan?

1) Bosniya; 2) Bolgariya; 3) Serbiya; 4) Sloveniya;

5) Albaniya; 6) Chernogoriya; 7) Ruminiya; 8) Gretsiya

A) 2, 5, 6, 7

B) 2, 3, 6, 8

C) 1, 4, 5, 7

D) 1, 2, 4, 8

23. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risidagi qonun qabul qilingan sanani aniqlang.

A) 1994-yil 22-sentabr

B) 2002-yil 4-aprel

C) 1999-yil 27-dekabr

D) 1993-yil 28-dekabr



**24.** Rus qo‘shinlari Kattaqo‘rg‘onga hujum uyushtirishdan oldin Buxoro amirligining qaysi shahrida mahalliy aholining qarshiligiga duch kelgan?  
A) Zirabuloq      B) Urgut      C) Samarqand  
D) Jizzax

**25.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya tarixiga oid ma‘lumotlardan to‘g‘rilarini toping.

1. Rossiya imperiyasi tarkibida 100 ga yaqin millat va elat vakillari yashardi.

2. Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos xususiyat, bu - Rossiyaga chetdan kapital kiritishdan ko‘ra, chetga kapital chiqarishning ustunligi edi.

3. Rossiya sanoatiga qo‘yilgan chet el kapitalining asosiy qismi Buyuk Britaniya hissasiga to‘g‘ri kelardi.

4. Rossiyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish ham o‘sgan bo‘lib, asosiy eksport mahsuloti g‘alla edi.

5. Rossiya neft qazib chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘ringa chiqib oldi.

A) 2, 3      B) 4, 5      C) 3, 4      D) 1, 2

**26.** Quyida berilgan voqealardan bir yilda sodir bo‘lganlarini aniqlang.

1. Xitoy va Buyuk Britaniya o‘rtasida Xitoyni yanada asoratga soluvchi konvensiya tuzildi.

2. San-Stefano shartnomasi imzolandi.

3. Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi.

4. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi.

5. Xristo Botev turklar bilan jangda halok bo‘ldi.

6. Buyuk Britaniyada haftasiga 54 soat ish vaqti belgilandi.

A) 1, 4, 5      B) 2, 5, 6      C) 1, 2, 3      D) 3, 4, 6

**27.** Janubiy va Shimoliy Bolgariyaning yangidan yagona davlatga birlashganligini e‘lon qilgan shaxsni aniqlang.

A) F.Koburg      B) A.Battenberg      C) X. Botev  
D) V. Levskiy

**28.** Abulxayrxon o‘z davlati poytaxtini Turadan qaysi shaharga ko‘chirgan?

A) Marvga      B) Sig‘noqqa      C) Oqqo‘rg‘onga  
D) Suzoqqa

**29.** Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm kirdikorlari fosh etilib, g‘alaba qozonishga bo‘lgan ishonch aks ettirilgan asarlarni mualliflari bilan to‘g‘ri juftlab ko‘rsating.

1) “Maktub”; 2) “Jangchi Tursun”; 3) “Ona kuzatmoqda”; 4) “Nayzamiz”;

a) Sulton Jo‘ra; b) Uyg‘un; c) Maqsud Shayxzoda;  
d) Hamid Olimjon

A) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c      B) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a

C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a      D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

**30.** O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov 2011-yil yanvar oyida Bryusselga tashrifi chog‘ida uchrashgan Yevropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidentini va NATO Bosh kotibini aniqlang.

A) R.Romer va T.Sandvest

B) R.fon Vayzenker va G.Kol

C) J.M.Barrozo va A.F.Rasmussen

D) J.Kollinz va R.Kembri

**31.** Quyidagi ma‘lumotlarni yozib qoldirgan olimni aniqlang.

“Xiva shahri keng maydonda bog‘-rog‘ bilan o‘ralgan. Atrofi devor bilan o‘ralgan hamda Amudaryodan suv chiqarilgan. Xiva aholisi o‘zining mashaqqatli mehnati bilan cho‘l-u biyobonni hosildor o‘lkaga aylantirgan”.

A) X.Vamberi

B) N.Vasilevskiy

C) N.Muravyov

D) N.Ignatyev

**32.** Xorazmda kim hukmron bo‘lib turgan vaqtda Yevropada feodallarning II salib yurishlari yuz bergan?

A) Otsiz      B) Elarslon      C) Qutbiddin Muhammad

D) Takash

**33.** O‘rta asrlar Yevropa universitetlarining ular tashkil topgan davlatlar bilan to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

1) Italiya; 2) Ispaniya; 3) Fransiya; 4) Angliya;

a) Oksford; b) Tuluza; c) Bolonya; d) Seviliya

A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b

C) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d

**34.** 1566-yil Gollandiyada qo‘zg‘olon boshlanganda qo‘zg‘olonchilar Ispaniya zulmining tayanchi bo‘lgan nimalarni vayron qildilar?

A) savdo kompaniyalarini

B) bandargohlarni

C) cherkov va monastirlarni

D) manufakturalarni

**35.** Italiya bosh vaziri Orlando davrida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

1) Italiya qo‘shinlari Vladivostokka jo‘natildi;

2) Italiya Simernani bosib olish uchun hujum boshladi va bu hujum mag‘lubiyat bilan tugadi;

3) Egey dengizi sohilidagi Triyest porti Italiyaga o‘tdi;

4) Italiya armiyasi safidan bo‘shatilganlar ishsiz qoldi;

5) Italiya Albaniyani tashlab chiqishga majbur bo‘ldi;

6) Yugoslaviyaga qarashli Dodekanes oroli Italiya mulkiga aylandi;

7) Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirildi

A) 1, 2, 4, 5      B) 4, 5, 6, 7      C) 1, 3, 5, 7

D) 2, 3, 4, 5

**36.** XX asrning 30-yillarida qaysi davlatda siyosiy partiya davlat

xizmatini bajaruvchi fuqaro militsiyasiga aylandi?

A) Italiyada

B) Ispaniyada

C) Fransiya

D) Germaniyada

**Variant-008**

1. O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.  
1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byorns;  
a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil  
A) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d      B) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d  
C) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d      D) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b
2. Zamondoshlari "Buxoro shoirlari taxtida sulton" deb ulug'lagan shaxsni aniqlang.  
A) Sayido Nasafiy                      B) Mirzo Abdulqodir  
C) Mushfiqiy                              D) Turdi Farog'iy
3. Qanotning ko'tarish kuchini aniqlash formulasini kashf etgan olimni aniqlang.  
A) P.Kyuri      B) N.Jukovskiy      C) N.Lobachevskiy  
D) Siolkovskiy
4. Braziliyada S.Bernardis prezidentligi davrida qaysi shaharlarda harbiylar qo'zg'oloni boshlandi?  
A) San Diyego va San-Xose  
B) San-Paulo va Santo Anjelu  
C) Santo Anjelu va San-Marino  
D) San-Salvador va Brazilia
5. Quyidagi mualliflardan qaysi biri o'z asarida o'zbeklarni "aql idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odatli oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar" deb ta'riflagan?  
A) G.Danilevskiy      B) N.Ignatyev      C) N.Muravyov  
D) N.Vasilevskiy
6. Qo'qon xonligida oltin ma'dani qazib olingan joy nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?  
A) Ko'krev daryosi                      B) Bobotog'ning shimoli  
C) Qorasuvning janubi  
D) Zarafshon daryosi quyi oqimi
7. O'rta Osiyo hududida ilk o'rta asrlarda tashkil topgan hokimliklar va ularga oid ma'lumotlar to'g'ri muvofiqlashtirilgan javobni toping.  
1) . . . mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi edi;  
2) . . . da ayniqsa qurolsozlik rivojlangan; 3) . . . qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqargan; 4) . . . tangalarining old betida hukmdor surati, ayrim tangalarda esa, hukmdorga yonma-yon malika tasviri tushirilgan.  
a) Choch; b) Sug'd; c) Farg'ona; d) Toxariston  
A) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c                      B) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a  
C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b                      D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b
8. Amir Temur huzuriga yuborilgan ispan elchisi Klavixoning Samarqandga safari taassurotlari hikoya qilingan asarlarini aniqlang.  
1) "Buyuk Temur tarixi"; 2) " Temur qarorgohi";  
3) "G'alabalar kitobi"; 4) "Tarix majmuasi";

- 5) "Samarqandga sayohat kundaligi".  
A) 1, 3, 5      B) 2, 3, 4      C) 1, 3, 4      D) 1, 2, 5
9. Quyidagilardan bir yilda sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.  
1. Bur Respublikasi Buyuk Britaniya tarkibiga qo'shib olindi.  
2. Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi.  
3. Transvaal, Oranj, Natal, Kapni "Janubiy Afrika ittifoqi" nomi bilan birlashtirildi.  
4. Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi.  
5. Meksikada prezidentlik saylovi o'tkazildi.  
6. Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimoroli Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya o'rtasida taqsimlab olindi.  
A) 2, 4, 6      B) 1, 5, 6      C) 2, 3, 5      D) 1, 3, 4
10. Amir Doniyolbiy davrida qaysi viloyatlarning mustaqillikka intilishlari kuchaygan?  
A) Qarshi, Balx, Hisor, O'ratepa  
B) Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa  
C) Shahrisabz, Qarshi, Hisor, Urgut  
D) Balx, Hisor, Boysun, Qarshi
11. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi . . . zimmasiga yuklatilgan edi.  
A) "Turkkomissiya"  
B) "O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi"  
C) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi  
D) RKP(b) Markaziy Q'omitasining O'rta Osiyo byurosi
12. II jahon urushi arafasida Buyuk Britaniya qaysi davlatlarga Germaniya hujum qilsa, unga harbiy yordam ko'rsatish haqida kafolat bergan?  
1) Polsha; 2) Ruminiya; 3) Bolgariya; 4) Fransiya;  
5) Gollandiya; 6) Gretsiya; 7) Yugoslaviya  
A) 1, 2, 6      B) 3, 4, 5      C) 1, 3, 5      D) 5, 6, 7
13. 1955-yilda Yevropa tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.  
A) Vengriyada qo'zg'olon ko'tarildi  
B) NATO harbiy tashkilotiga asos solindi  
C) Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati faoliyat boshladi  
D) Varshava shartnomasi tuzildi
14. Misrni mustamlakalikdan chiqarilishida va respublika deb e'lon qilinishida hal qiluvchi rol o'ynagan davlat arbobini aniqlang.  
A) qiroli Farrux      B) J.A.Nosir      C) X.Muborak  
D) A.Sadat
15. Kiyev Rusi knyazi Vladimir Monomax nima maqsadda 1097-yilda Lyubech shahrida Rus knyazlarining 1-syezdini chaqirdi?  
A) knyazlar hokimiyati mavqeini kuchaytirish

- B) o‘zaro qonli urushlarga chek qo‘yish  
 C) keng ko‘lamli bosqinchilik urushlari olib borish  
 D) qipchoqlar hujumlariga qarshi ittifoq tuzish
- 16.** Dengizchi admiral Xristofor Kolumb vafot etganidan qancha vaqt o‘tib, lotaringiyalik xaritashunos olim M.Valdzemyuller Kolumb kashf etgan yangi qit‘ani “Amerika” deb atashni taklif etdi?  
 A) 2 yil B) 1 yil C) 5 yil D) 10 yil
- 17.** Qadimgi yunonlar Mesopotamiya deb atagan hududda qaysi davrga kelib Ur, Uruk, Lagash, Umma kabi shahar-davlatlar vujudga kela boshladi?  
 A) mil.avv. III mingyillik oxirlarida  
 B) mil.avv. I mingyillik boshlarida  
 C) mil.avv. IV mingyillik oxirlarida  
 D) mil.avv. IV mingyillik boshlarida
- 18.** Quyidagi qaysi voqeaning sodir bo‘lish vaqti Movarounnahrda Nasr II hukmronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi?  
 A) Chexiyada knyaz Vatslav hukmronlik qilishi  
 B) Vladimir Monomax ilk bor qipchoq xonlari qo‘shinini yengishi  
 C) Kiyev Rusida xristian dinining qabul qilinishi  
 D) Xitoyda Sun sulolasi hukmronligining boshlanishi
- 19.** O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tuzilgan sanani toping.  
 A) 1991-yil sentabr B) 1992-yil noyabr  
 C) 1992-yil yanvar D) 1993-yil yanvar
- 20.** XIX asrning I yarmida Toshkentda muhtasham me‘moriy inshootlar qurilib, eskilarini ta‘mirlash ishlari olib borildi. Mazkur ishlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?  
 1) Kamol qozi, Tunqator, Hakim To‘ra jome‘ masjidlari qurildi. 2) Shayx Xovandi Tohur me‘moriy majmuasi hozirgi ko‘rinishda shakllantirildi. 3) Zayniddin Bobo uchun yangi maqbara qad ko‘tarildi. 4) Ko‘kaldosh madrasasi bunyod etildi. 5) Baroqxon madrasasi qayta ta‘mirlandi. 6) Qo‘qon O‘rdasi bunyod etildi.  
 A) 1, 2, 4, 5 B) 3, 4, 5, 6 C) 2, 3, 5, 6  
 D) 1, 3, 4, 6
- 21.** Italiya bosh vaziri Orlando davrida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.  
 1) Italiya qo‘shinlari Vladivostokka jo‘natildi;  
 2) Italiya Simernani bosib olish uchun hujum boshladi va bu hujum mag‘lubiyat bilan tugadi;  
 3) Egey dengizi sohilidagi Triyest porti Italiyaga o‘tdi;  
 4) Italiya armiyasi safidan bo‘shatilganlar ishsiz qoldi;  
 5) Italiya Albaniyani tashlab chiqishga majbur bo‘ldi;  
 6) Yugoslaviyaga qarashli Dodekanes oroli Italiya mulkiga aylandi;  
 7) Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirildi  
 A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 3, 5, 7 C) 4, 5, 6, 7  
 D) 2, 3, 4, 5

- 22.** Quyidagi mustamlakachi davlatlarning Xitoy hududidagi ta‘sir doiralari mos ravishda ko‘rsatilgan javobni toping.  
 1) Germaniya; 2) Fransiya; 3) Rossiya; 4) Buyuk Britaniya. 5) Yaponiya; a) Futsiyan viloyati; b) Yanszi daryosi havzasi; c) Shandun viloyati; d) Port-Artur; e) Yunan viloyati  
 A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c B) 1-c, 2-e, 3-d, 4-b, 5-a  
 C) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e D) 1-e, 2-c, 3-a, 4-d, 5-b
- 23.** Baltimor-Ogayo rejasi qabul qilingandan so‘ng AQSh kasaba uyushmalari o‘z zimmalariga olgan majburiyatlar to‘g‘ri berilgan javobni toping.  
 1) korxonaga egalari bilan kelishib, ish tashlashlarga yo‘l qo‘ymaslik; 2) korxonaga ishchilarining ish tashlashlari paytida tartib-osoysishtalikni nazorat qilish; 3) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish; 4) ish kunini uzaytirishga rozilik berish; 5) bir yilda 2 marta ish tashlashga yo‘l qo‘ymaslik; 6) ish tashlashlar paytida ishchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash  
 A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 2, 5, 6
- 24.** XIX asr o‘rtalarida qaysi jarayon ishlab chiqarishda inqilobga teng ixtiro sanalganligini aniqlang.  
 A) mashinasozlikda turli xil dastgohlarning yaratilishi  
 B) mikrozarra-elektron kashf etildi  
 C) rentgen nurlarini kashf etilishi  
 D) jahon tarixida birinchi marta iqtisodiyotdagi yetakchilik sanoatdan qishloq xo‘jaligiga o‘tishi
- 25.** Xiva xonligida kimlar bevatan deb atalgan?  
 A) qoraqalpoqlar  
 B) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar  
 C) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari  
 D) ko‘chmanchi qozoq chorvadorlari
- 26.** Buxoro amirligida amir Nasrulloqa qadar mavjud qo‘shin qanday nomlangan?  
 A) navkar B) navkariya C) qoracherik  
 D) sarboz
- 27.** Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirgan qaysi hududdagi shaharlar german imperatorlariga hech qachon to‘liq bo‘ysunmagan?  
 A) Germaniyaning sharqidagi shaharlar  
 B) Italiyaning markaziy hududidagi shaharlar  
 C) Italiyaning shimoliy hududlaridagi shaharlar  
 D) Germaniyaning shimoliy shaharlari
- 28.** Rus hukmdori Boris Godunov vafot etgan yilda quyidagi hukmdorlardan qaysilarining hukmronligi tugagan edi?  
 1) Akbarshoh; 2) Vali Muhammadxon;  
 3) Boqi Muhammad; 4) Abbos I  
 A) 2, 4 B) 1, 3 C) 3, 4 D) 1, 2
- 29.** B. Dizraeli Buyuk Britaniya bosh vaziri bo‘lgan davrda amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.



1. Haftasiga 54 soatlik ish vaqti belgilandi.  
 2. Xotin-qizlarning ish vaqti 8 soatga keltirildi.  
 3. 10 yoshdan kichik bolalarni ishga qabul qilish taqiqlandi.  
 4. Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi.  
 A) 1, 4      B) 1, 3      C) 2, 3      D) 2, 4
- 30.** Turkiston o'lkasining quyidagi viloyatlaridan Rossiyaga mardikorlikka olinganlarning soni mos ravishda korsatilgan javobni toping.  
 1) Sirdaryo; 2) Samarqand; 3) Farg'ona;  
 a) 38 ming; b) 50 ming; c) 87 ming  
 A) 1 - c; 2 - a; 3 - b      B) 1 - c; 2 - b; 3 - c  
 C) 1 - a; 2 - c; 3 - b      D) 1 - b; 2 - c; 3 - a
- 31.** Mustamlakachi davlatlar tomonidan "egallanmagan yerlar"ni bosib olish yakunlangan davrni aniqlang.  
 A) XX asr boshlari      B) XIX asr oxirlari  
 C) XIX asr o'rtalari      D) XIX asr boshlari
- 32.** Quyidagi badiiy asarlarni ular yaratilgan qadimgi davlatlar bilan moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) "Gilgamish haqida afsona"; 2) "Iliada";  
 3) "Ramayana"; 4) "Isida va Osiris haqida afsona";  
 a) Mesopotamiya; b) Yunoniston; c) Hindiston;  
 d) Misr  
 A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d      B) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b  
 C) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a      D) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d
- 33.** Sovet hokimiyati o'lka hayotiga biroz moslashib, tomir yozib olgach, o'zbek xalqi ma'naviy hayotining uzviy tarkibiy qismi bo'lib kelgan eski maktab va madrasa ta'lim-tarbiya tizimini barham toptirgan vaqtni aniqlang.  
 A) XX asr 20-yillari o'rtalaridan  
 B) XX asr 40-yillari boshida  
 C) XX asr 30-yillari boshidan  
 D) 1918-1919-yillarda
- 34.** Andijonda Dukchi eshon qo'zg'oloni ko'tarilgan vaqtda Turkiston general-gubernatori bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) N.Korolkov      B) A.Vrevskiy      C) A.Kuropatkin  
 D) S.Duxovskoy
- 35.** Yassaviya tariqatining asoslari qaysi asarda bayon etilgan?  
 A) "Hikmat"      B) "Hidoya"      C) "Hayotnoma"  
 D) "Dalil al-oshiqin"
- 36.** 1614-yilda xristian dinini ta'qiqlovchi qonun chiqargan syogunni toping.  
 A) Oda Nobunaga      B) Toyotomi Xidayosi  
 C) Yosimune      D) Tokugava Iayasu

**Variant-009**

- 1.** Qo'qon xonligi saroy tarixchisi Muhammad Yunus tomonidan yozilgan asar nomini belgilang.  
 A) "Tavorixi manzuma"      B) "Zubdat ut-tavorix"

- C) "Xudoyqul Anvar"      D) "Tarixi Shohruxiy"
- 2.** Buxoro va Qo'qon xonliklarining qaysi hukmdorlari harbiy islohot o'tkazganlar?  
 A) Sheralixon va Muhammad Rahimxon  
 B) Muhammad Ali va Amir Haydar  
 C) Xudoyorxon va Doniyolbiy otaliq  
 D) Olimxon va Nasrullo
- 3.** XX asr 30-yillarida Buyuk Britaniya tashqi siyosatda duch kelgan ikki asosiy muammoni aniqlang.  
 1) fashistlar Germaniyasining Yevropadagi agressiv tashqi siyosati; 2) Sovet davlatining iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlanishi; 3) funt-sterlingning oltinga almashtiriladigan valyuta bo'lmay qolganligi;  
 4) imperiya mustamlakalarida kuchaygan milliy-ozodlik harakati muammolari  
 A) 2, 3      B) 1, 2      C) 3, 4      D) 1, 4
- 4.** Germaniya Reyxstagi lyuterchi-knyazlar o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan yilda. . .  
 A) Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solindi  
 B) Abdullaxon II tavallud topdi  
 C) Shayboniy Abu Said taxtga o'tirdi  
 D) Abdullaxon II Badaxshonni egalladi
- 5.** XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda mustamlaka tartibi qay tarzda o'rnatildi?  
 1) harbiy kuch, politsiya tizimi joriy etildi; 2) mahalliy bosma nashrlar tashkil qilindi; 3) temiryo'llar qurildi;  
 4) Davlat kengashi faoliyatida mahalliy aholi qatnashadigan bo'ldi; 5) paxta ekiladigan maydonlar kengaytirildi; 6) yangi usul maktablari ochildi  
 A) 3, 4, 5      B) 2, 4, 6      C) 1, 3, 5      D) 1, 2, 4
- 6.** Qadimgi yunonlarda Xronos qanday xudo hisoblangan?  
 A) adliya xudosi      B) yer ilohasi      C) zamon xudosi  
 D) uyqu xudosi
- 7.** Abdullaxon II vafotidan necha yil o'tib Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?  
 A) 3      B) 6      C) 1      D) 5
- 8.** Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin O'zbekistonda barpo etilgan kimyo sanoati korxonalarini ular qurilgan yillari bilan muvofiqlashtiring.  
 1) Farg'ona azot o'g'iti zavodi; 2) Navoiy kimyo kombinati; 3) Olmaliq kimyo zavodi;  
 a) 1965-yil; b) 1969-yil; c) 1962-yil  
 A) 1-c, 2-a, 3-b      B) 1-a, 2-b, 3-c  
 C) 1-c, 2-b, 3-a      D) 1-b, 2-a, 3-c
- 9.** Atigi 37 yil umr ko'rib, lekin o'z nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yaratgan uyg'onish davri vakilini aniqlang.  
 A) Rafael Santi      B) Mikelanjelo      C) Rembrandt  
 D) Leonardo da Vinchi

10. Buxoro amirligida harbiy qo‘shin bosh sarkardasi qanday atalgan?  
A) sohibi shurat B) amiri lashkar C) parvonachi  
D) sohibi askar
11. G‘aznaviy hukmdorlar davriga mos keluvchi ma‘lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.  
1) Mahmud G‘aznaviy; 2) Ma‘sud G‘aznaviy;  
3) Alptegin; 4) Sobuqtegin;  
a) mamlakat viloyatlari birin-ketin qo‘ldan chiqib, tanazzulga yuz tutdi; b) mamlakat hududi kengayib Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi;  
c) G‘aznaviy davlatiga asos solindi; d) mamlakatning siyosiy nufuzi ortib, somoniylar tomonidan e‘tirof etildi  
A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a  
C) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a D) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
12. XVIII asrning I yarmida Sibirda istehkomlar barpo etgan harbiy guruh rahbarini aniqlang.  
A) B.Cherkasskiy B) F.Berg  
C) I.Buxgols D) I.Kirillov
13. Xiva xonligida XIX asr boshlarida barpo etilgan kanal nomini belgilang.  
A) Tuyatortar B) To‘g‘uzariq C) Afshona  
D) Lavzan
14. 1961-yilda SSSR va AQSh munosabatlarini nihoyatda keskinlashtirib yuborgan voqeani aniqlang.  
A) Falastin davlatining tuzilmay qolganligi  
B) Vyetnamda AQSh qo‘shinlarining mag‘lubiyatga uchrashi  
C) Berlin devorining qurilishi  
D) AQShning SSSR hududiga josus samolyotini uchirishi
15. Eron va Rossiya o‘rtasida imzolangan qaysi shartnomadan keyin Eron Kavkazorti hududlariga bo‘lgan da‘vosidan voz kechdi?  
A) Kuchukqaynarji B) Turkmanchoy C) Tehron  
D) Gandamak
16. Oltin O‘rda ulus nomini olgan to‘rtta yirik viloyatga bo‘linib ketgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.  
A) Venetsiyalik sayyoh Marko Polo Uzoq Sharq va Xitoyga sayohat qildi.  
B) Boyazid Yildirim va Amir Temur o‘rtasida kuchli to‘qnashuv bo‘ldi.  
C) Angliya taxtiga Genrix VII Tyudor keldi.  
D) Movarounnahrda Sarbadorlar harakati vujudga keldi.
17. Yevropada dastlabki banklar qachon va qayerda paydo bo‘lgan?  
A) XIII-XIV asrlarda Belgiyada  
B) XIV-XV asrlarda Angliyada  
C) XV-XVI asrlarda Germaniyada  
D) XIV-XV asrlarda Italiyada
18. Qo‘qon xonligida yer egaligi munosabatlariga oid

- ma‘lumotlar orasidan to‘g‘rilarini toping.  
1) Qo‘qon xonligida yer egaligining 3 ta shakli mavjud bo‘lgan.  
2) Xonlikda mulklar, asosan, 20 sotixdan 40 sotixgacha bo‘lgan.  
3) Xonlikda xon yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni 10 ming nafargacha yetar edi va ular mardikorlar deb atalardi.  
4) Xonlikda xususiy yerlarda yersiz, ot-ulovsiz kambag‘allar hosilning 1/2 qismi uchun yollanib ishlardi va ular korandalar deb atalardi.  
5) Xonlikda hosilning 1/4-1/2 qismi evaziga yerlarni ijaraga olib, o‘z mehnat qurollari bilan yollanib ishlovchilar chorikorlar deb atalardi.  
6) Xonlikda xususiy yer egalari shu yerdan olinadigan mahsulotga va shu yerda qurilgan imoratlarga egalik qilish bilan birgalikda yerning o‘ziga ham egalik qilar edi.  
A) 3, 4 B) 2, 4 C) 5, 6 D) 1, 3
19. Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Italiyadan o‘zib ketib, Fransiyaga yaqinlashgan yillarda sodir bo‘lgan voqealarni ko‘rsating.  
1. Buyuk Britaniyada parlament islohoti o‘tkazildi.  
2. Rossiyada agrar islohot o‘tkazildi.  
3. Skobelev boshchiligida rus qo‘shinlari turkmanlarga qarshi harbiy harakatlar boshladi.  
4. “Hindiston milliy kongressi” tuzildi.  
5. Efiopiya va Sudan o‘rtasida urush harakatlari boshlandi.  
6. Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi.  
A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 2, 6 D) 3, 4, 5
20. O‘zbekistonning ta‘lim muassasalariga ko‘mak berayotgan JAICA - Xalqaro hamkorlik agentligi qaysi davlatga qarashli?  
A) Koreya B) Fransiya C) Yaponiya  
D) Germaniya
21. 1933-yilda AQShda sanoatni davlat tomonidan boshqarish tizimining joriy etilishiga olib kelgan qonunni aniqlang.  
A) “Sanoatni qayta tiklash haqida”  
B) “Sanoatda davlat boshqaruvi va sanatsiya haqida”  
C) “Halol raqobatchilik to‘g‘risida”  
D) “Sanoatni rivojlantirish o‘n yillik dasturi”
22. Afg‘onistonda amir Abdurahmon hukmronlik qilgan davrda quyidagi qaysi voqea sodir bo‘lganligi toping.  
A) Xazorasp, Xonqadagi qo‘zg‘olonlar keskin tus oldi.  
B) Toshkentda “Shahar nizomi” joriy etildi.  
C) Bur respublikasi Buyuk Britaniya mulki tarkibiga qo‘shib olindi.  
D) Transvaalda oltin va mis konlari ochildi.

**23.** Yunon-Baqriya davlatida zarb qilingan tangalarga kim(nima)ning tasviri tushirilgan?

A) davlat tamg'asi B) bars C) suvoriy D) hukmdor

**24.** Buyuk Britaniyada irland muxolifat guruhi hamjamiyati hukumatdan qanday agrar islohot o'tkazishni talab qilgan edi?

A) 15 yil muhlatga renta miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachiga o'z yer uchastkasini boshqa bir shaxsga o'tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko'zda tutilgan islohot

B) XIX asr davomida dehqonlarning qo'ldan ketgan yerlari yana o'z egasiga qaytarilishi, aholining tabaqasidan qat'i nazar bir xil miqdorda yerni taqsimlash haqidagi agrar islohot

C) ijaraning qat'iy bo'lishi, ijara haqining insof bilan olinishi va ijaraga olingan yerning qo'ldan qo'lga erkin o'tishini ko'zda tutuvchi agrar islohot

D) Irlandiyaga soliq yig'ish, mahalliy politsiya tuzishga ruxsat etilib, faqat Angliya qo'lida tashqi siyosat va mudofaa ishlari qolishi haqidagi islohot

**25.** Dastlab Xorazmni xorazmshoh unvoni bilan idora qilgan shaxsni aniqlang.

A) Farasman B) Afrig' C) Kayxusrav  
D) Saksafar

**26.** 1941-45-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida qurilgan zavodlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Xilkovo zement zavodi; 2) Quvasoy kimyo zavodi; 3) Quvasoy zement zavodi; 4) Qo'qon superfosfat zavodi; 5) Bekobod metallurgiya zavodi; 6) Farg'ona gidroliz zavodi

A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 2, 4, 5, 6  
D) 1, 2, 3, 4

**27.** XX asrning 60-70-yillarida portret janrida ijod qilgan o'zbek rassomlarini aniqlang.

A) O'.Tansiqboyev, V.Kaydalov  
B) M.Nabiyev, Ch Ahmarov  
C) Ch Ahmarov, O'.Tansiqboyev  
D) V.Kaydalov, M.Nabiyev

**28.** Xitoyda "Minbao" gazetasi chiqqan boshlagan va "Yangi Xitoy konstitutsiyasi" qabul qilingan yillarni aniqlang.

A) 1904, 1914-yy. B) 1905, 1915-yy.  
C) 1905, 1914-yy D) 1920, 1912-yy.

**29.** AQSh Buyuk Britaniya harbiy dengiz flotining yetakchi mavqeini yo'qqa chiqarishga erishgan yilni aniqlang.

A) 1930-yil B) 1940-yil C) 1934-yil  
D) 1935-yil

**30.** 1882-yilda Bremen savdogarlari Afrikaning . . . yetib keldilar va 200 ta eski miltiq, 2000 marka evaziga yerli qabila boshlig'idan anchagina hududni sotib oldilar.

A) janubi-g'arbiy sohilidagi macho-sidamolar yeriga  
B) janubi-g'arbiy sohilidagi Angra-Peken buxtasiga  
C) shimoli-sharqiy sohilidagi Bingo viloyatiga  
D) janubi-sharqiy sohilidagi tuareglar manziliga

**31.** Arab xalifaligi tomonidan istilo qilingan joylar yillari bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Maymurg'; 2) Chag'oniyon; 3) Poykand; 4) Marv;  
a) 667-yil; b) 654-yil; c) 651-yil; d) 707-yil

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d  
C) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

**32.** Chexoslovakiyadagi "Praga bahori" nomi bilan tarixga kirgan voqea yuz berganda hokimiyat tepasida kim turgan edi?

A) E.Benesh B) K.Gotvald C) A.Novotniy  
D) A.Dubchek

**33.** Quyida keltirilgan davlatlarni ularni boshqargan sulolalar bilan moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Yaponiya (1603-1867-yy.); 2) Hindiston (1526-1858-yy.); 3) Xitoy (1644-1911-yy.); 4) Eron (1796-1925-yy.);

a) Qojarlar; b) Sin; c) Boburiylar; d) Tokugava  
A) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b B) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a  
C) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c D) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d

**34.** XX asr 30-yillari oxirlariga kelib Lotin Amerikasi davlatlari xo'jaligining qaysi tarmoqlari AQSh sarmoyasiga qaram bo'lib qolganligini toping.

1) elektrostansiyalar; 2) neft; 3) mashinasozlik; 4) temir yollar; 5) pochta-telegraf; 6) go'sht; 7) port va tog' sanoati; 8) kemasozlik va avtomobilsozlik  
A) 2, 3, 6, 8 B) 4, 5, 6, 8 C) 1, 2, 5, 8  
D) 1, 4, 5, 7

**35.** O'zlarini Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning avlodlari deb hisoblovchilar jamoasi yetakchisining unvonini aniqlang.

A) muhtasib B) sadr C) shayxulislom  
D) naqib

**36.** Xitoyda mo'g'ullarga qarshi xalq ozodlik harakatlari kuchaygan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.

A) Mali davlati butunlay inqirozga yuz tutdi.  
B) Inklar Kusko shahriga asos soldilar.  
C) Germaniyaning shimolidagi shaharlar Ganza Ittifoqiga birlashdi.  
D) Qo'ng'iroq so'fiylari Xorazmda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.

#### Variant-010

**1.** Bolasog'un shahri poytaxt bo'lib xizmat qilgan davlatlarni aniqlang.

1) Qoraxitoylar davlati; 2) O'g'uzlar davlati;  
3) Qoraxoniylar davlati; 4) Turk xoqonligi  
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 3



2. Inqilobiy qo‘mita butun O‘zbekiston xalqiga murojaat etib, O‘zbekiston SSR tuzilganligini ma’lum qilgan yilda quyidagi qaysi voqea yuz berganligini toping.

- A) Fransiyada bo‘lib o‘tgan saylovlarda "Milliy blok" mag‘lubiyatga uchradi.  
 B) AQSh hukumati Da‘vatkorlik to‘g‘risida hujjatni qabul qildi.  
 C) Buyuk Britaniya Xitoyga qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi.  
 D) Buxorodagi Xalq uyida Umum O‘zbek sovetlarining birinchi qurultoyi ochildi.

3. XIX asr o‘rtalarida Xivada rivoj topgan hunarmandchilik turlari sonini aniqlang.

- A) 65 ta            B) 32 ta            C) 80 ga yaqin  
 D) 50 dan ortiq

4. XX asr boshlarida Italiya hukumatini boshqargan J.Jolitti davrida qanday qonunlar qabul qilinganligini toping.

- 1) Ish haqi minimumi to‘g‘risida; 2) Kasaba uyushmalari tuzishga ruxsat etuvchi; 3) Ish tashlash o‘tkazilishiga ruxsat beruvchi; 4) Tungi smenada bolalar va ayollar mehnatidan foydalanmaslik haqida; 5) Saylovchilarning mulk va savodxonlik senzini bekor qilish haqida; 6) Ko‘ppartiyaviylik tizimi asosida saylovni tashkil etish haqida; 7) Pomeshchik yer egaligini tugatish haqida.

- A) 1, 3, 5, 7            B) 1, 2, 4, 6            C) 4, 5, 6, 7  
 D) 2, 3, 4, 5

5. O‘z o‘g‘liga qarshi kurashish maqsadida Shoh Jahondan yordam so‘ragan shaxsni aniqlang.

- A) Subhonqulixon            B) Abdulazixon  
 C) Nodir Muhammad            D) Ubaydullaxon

6. Quyida berilganlardan XIX asrda Afrikadagi eng muhim qul savdosi bazalarini aniqlang.

- 1) Mis; 2) Tunis; 3) Marokash; 4) Sudan; 5) Angola; 6) Mozambik; 7) Madagaskar

- A) 1, 2            B) 3, 4            C) 5, 6            D) 4, 7

7. Braziliyada S.Bernardis prezidentligi davrida qaysi shaharlarda harbiylar qo‘zg‘oloni boshlandi?

- A) San-Paulo va Santo Anjelu  
 B) San-Salvador va Brazilia  
 C) Santo Anjelu va San-Marino  
 D) San Diyego va San-Xose

8. Oltin O‘rda ulus nomini olgan to‘rtta yirik viloyatga bo‘linib ketgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Venetsiyalik sayyoh Marko Polo Uzoq Sharq va Xitoyga sayohat qildi.  
 B) Movarounnahrda Sarbadorlar harakati vujudga keldi.  
 C) Boyazid Yildirim va Amir Temur o‘rtasida kuchli to‘qnashuv bo‘ldi.  
 D) Angliya taxtiga Genrix VII Tyudor keldi.

9. XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o‘ralgan bo‘lib, oltita darvozasi mavjud edi. Ushbu darvozalar nomlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Urgut; 2) Buxoro; 3) Paykobod; 4) Qarshi; 5) Shohizinda; 6) Qalandarxona; 7) So‘zangaron; 8) Xo‘ja Ahror; 9) Registon

- A) 2, 3, 5, 6, 7, 8    B) 2, 4, 5, 6, 7, 9    C) 1, 3, 5, 6, 8, 9  
 D) 1, 3, 4, 5, 6, 8

10. Yunusxo‘ja bilan yaqin aloqada bo‘lgan qozoq sultoni Bukey qaysi bo‘lisoning sultoni edi?

- A) Qorakesak    B) Samat    C) Tabin    D) Qorako‘l

11. 1936-yilgi Fransiya parlamentiga o‘tkazilgan saylovlarida g‘olib chiqqan "Xalq fronti" ichida kelishmovchilikning yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lganligini toping.

- A) hukumatning 8 soatlik ish kuni haqidagi qarori  
 B) Ispaniyaning ichki ishlariga aralashuvi  
 C) xalqaro va ichki siyosatda yagona fikrga kela olmaganlik  
 D) Sovet davlatining tan olinishi

12. Imomqulixon Toshkent va o‘z xonligining qaysi chegaralari uchun qozoqlar, jung‘orlar va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi?

- A) shimoli-g‘arbiy            B) shimoli-sharqiy  
 C) janubi-sharqiy            D) janubi-g‘arbiy

13. Ikkinchi jahon urushi voqealarini eslang va Moskva ostonalarida hayot-mamot janglari bo‘lib o‘tgan davrni to‘g‘ri toping.

- A) 1942-yilning qish oylarida  
 B) 1941-yilning yoz-kuz oylarida  
 C) 1941-yilning kuz-qish oylarida  
 D) 1942-yilning qish-bahor oylari

14. Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo‘lish vaqti Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to‘g‘ri keladi?

- 1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;  
 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste’foga chiqishi;  
 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e’lon qilinishi;  
 4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o‘ringa ko‘tarilishi;  
 5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi

- A) 2, 3, 5    B) 1, 2, 5    C) 1, 3, 5    D) 1, 3, 4

15. Xan sulolasi davrida Xitoyda mavjud yerlar kimning mulki hisoblangan?

- A) qishloq jamoalarining            B) hukmdorning  
 C) harbiy lashkarboshilarning            D) amaldorlarning

16. AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan birinchi o'rinni egallagan davrda yuz bergan voqeani toping.

- A) Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralari masalasida kelishuvga erishildi.  
 B) Meksikada dehqonlar g'alayoni boshlandi.  
 C) Buyuk Britaniyaning jami mustamlaka hududlari 33 mln km<sup>2</sup>ni tashkil etdi.  
 D) AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.

17. "Shimoliy Germaniya Ittifoqini tuzish haqida shartnoma" imzolangan yilda tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) Rus qo'shinlari Avliyo-otani egalladi.  
 B) AQSh Kongressi tomonidan Konstitutsiyaga tuzatish kiritildi.  
 C) Parij Kommuniyasi tashkil topdi.  
 D) Turkiston general-gubernatorligi tashkil topdi.

18. Quyidagi atamalarning qaysi tildan olinganligini aniqlang.

- 1) immigrant; 2) industriya; 3) migratsiya;  
 a) lotin; b) yunon; c) ingliz; d) fransuz; e) nemis;  
 f) ispan  
 A) 1 - a; 2 - c; 3 - e                      B) 1 - d; 2 - a; 3 - f  
 C) 1 - a; 2 - a; 3 - a                      D) 1 - b; 2 - c; 3 - b

19. Buyuk Britaniya hukumati o'zining Markaziy Osiyo xonliklaridagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li sifatida nimaga ahamiyat qaratgan?

- A) Erondan platsdarm sifatida foydalanishga  
 B) Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga  
 C) Markaziy O'siyo xonliklarini harbiy yo'l bilan o'z tasarrufiga o'tkazishga  
 D) Markaziy Osiyo xonliklari hududida istehkomlar qurishga

20. Ismoil G'aspirali tomonidan Boqchasaroyda va Buxoro amirligida birinchi jadid maktablari ochilgan yillarni toping.

- A) 1884, 1893-yillar                      B) 1888, 1894-yillar  
 C) 1888, 1893-yillar                      D) 1884, 1894-yillar

21. Rim qachon Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan talon-taroj qilingan?

- A) 455-yilda                      B) 476-yilda                      C) 422-yilda  
 D) 410-yilda

22. Ikkinchi jahon urushi davrida Yevropadagi ittifoqchi qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan, urush tugagandan keyin AQShda prezident etib saylangan shaxsni aniqlang.

- A) U.Garding                      B) D.Eyzenxauer                      C) G.Trumen  
 D) F.Ruzvelt

23. Yevropaning kuchli mustamlakachi davlatlari tomonidan afrikaliklarni qullikka sotish qachongacha davom etgan?

- A) XX asr boshlarigacha                      B) XIX asr o'rtalarigacha  
 C) XIX asr boshlarigacha                      D) XVIII asr o'rtalarigacha

24. O'zbekistonning qaysi viloyatida Xitoyning "Nunkel" firmasi bilan hamkorlikda yo'g'och tolali plita ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi?

- A) Namangan                      B) Qashqadaryo                      C) Samarqand  
 D) Jizzax

25. Nima sababdan AQSh Shimoliy Koreyaga qarshi urush harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi?

- A) SSSRning Koreya urushiga aralashishi mumkinligi aniq-ravshan bo'lib qolishi  
 B) BMTda AQShning agressor davlat sifatida qoralanishi  
 C) Xitoy Xalq Respublikasining Janubiy Koreyaga harbiy yordam ko'rsatishi  
 D) Sovet qo'shinlarining Shimoliy Koreyaga kiritilishi

26. Italiya tarixiga oid birinchi jahon urushi natijalari bilan bog'liq ma'lumotlarni toping.

1. Janubiy Tirol va Triest porti Italiyaga o'tdi.  
 2. Eypen va Morelle okruglari Italiyaga o'tdi.  
 3. Germaniya to'laydigan reparatsiyaning 0,8%iga ega bo'ldi.  
 4. Yugoslaviyaning ba'zi hududlari Italiyaga berildi.  
 5. Dodekanes oroli Italiya o'tdi.  
 6. Millatlar Ligasining doimiy a'zosiga aylandi.  
 7. Yaponiya harbiy-dengiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.  
 8. Fransiya harbiy-degiz floti qudratiga teng flotga ega bo'lish huquqi berildi.  
 A) 2, 3, 5, 6, 7                      B) 1, 2, 3, 5, 8                      C) 1, 4, 5, 6, 8  
 D) 1, 3, 4, 6, 7

27. Vizantiyada Yustinian I ning hukmronlik yillarini aniqlang.

- A) 715-741-yillar                      B) 481-511-yillar  
 C) 463-555-yillar                      D) 527-565-yillar

28. Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?

- A) Genrix VI                      B) Buyuk Alfred                      C) Richard II  
 D) Amrosiy Avrelian

29. Xitoy tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri boshqalariga nisbatan keyinroq yuz berganini toping.

- A) Xitoyning Shandun viloyati Germaniya ta'sir doirasiga o'tdi.  
 B) Shimoliy Xitoyda birinchi temiryo'l ishga tushirildi.  
 C) Xitoy Buyuk Britaniya bilan imzolagan konvensiyaga muvofiq Buyuk Britaniya Xitoyning 10 dan ortiq bandargohlariga erkin kirish, qator viloyatlarda erkin savdo qilish huquqini oldi.  
 D) Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi.

30. Ulug'bek rasadxonasining ulkan sekstanti o'rnatilishida qaysi olim boshchilik qilgan?  
 A) Qozizoda Rumiy B) Alouddin Ali Qushchi  
 C) G'iyosiddin Jamshid Koshoniy  
 D) Shamsiddin Muhammad Havofiy
31. Quyida keltirilgan ta'rif qaysi davlat haqidaligini toping.  
 ". . . XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo'q qoloq davlat bo'lib qolaverdi; soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi".  
 A) Afg'oniston B) Xitoy C) Argentina  
 D) Braziliya
32. Quyida berilgan voqealardan bir yilda bo'lib o'tganlarini toping.  
 1) BXSР Konstitutsiyasi qabul qilindi.  
 2) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi.  
 3) O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi.  
 4) IV Butun Xorazm qurultoyida respublikaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.  
 5) Moskvaga ma'qul kelmagani uchun P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo'lgan XXSR hukumati tarkibi bekor qilindi  
 A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 5
33. Andijonda Dukchi eshon qo'zg'oloni ko'tarilgan vaqtda Turkiston general-gubernatori bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) A.Vrevskiy B) A.Kuropatkin  
 C) S.Duxovskoy D) N.Korolkov
34. Quyidagi qaysi oliy o'quv yurtlari XX asrning 70-yillarida tashkil etilgan?  
 A) Nukus davlat universiteti va Toshkent avtomobil yo'llar instituti  
 B) Toshkent elektrotexnika aloqa va Toshkent fizikultura institutlari  
 C) Toshkent pediatriya va Andijon tillar pedagogika instituti  
 D) Andijon paxtachilik va Sirdaryo pedagogika institutlari
35. IV asrning o'rtalarida xion qabilalarining O'rta Osiyoga hujumi qaysi hududlardan boshlanganligini aniqlang.  
 A) Yettisuv va Sirdaryo bo'ylaridan  
 B) Yettisuv va Sharqiy Turkistondan  
 C) Oltoy va Yettisuvdan  
 D) Xorazm va Sirdaryo bo'ylaridan
36. Birinchi afg'on-ingliz urushi nechanchi yilda tugagan?  
 A) 1841-yil B) 1843-yil C) 1842-yil D) 1839-yil

**Variant-011**

1. Katta va qisman kichik juz o'rdalari qaysi Qo'qon xoni davrida bo'ysundirildi?

- A) Norbo'tabiy B) Olimxon C) Erdona  
 D) Umarxon
2. 1947-yilda O'zbekistonning qaysi shaharlarida ochilgan ikki yillik kurslar kolxoz raislari va brigadirlar tayyorlab berib turgan?  
 A) Samarqand va Buxoro  
 B) Samarqand va Farg'ona  
 C) Toshkent va Samarqand  
 D) Toshkent va Andijon
3. SSSRda "rivojlangan sotsializm" nazariyasi ilgari surilgan yilda. . .  
 A) Bangladesh Xalq Respublikasi tuzildi  
 B) Yugoslaviyada I.Broz Tito cheklanmagan muddatga prezident qilib saylandi  
 C) Liviya Respublika deb e'lon qilindi  
 D) Yaponiya Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi
4. Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi va birinchi gimnaziya ochilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 A) 1884-, 1894-yillar B) 1885-, 1911-yillar  
 C) 1884-, 1896-yillar D) 1889-, 1894-yillar
5. Quyidagi davlatlardan qaysi birining konstitutsiyasi 1924-yilning 20-aprelida qabul qilingan?  
 A) Fransiya Respublikasi B) Germaniya C) Eron  
 D) Turkiya Respublikasi
6. Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?  
 A) 1517-yilda B) 1514-yilda C) 1515-yilda  
 D) 1516-yilda
7. XIX asr oxirida AQShda faoliyat yuritgan monopoliyalar sonini aniqlang.  
 A) 185 ta B) 250 dan ortiq C) 123 ta  
 D) 75 ga yaqin
8. Dehli sultonligida kimning hukmronligi davrida Panjob, Sind va Bengaliya hududlari bo'ysundirildi?  
 A) Mahmud G'aznaviy B) Bobur  
 C) Shamsiddin Eltutmish D) Muhammad Tug'luq
9. Yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e'lon qilingan yilda. . .  
 A) Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi  
 B) Rossiya tomonidan Buxoro amirligi bosib olindi  
 C) Buyuk Britaniya o'z qirolichasi Viktoriyani Hindiston imperatori deb e'lon qildi  
 D) Tunisda Fransiya hukmronligi o'rnatildi
10. Oltin O'rda ulus nomini olgan to'rtta yirik viloyatga bo'linib ketgan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.  
 A) Venetsiyalik sayyoh Marko Polo Uzoq Sharq va Xitoyga sayohat qildi.  
 B) Angliya taxtiga Genrix VII Tyudor keldi.  
 C) Movarounnahrda Sarbadorlar harakati vujudga keldi.



D) Boyazid Yildirim va Amir Temur o'rtasida kuchli to'qnashuv bo'ldi.

**11.** Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiya yaqinlashgan yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsating.

1. Buyuk Britaniyada parlament islohoti o'tkazildi.
2. Rossiyada agrar islohot o'tkazildi.
3. Skobelev boshchiligida rus qo'shinlari turkmanlarga qarshi harbiy harakatlar boshladi.
4. "Hindiston milliy kongressi" tuzildi.
5. Efiopiya va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi.
6. Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi.

A) 1, 2, 6    B) 2, 4, 5    C) 2, 3, 6    D) 3, 4, 5

**12.** Lotin Amerikasidagi qaysi davlatda 2010-yildagi Prezident saylovlarida ilk marta ayol kishi g'olib bo'ldi?

- A) Argentina    B) Venesuela    C) Chili  
D) Braziliya

**13.** Quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan olimni aniqlang.

"Xiva shahri keng maydonda bog'-rog' bilan o'ralgan. Atrofi devor bilan o'ralgan hamda Amudaryodan suv chiqarilgan. Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan".

- A) X.Vamberi    B) N.Vasilevskiy    C) N.Ignatyev  
D) N.Muravyov

**14.** Quyidagi kanallar ochilish yillari bo'yicha to'g'ri joylashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Suvaysh; 2) Panama; 3) Katta Farg'ona.  
A) 2, 3, 1    B) 1, 2, 3    C) 3, 1, 2    D) 2, 1, 3

**15.** 1921-yil martida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jumladan, . . . zarur edi.

- 1) Turkiston asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi bo'lib, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish; 2) o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish; 3) ko'p millatli o'lkadagi yerli xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini, an'analarini hisobga olish; 4) o'lkani izdan chiqqan iqtisodiyotini yo'lga solishda Markazdan yordam olish; 5) o'lkada yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarini chetga sotish

A) 1, 3, 5    B) 1, 2, 3    C) 2, 3, 4    D) 3, 4, 5

**16.** AQSh hukumati trestlarga qarshi 20 dan ortiq sud jarayonini tashkil etishi natijasida kimning temiryo'l kompaniyasi ikkiga bo'lindi?

- A) Rokfellerning    B) Stennesning    C) Morganning  
D) Karnegining

**17.** Abdullaxon II vafotidan necha yil o'tib Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?

- A) 5    B) 6    C) 3    D) 1

**18.** XX asr boshlarida Avstriya-Vengriyaga qaysi davlatlar banklari qarz berish, sanoatga mablag'lar yo'naltirish orqali mamlakatni o'z kapitallari bilan to'ldirib tashladilar?

- A) Germaniya, Ispaniya, Italiya  
B) Fransiya, Belgiya, Germaniya  
C) Angliya, Fransiya, Portugaliya  
D) Germaniya, Angliya, AQSh

**19.** Angliyada Tyudorlar sulolasi davri tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri to'g'ri berilgan?

- A) Angliyada xalqning xohish-irodasi bilan reformatsiya amalga oshdi va bu qirol hikimiyatini yanada mustahkamladi.  
B) Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yer va boshqa mulklar bilan taqdirladi, ya'ni unumdor yerlarning 2/3 qismini ularga tortiq qildi va sotdi.  
C) Genrix VIII Tyudor o'zi taxtga o'tirgan vaqtga qadar hali ham mustaqilligini saqlab qolgan ayrim janubiy grafliklar, Shotlandiya, Uels yerlariga yurish qilib, butun mamlakatni birlashtirdi.  
D) Toifaviy vakillik organi bo'lmish parlament butunlay bo'lmasa-da, o'z ahamiyatini yo'qotdi, yangi soliq joriy etish masalasida parlament roziligining shartligi belgilab qo'yildi.

**20.** XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va elchilik munosabatlarining rivojlanishi sabablarini aniqlang.

- 1) Xiva xonligi hududining o'rtaosiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilar uchun Kaspiy dengizi orqali boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi;  
2) Raim istehkomining qurilishi; 3) turkmanlarning yovmut qabilasining Xiva xonligiga bo'ysundirilishi;  
4) savdoning rivojlanishi davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi; 5) «Majburiyatlar akti»ning qabul qilinishi

A) 1, 2    B) 1, 4    C) 4, 5    D) 2, 3

**21.** O'rta osiyolik mashhur olimlar va ular yozgan asarlari to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Abu Nasr Forobiy; 2) Ahmad al-Farg'oniy; 3) Muso al-Xorazmiy; 4) Abu Rayhon Beruniy;  
a) "Kitob at-tarix"; b) "Minerologiya"; c) "Fozil odamlar shahri"; d) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"

A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b    B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b  
C) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a    D) 1-d, 2-b, 3-d, 4-a

**22.** Quyidagi Uyg'onish davri vakillarining aytgan fikrlari to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) M.Servantes; 2) Leonardo da Vinchi; 3) V.Shekspir.  
a) «Inson - tabiatning ajoyib mo'jizasi!»; b) «Rassomlik san'ati - san'atlar malikasi»; c) «Erkinlik uchun xuddi

shon-sharaf uchun qilinganidek jonni xavfga qo'yish kerak».

- A) 1-a; 2-c; 3-b    B) 1-c; 2-b; 3-a    C) 1-b; 2-c; 3-a  
D) 1-a; 2-b; 3-c

**23.** Turkiston general-gubernatori bosh

qo'mondonlikdan tashqari yana qanday lavozimni egallagan?

- A) xazinabon    B) bosh vazir    C) politsiya boshlig'i  
D) bosh sudya

**24.** Turkistonda dastlabki rus qishlog'i va Buxoro amirligi hududida birinchi rus qishlog'i paydo bo'lgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) 1875, 1885-yillar    B) 1875, 1888-yillar  
C) 1875, 1889-yillar    D) 1873, 1885-yillar

**25.** O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byorns;  
a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil  
A) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d    B) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b  
C) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d    D) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d

**26.** Ilk o'rta asrlarda Shimoliy Hindiston hududida 75 yil davomida hukmronlik qilgan davlatni aniqlang.

- A) Xioniylar    B) Sosoniylar    C) Kidariylar  
D) Eftaliylar

**27.** "Xitoy uyushmalari ittifoqi" siyosiy tashkiloti qabul qilgan dasturida ko'zda tutgan masalalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Sin monarxiyasini ag'darish;  
2) yevropaliklarni mamlakatdan quvib chiqarish;  
3) respublika ta'sis etish;  
4) sanoat korxonalarini barpo etish;  
5) yerga egalik huquqini tenglashtirish;  
6) mustaqillikni tiklash

- A) 1, 2, 4, 6    B) 1, 3, 5, 6    C) 2, 4, 5, 6  
D) 2, 3, 4, 5

**28.** Mustaqil Afg'oniston davlati qachon tashkil topgan?

- A) 1748-y.    B) 1749-y.    C) 1746-y.    D) 1747-y.

**29.** Xiva xonligida XIX asr boshlarida barpo etilgan kanal nomini belgilang.

- A) Lavzan    B) Tuyatortar    C) To'g'uzariq  
D) Afshona

**30.** Germaniyada prezident P.Gindenburg tomonidan imzolangan va A.Gitlarga favqulodda vakolatlar bergan hujjatni aniqlang.

- A) "Reyxstag faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi qonun  
B) "Milliy mehnatni tartibga solish to'g'risida"gi qonun  
C) "Xalq va davlatni muhofaza qilish to'g'risida"gi dekret  
D) "Germaniya siyosiy partiyalari to'g'risida"gi qonun

**31.** Amir Temur . . . yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qilgan, . . . yilda esa Xorazm uzil-kesil bo'ysundirilgan.

- A) 1374 / 1389    B) 1372 / 1388    C) 1373 / 1391  
D) 1371 / 1386

**32.** Kiyev knyazi Vladimir nima sababdan o'z o'g'li Yaroslavga qarshi yurishga tayyorgarlik ko'rganligini aniqlang.

A) Vladimiri Kiyev taxtidan tushirish uchun fitna tayyorlaganligi uchun

B) Kiyevga boj to'lashdan bosh tortganligi uchun  
C) Kiyevning qipchoqlarga qarshi urushida harbiy yordam ko'rsatmaganligi uchun

D) bijanak qabilalari bilan ittifoq tuzganligi uchun

**33.** O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi" qachon qabul qilingan?

- A) 1998-y.    B) 1995-y.    C) 1997-y.    D) 1994-y.

**34.** Usmoniylar davlatida sipohiyilar xo'jaligining daromadini nima tashkil etganligini aniqlang.

A) urushlarda qo'lga kiritilgan o'ljalor va shartnoma asosida harbiy xizmatlar

B) sulton xazinasidan olinadigan katta miqdordagi maosh

C) savdogarlarning ularning xizmatlaridan foydalanganliklari uchun to'lovlari

D) ijarachi dehqon to'laydigan soliq

**35.** 1979-yilda AQSHning mustamlakachilik tayanchlari ag'darilgan davlatlarni belgilang.

- A) Xitoy va Meksika    B) Eron va Nikaragua  
C) Vyetnam va Tunis  
D) Afg'oniston va Sharqiy Pokiston

**36.** Inqilobiy qo'mita butun O'zbekiston xalqiga murojaat etib, O'zbekiston SSR tuzilganligini ma'lum qilgan yilda quyidagi qaysi voqea yuz berganligini toping.

A) Fransiyada bo'lib o'tgan saylovlarda "Milliy blok" mag'lubiyatga uchradi.

B) Buxorodagi Xalq uyida Umum O'zbek sovetlarining birinchi qurultoyi ochildi.

C) Buyuk Britaniya Xitoyga qarshi harbiy intervensiya uyushtirdi.

D) AQSh hukumati Da'vatkorlik to'g'risida hujjatni qabul qildi.

#### **Variant-012**

**1.** Buxoroda amirlik taxti Shohmurod qo'lga o'tgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Eronda Qojarlar hukmronligi boshlandi.

B) Qrim xonligi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.

C) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat tuzildi.

D) Afg'oniston shohi Ahmadshoh "Durri-Duron" unvonini oldi.

2. 1921-yilga kelib Ispaniyada ijtimoiy harakatning pasayishiga nima tufayli erishildi?

- A) hukumatning ishchilarga yon berishi  
 B) hukumatning shafqatsiz terrori  
 C) Marokashda boshlangan milliy-ozodlik harakati  
 D) harbiy diktaturaning o'rnatilishi

3. Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan quyidagi dengizchilardan qaysi biri portugaliyalik emas?

- A) Fernan Magellan                      B) Kabral  
 C) Amerigo Vespuchchi                  D) Vasko da Gama

4. Buxoro amirligida vaqf mulklari kim tomonidan tasarruf etilgan?

- A) muftiy    B) qozi    C) shayxulislom    D) mutavalli

5. Buxoro amirligida harbiy qo'shin bosh sarkardasi qanday atalgan?

- A) sohibi askar    B) amiri lashkar    C) sohibi shurat  
 D) parvonachi

6. Bir yilda bo'lib o'tgan voqealarni toping.

1) Dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi urush boshlandi; 2) Kuba nomiga mustaqillik oldi; 3) AQSh davlat kotibi Xeyning "Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilindi; 4) Fransuzlar G'arbiy Sudan ozodlik kurashi rahbari Samori Tureni taslim eta olishdi va Gabonga surgun qilishdi.

- A) 1, 2, 4    B) 1, 3, 4    C) 1, 2, 3    D) 2, 3, 4

7. XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro amirligi hududlari orqali Afg'onistonga qanday buyumlarni katta miqdorda chiqarib turgan?

1) temir; 2) movut; 3) farang matolari; 4) chinni buyumlar; 5) baxmal; 6) mo'yna; 7) chit; 8) g'alla; 9) gugurt; 10) kerosin; 11) cho'qqi qalpoqlar

- A) 3, 5, 7, 9, 10, 11                      B) 2, 4, 5, 7, 9, 10  
 C) 1, 3, 4, 8, 9, 11                      D) 1, 4, 5, 6, 8, 10

8. Amir Temur davlatidagi qaysi lavozim harbiy lavozim hisoblanmagan?

- A) bakovul    B) xonsolar    C) aylboshi  
 D) qo'shunboshi

9. Keyinchalik buyuk sarkarda bo'lib yetishgan Amir Temur dastlabki harbiy faoliyatini . . .

- A) Amir Husayin qo'shinida xizmat qilishdan boshlagan  
 B) viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan  
 C) Kesh dorug'aligidan boshlagan  
 D) Tug'luq Temurga xizmat qilishdan boshlagan

10. Quyida berilgan voqealardan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.

1. Xitoy va Buyuk Britaniya o'rtasida Xitoyni yanada asoratga soluvchi konvensiya tuzildi.  
 2. San-Stefano shartnomasi imzolandi.

3. Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi.

4. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi.

5. Xristo Botev turklar bilan jangda halok bo'ldi.

6. Buyuk Britaniyada haftasiga 54 soat ish vaqti belgilandi.

- A) 3, 4, 6    B) 1, 2, 3    C) 1, 4, 5    D) 2, 5, 6

11. Xitoyda Min sulolasi boshqaruvi davrida qaysi davlat bilan munosabatlari buzilgan? (XV asr boshi)

- A) Amir Temur saltanti bilan  
 B) Yaponiyadagi Asikaga sulolasi bilan  
 C) Oltin O'rda xonligi bilan  
 D) Dehli sultonligi bilan

12. Qadimgi Misrda kimlar yuksak saviyadagi ma'lumotli va savodxon hisoblangan?

- A) husnixat san'atini egallagan kishilar  
 B) folbinlar  
 C) harbiy a'yonlar  
 D) jamoadagi yuqori martabali kishilar

13. Yangi tarix davrini eslang va quyidagi hukmdorlardan qaysilari turli sabablar tufayli o'z davlatini tashlab chet ellatrga ketishga majbur bo'lishgan edi.

- 1) Karl II; 2) Yakov II; 3) Karl X; 4) Genrix IX;  
 5) N.Bonapart; 6) Lyudovik XVI; 7) Lui Filipp;  
 8) Shohjahon; 9) Li Song

- A) 1, 3, 9    B) 2, 3, 7    C) 2, 5, 8    D) 4, 6, 7

14. Italiyada "qizil ikki yillik" davriga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarni aniqlang.

1) 8 soatlik ish vaqti belgilandi; 2) hukumat ishchi va dehqonlardan shakllantirildi; 3) ish haqiga qo'shimcha to'lov to'lanishi e'lon qilindi; 4) yer egalariga yollanib ishlovchilar, ijaraga yer olib ishlovchilar uchun shartlar yengillashtirildi; 5) janubdagi dehqonlar yer egalaridan tortib olgan yerlarining bir qismi ularga qonuniylashtirib berildi; 6) dehqonlar soliqlardan vaqtincha ozod etildilar

- A) 1, 2, 4, 6    B) 2, 3, 5, 6    C) 1, 2, 4, 5  
 D) 1, 3, 4, 5

15. Frank qiroli Buyuk Karl hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar keltirgan tarixchi rohibni aniqlang.

- A) Sinon B) Mavrikiy C) Eyngard D) Tatsit

16. Germaniyadagi "Birlashuv jarayonining otasi" degan nom olgan arbobni aniqlang.

- A) M.S.Gorbachyov    B) G.Kol    C) E.Xonneker  
 D) G.Shryoder

17. XX asrning 50-80-yillarida qurib ishga tushirilgan O'rta Osiyoda eng yirik Qayroqqum GESi qaysi Respublika hududida joylashgan?

- A) Qozog'iston    B) O'zbekiston    C) Qirg'iziston  
 D) Tojikiston



**18.** Yaponiya tarixiga doir quyidagi ma'lumotlardan bir yilda sodir bo'lganlarini toping.

1. Simonoseki sulhi tuzildi.
2. 10 yillik qurollanish dasturi qabul qilindi.
3. Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi.
4. Yaponlar uchun Koreya ochiq mamlakat deb e'lon qilindi.

A) 3, 4      B) 1, 4      C) 1, 2      D) 2, 3

**19.** Buxoroda "Tarbiyai atfol" jamiyati tashkil etilgan vaqtda jahon tarixida sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.

- 1) Meksikada Prezidentlik saylovi o'tkazildi.
- 2) Rossiyada saylov to'g'risida yangi qonun qabul qilindi.
- 3) Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi.
- 4) "Hindiston kengashlari haqida qonun" nomli hujjat qabul qilindi.
- 5) Eron taxtiga Muhammad Alishoh o'tirdi.
- 6) Janubiy Afrika Ittifoqi tashkil topdi.

A) 3, 4, 6      B) 1, 3, 6      C) 1, 3, 5      D) 2, 4, 5

**20.** 1907-1911-yillar Eron inqilobining ikkinchi davrida kata ta'sirga ega bo'lgan mujohidlar ilgari surgan talablar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) yashirin saylov huquqi; 2) shoh tuzumini ag'darish;
- 3) parlament joriy etish; 4) shaxs erkinligini joriy qilish;
- 5) shoh yerlarini musodara qilish; 6) ish vaqtini 8 soat qilib cheklash;
- 7) chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga parlament roziligi olish; 8) bepul va majburiy ta'lim joriy qilish.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 2, 4, 6, 7, 8      C) 2, 3, 5, 6, 7  
D) 1, 4, 5, 6, 8

**21.** Xitoyliklar selitradan porox olishni ixtiro qilgan asrda quyidagi qaysi voqea yuz berdi?

- A) Buxoro "Qubbat ul-Islom" nomi bilan shuhrat topdi.
- B) Buxoroda musulmonlarning ilk ilmgohi - Farjak madrasasi bunyod etildi.
- C) Movarounnahrda yerdan foydalanishning iqto tartibi juda keng yoyilib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylandi.
- D) Yettisuvda qarluqlar davlati tashkil topdi.

**22.** Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, balki amakisi Ko'chkunchi Sulton o'tqazilishi sababini aniqlang.

- A) Shayboniy avlodlari yosh bo'lganligi sababli saroyda kata siyosiy nufuzga ega Ko'chkunchi Sulton taxtni zo'rlik bilan egallagan
- B) Ko'chkunchi Sulton Abulxayrxonning o'g'li bo'lganligi bois boshqa nomzod bo'lmagan hamda xalqning talablariga binoan
- C) Muhammad Shayboniyxon o'z o'limidan ancha oldin amakisi Ko'chkunchi Sultonni taxt vorisi sifatida

vasiyatnoma qoldirgan

D) Shayboniyklar urf-odatiga ko'ra, vafot etgan xon o'rniga taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilishi lozim bo'lgan

**23.** Bobur vorislari ichida eng mashhuri, buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan hukmdor Akbarshoh taxtga o'tirgan yilda Buyuk Britaniya hukmdori kim edi?

A) Yakov II      B) Yelizaveta I      C) Mariya  
D) Genrix VIII

**24.** Mustaqil Afg'oniston davlati qachon tashkil topgan?

A) 1747-y.      B) 1746-y.      C) 1749-y.      D) 1748-y.

**25.** Tarixdan ma'lumki, Shayboniyklar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Buxoro taxtiga eng munosib nomzod Jonibek Sulton bo'lib qoladi. Lekin u kimning foydasiga taxtdan voz kechadi?

A) Din Muhammad      B) Boqi Muhammad  
C) Imomqulixon      D) Vali Muhammad

**26.** XIX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish tufayli Fransiyada qaysi davrga kelib mo'tadil barqarorlik ta'minlandi?

A) XX asrning oxiriga      B) XX asrning o'rtalariga  
C) XX asrning 60-70-yillariga  
D) XX asrning boshlariga

**27.** Nechanchi asrda mashhur Xonbandi suv ombori bunyod etilgan?

A) XI asrda      B) X asrda      C) IX asrda      D) VIII asrda

**28.** Xitoyda katta yer egaligi qay tariqa tugatildi?

- A) industrilashtirish natijasida
- B) davlat barcha yerlarni sotib olib, dehqonlarga sotishi natijasida
- C) fuqarolar urushi natijasida
- D) 1950-yil 30-iyundagi qonun asosidagi islohot natijasida

**29.** "Al-izoh" jurnali . . . ning nashriy organi hisoblangan.

A) "Yosh buxoroliklar"      B) "Sho'royi Ulamo"  
C) "Sho'royi Islomiya"      D) "Yosh turklar"

**30.** 1938-yilning 3-noyabrida Yaponiya . . .

- A) Xitoy hududlariga bostirib kirdi
- B) Mo'g'uliston Xalq Respublikasiga hujum qildi
- C) Tinch okeanida joylashgan AQSh harbiy bazalariga ig'vogarlik hujumlari uyushtirdi
- D) Sharqiy Osiyoda tartib o'rnatish haqida deklaratsiya e'lon qildi

**31.** XVI asrda yaponlarga o'qotar qurollar yasash san'atini o'rgatgan yevropalikni aniqlang.

A) Mendish Pintu      B) Anketil Dyuperon  
C) Kristiyan Kuper      D) Plano Kapraniy

**32.** XX asr 30-yillarida Buyuk Britaniya tashqi siyosatda duch kelgan ikki asosiy muammoni aniqlang.

- 1) fashistlar Germaniyasining Yevropadagi agressiv tashqi siyosati; 2) Sovet davlatining iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlanishi; 3) funt-sterlingning oltinga almashtiriladigan valyuta bo'lmay qolganligi; 4) imperiya mustamlakalarida kuchaygan milliy-ozodlik harakati muammolari  
A) 1, 2      B) 3, 4      C) 2, 3      D) 1, 4

**33.** XIX asrning II yarmida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi har bir oiladan olingan zakot miqdori qanchani tashkil etgan?

- A) 40 bosh qoramol uchun 9 so'm, 40 bosh qo'y va echki uchun 2 so'm 50 tiyin  
B) 40 bosh ot uchun 9 so'm, 40 bosh qoramol uchun 2 so'm 50 tiyin  
C) 40 bosh qoramol uchun 10 so'm, 40 bosh qo'y va echki uchun 3 so'm 50 tiyin  
D) 40 bosh ot va tuya uchun 9 so'm, 40 bosh boshqa mollar uchun 3 so'm 50 tiyin

**34.** Qadimgi dunyoning urush xudolari nomini aniqlang.

- A) Mars, Ganesh, Ea                      B) Aton, Ea, Femida  
C) Mars, Ishtar, Ares                      D) Yupiter, Zevs, Ares

**35.** Angliyada kimning hukmronligi davrida cherkovga qarashli yerlarning 2/3 qismi sotib yuborildi?

- A) Genrix VIII      B) Mariya      C) Yelizaveta I  
D) Yakov VI

**36.** Quyidagi asarlardan qaysi biri XV-XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan Toshkent tarixi, Qo'qon xonligi tarixi ilmiy nuqtai nazardan yozilgan qimmatli asar hisoblanadi?

- A) "Tarixi Shohruxiy"  
B) "Tarixi Jadidayi Toshkand"  
C) "Tarixi Muhojiron"                      D) "Saralangan tarixlar"

#### **Variant-013**

**1.** O'zbekistonda "Sihat-salomatlik yili" deb nomlangan yilda yuz bergan voqealarni aniqlang.

- 1) Toshkentda Moskva Davlat Universitetining filiali ochildi.  
2) "Isuzu" markali avtobuslar ishlab chiqarish boshlandi.  
3) Sankt-Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti davlat rahbarlarining kengashida Markaziy Osiyo Umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi.  
4) Moskvada O'zbekiston-Rossiya o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma imzolandi.  
5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tuzilib, faoliyat yurita boshladi  
A) 1, 2, 4      B) 1, 2, 5      C) 1, 3, 4      D) 3, 4, 5

**2.** Qo'qon xoni Muhammad Alixon qachon va kimning foydasiga taxtdan voz kechdi?

- A) 1841-yil, Xudoyorxon  
B) 1841-yil, Sulton Mahmudxon  
C) 1842-yil, Amir Nasrullo  
D) 1842-yil Ibrohim dodxoh

**3.** Qadimgi yunonlar Mesopotamiya deb atagan hududda qaysi davrga kelib Ur, Uruk, Lagash, Umma kabi shahar-davlatlar vujudga kela boshladi?

- A) mil.avv. I mingyillik boshlarida  
B) mil.avv. III mingyillik oxirlarida  
C) mil.avv. IV mingyillik oxirlarida  
D) mil.avv. IV mingyillik boshlarida

**4.** Kubada S.Martin hukumati tomonidan qanday to'lovlar 45%ga kamaytirilgan?

- A) elektr energiyasi, gaz, telefon  
B) elektr energiyasi, ichimlik suvi, pochta-telegraf  
C) gaz, aloqa xizmati, uy-joy solig'i  
D) kommunal xizmat, uy-joy solig'i, gaz

**5.** Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi;  
2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi;  
3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi;  
4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi;  
5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi;  
6) qalmaq va oyratlarga qarshi  
A) 1, 3, 4      B) 2, 3, 4      C) 2, 3, 6      D) 1, 5, 6

**6.** XIX asrning so'nggi choragida Fransiya iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashuvining asosiy sababi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A) Fransiya juda katta tabiiy boyliklari bo'la turib, undan unumli foydalana olmaganligi va hamon mayda tovar ishlab chiqarishda davom etayotganligi  
B) Fransiyaning chetga ko'p kapital chiqarishi  
C) Prussiya bilan urushda nihoyatda katta (17 mlrd frank) moddiy talofot ko'rganligi va ayni paytda Germaniyaga 5 mlrd frank to'lash majburiyatini olishi  
D) Fransuz sarmoyadorlarining o'z kapitallarini faqat mamlakat ishlab chiqarishiga sarflashlari

**7.** Uesseks qiroli Buyuk Alfred vafot etgan yili. . .

- A) Xurosonda hokimiyat safforiylar qo'liga o'tdi  
B) xalifa Mu'tazid xalifalik taxtiga o'tirdi  
C) butun Xuroson Somoniylar qo'l ostiga o'tdi  
D) Ismoil Somoniy Taroz shahrini fath etib, dashtliklarga zarba berdi

8. Vengriya hukumati tomonidan Xorvatiya Seymi tarqatib yuborilib, Konstitutsiyasi to'xtatib qo'yilgan yilda quyidagi qaysi voqea ro'y bergan?

- A) Avstriya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi  
 B) Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi  
 C) Chexiyada sud va ma'muriy ishlar uchun 2 til joriy qilindi  
 D) Chexiyada qamal holati joriy qilindi

9. Bobur vorislari ichida eng mashhuri, buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan hukmdor Akbarshoh taxtga o'tirgan yilda Buyuk Britaniya hukmdori kim edi?

- A) Mariya      B) Genrix VIII      C) Yakov II  
 D) Yelizaveta I

10. Yangi tarix davrini eslang va quyidagi hukmdorlardan qaysilari turli sabablar tufayli o'z davlatini tashlab chet ellatrga ketishga majbur bo'lishgan edi.

- 1) Karl II; 2) Yakov II; 3) Karl X; 4) Genrix IX;  
 5) N.Bonapart; 6) Lyudovik XVI; 7) Lui Filipp;  
 8) Shohjahon; 9) Li Song  
 A) 2, 5, 8    B) 2, 3, 7    C) 4, 6, 7    D) 1, 3, 9

11. Mo'g'ullar hukmronli davriga joriy etilgan soliq turlarini aniqlang.

- 1) xiroj; 2) kalon; 3) tamg'a; 4) targ'u; 5) qopchur;  
 6) shulen; 7) ushr; 8) tuz solig'i; 9) tutun solig'i; 10) jun solig'i; 11) jiz'ya; 12) kumush solig'i.  
 A) 2, 3, 5, 6, 10, 11, 12      B) 1, 2, 4, 5, 6, 9, 10  
 C) 2, 4, 5, 6, 8, 10, 12      D) 2, 4, 7, 8, 10, 11, 12

12. Nechanchi yilda uyushtirilgan ekspeditsiya Yerning dumaloqligini, uning katta qismi suv bilan qoplanganligini isbotladi?

- A) 1507-y.    B) 1492-y.    C) 1605-y.    D) 1522-y.

13. Salavkiylar davlatida strateg qanday vazifani bajargan?

- A) mahalliy aholidan yig'iladigan soliqlarni nazorat qilish  
 B) viloyat hokimlarini nazorat qilish  
 C) davlat mudofaasi va qo'sinlarni tashkil etish  
 D) mamlakatning istiqboldagi rejalarini ishlab chiqish

14. Buyuk Britaniya 1997-yilda Xitoyga qaytarib bergan hududni aniqlang.

- A) Xaynan    B) Gonkong    C) Sindao    D) Taypey

15. XX asr boshlarida Avstriya-Vengriyaga qaysi davlatlar banklari qarz berish, sanoatga mablag'lar yo'naltirish orqali mamlakatni o'z kapitallari bilan to'ldirib tashladilar?

- A) Germaniya, Ispaniya, Italiya  
 B) Germaniya, Angliya, AQSh  
 C) Fransiya, Belgiya, Germaniya  
 D) Angliya, Fransiya, Portugaliya

16. Xiva xonligida kimlar bevatan deb atalgan?

- A) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari  
 B) qoraqalpoqlar  
 C) ko'chmanchi qozoq chorvadorlari  
 D) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar

17. Buyuk Britaniya hukumati ikki davlat harbiy-dengiz flotiga teng keladigan flot saqlash an'anasidan voz kechishga majbur bo'lgan (a) va AQSh Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining yetakchi mavqeini amalda yo'qqa chiqara olgan (b) yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) a-1921-yil; b-1929-yil    B) a-1920-yil; b-1930-yil  
 C) a-1919-yil; b-1929-yil    D) a-1921-yil; b-1939-yil

18. Qoraqalpoq xalqi tomonidan bunyod etilgan qal'a shaklidagi shaharlarni aniqlang.

- 1) Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a; 2) Jonbosqal'a, Tuproqqal'a; 3) Eshonqal'a; 4) Qo'yqirilganqal'a; 5) Janaqal'a, Ko'ko'zakqal'a.

- A) 1, 2, 4    B) 2, 4, 5    C) 1, 3, 5    D) 2, 3, 4

19. 1917-yil 25-dekabr kuni Qo'qonda bo'lib o'tgan o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarning favqulodda qurultoyi qanday shior ostida o'tkazildi?

- A) Farg'ona vodiysida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish  
 B) Qo'qon muxtoriyatini tezlik bilan tugatish choralarini ko'rish va sovetlashtirishni jadallashtirish  
 C) Muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish  
 D) O'lkada sovet hokimiyati tuzumini mustahkamlash

20. Quyidagi fransuz qirollarining ular hukmronlik qilgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Filipp IV; 2) Lyudovik XI; 3) Karl VII;  
 4) Lyudovik VI;  
 a) 1285-1314-yy.; b) 1108-1137-yy.; c) 1461-1483-yy.;  
 d) 1422-1461-yy.

- A) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b    B) 1 - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a  
 C) 1 - a; 2 - c; 3 - d; 4 - b    D) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 - b

21. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi . . . zimmasiga yuklatilgan edi.

- A) "O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi"  
 B) RKP(b) Markaziy Q'omitasining O'rta Osiyo byurosi  
 C) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi  
 D) "Turkkomissiya"

22. Qaysi asrdan boshlab Movarounnahr va Xorazmning mahalliy aholisi o'zbek deb atala boshlandi?

- A) XVI asrdan      B) XIII asrdan  
 C) XIV asrdan      D) XI asrdan



23. Chig'atoy ulusi davriga oid me'moriy obidalarni aniqlang.

1) To'rabekxonim maqbarasi; 2) Bayonqulixon maqbarasi; 3) Nomozgoh masjidi; 4) Ernazar elchi madrasasi.

A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2 D) 3, 4

24. Shayboniyxonning harbiy yurishlariga bag'ishlangan asar yozgan mualliflarni aniqlang.

A) Muhammad Haydar va Mahmud ibn Ahmad Faroziy  
B) Sultonali Samarqandiy va Muhammad Solih  
C) Kamoliddin Binoiy va Muhammad Buxoriy  
D) Muhammad Solih va Hofiz Tanish Buxoriy

25. Birinchi jahon urushidan keyin Xitoyda aholi soni qancha bo'lganligini ko'rsating.

A) 600 mln ga yaqin B) 450 mln dan ortiq  
C) 835 mln D) 900 mln ga yaqin

26. XIX asr oxirida quyidagilardan qaysi biri Buyuk Britaniya tomonidan ijaraga olingan?

A) Guamchjuvan ko'rfazi B) Futsziyan viloyati  
C) Veyxayvey porti D) Szyaochjouvan ko'rfazi

27. Toshkelnt bekligida Yunusxo'ja huzurida tuzilgan xon kengashi tarkibiga kimlar kirgan?

A) 4 daha mingboshilari  
B) Yunusxo'janing ishonchli saroy a'yonlari  
C) 4 daha hokimlari D) 4 daha qozilari

28. Misr davlati tarixiga doir quyidagi voqealardan qaysi biri polkovnik Ahmad Orabibey Seylon oroliga umrbod surgun qilingan yilda sodir bo'lgan?

1. Hadiv yangi qonunga imzo chekdi, unga ko'ra birorta qonun deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo'ldi.

2. Buyuk Britaniya qo'shini Iskandariyani to'plardan o'qqa tutdi.

3. Jamoliddin al-Afg'oniy "Xizb ul-Vatan" partiyasini tuzdi.

4. Xartumga misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi.

5. General Xiks boshliq ingliz qo'shini sudanliklar tomonidan tor-mor etildi.

A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4

29. Arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan Mahmud az-Zamaxshariy qalamiga mansub asarni aniqlang.

A) "Tavilot a'hl as-sunna" B) "Hidoya"  
C) "Al-Kashshof" D) "Al-Mufassal"

30. Turkistondagi milliy-ozodlik harakati yo'lboshchilari ichida noyob qobiliyati bilan ajralib turuvchi Madaminbek Ahmadbek o'g'li bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni toping.

1. 1918-yil martida unga musulmon qo'shinlarining bosh qo'mondoni unvoni berildi.

2. Uning o'z "boshqaruv apparati", "tribunali" va

"genshtabi" bo'lgan.

3. 1919-yil yanvarida Marg'ilon uning qo'shinlari tomonidan egallandi.

4. 1919-yil aprelida uning qo'shinlari Namangan va Qo'qon shaharlari atrofidagi janglarda g'olib kelishdi.

5. 1919-yil yozida Monstrov boshchiligidagi rus krestyanlaridan tashkil topgan harbiy qismlar uning kuchlari bilan birlashdi.

6. 1919-yil oktyabrda Andijondagi Oyimqishloqda uning tarafdorlari tomonidan "Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati" tuzildi.

A) 1, 3, 5 B) 1, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 2, 3, 4

31. Vetnamda urush boshlangan va to'xtagan yillarda AQShda prezident bo'lib turgan shaxslarni aniqlang.

A) L.Jonson, R.Nikson B) G.Trumen, J.Kennedi  
C) J.Kennedi, J.Ford D) D.Eyzenxauer, R.Nikson

32. Yunon-Baqtriya davlatida zarb qilingan tangalarga kim(nima)ning tasviri tushirilgan?

A) suvoriy B) davlat tamg'asi C) hukmdor D) bars

33. Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo'lish vaqti Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi?

1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;

2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste'foga chiqishi;

3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi;

4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o'ringa ko'tarilishi;

5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi.

A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 5

34. Arab xalifaligidan birinchi mustaqil amirlik tashkil topgan vaqtda tarixda yana qanday voqea sodir bo'lgan?

A) Italiyada Rim papalari davlati - Papa viloyati tashkil Topdi

B)Qoraxoniylar davlati tashkil topdi

C) O'g'uzlar Islom dinini qabul qildi

D)Qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'ldi

35. GFR tarixiga oid quyidagi voqealar yillari bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1. Okkupatsiya tartibi bekor qilindi.

2. GFR da 12 ta diviziya, harbiy aviatsiya va harbiy flotning cheklangan kuchlaridan iborat armiyaga ega bo'lishga ruxsat etildi.

3. "Xalshteyn doktrinasi" e'lon qilindi.

4. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo'ldi.

a) 1951-yil; b) 1954-yil; c) 1955-yil; d) 1958-yil

A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b

C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

36. 1614-yilda xristian dinini ta'qiqlovchi qonun chiqargan syogunni toping.

- A) Toyotomi Xidayosi      B) Oda Nobunaga  
C) Tokugava Iayasu      D) Yosimune

**Variant-014**

1. Do'st Muhammadxon ingliz-afg'on do'stlik shartnomasini imzolagan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.

- A) o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryo janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi  
B) Qrim urushi Rossiyaning mag'lubiyati bilan tugadi  
C) AQShda shimol va janub o'rtasida fuqarolar urushi boshlandi  
D) Raim qal'asi bunyod etildi

2. Mamlakatda yopiq siyosat yuritib, chet elliklar, ayniqsa, yevropaliklarning mamlakatga kirishini taqiqlagan afg'on hukmdorini toping.

- A) Omonulloh      B) Habibullo      C) Yoqubxon  
D) Amir Abdurahmon

3. Tropik Afrika davlatlari tarkibiga kirmagan davlatni aniqlang.

- A) Serra-Leone      B) Nyasalend      C) Lesoto  
D) Eritreya

4. I jahon urushi yillarida Fransiya armiyasi saflariga chaqirilgan jazoirliklardan . . . foydalanishgan.

- A) aviatsiyada      B) front orti ishlarida      C) flotda  
D) Afrikadagi janglarda

5. XIX asrning I yarmida Xivada xon safarda bo'lgan vaqtlarda xonlikni kim boshqargan?

- A) valiahd shahzoda      B) mehtar      C) qo'shbegi  
D) devonbegi

6. Yevropa Kengashining oliy organlarini aniqlang.

- A) Parlament Assambleyasi va Strasburg Kengashi  
B) Yevroparlament va Bosh vazirlar Kengashi  
C) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Gaaga Sudi  
D) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Parlament Assambleyasi

7. Soliqlarning haddan tashqari ko'pligidan norozi bo'lgan O'sh aholisi qo'zg'olon ko'targan vaqtda (1845-yil) Namangan hokimi bo'lib turgan shaxsni aniqlang.

- A) Xudoyorxon      B) Musulmonqul      C) Sheralixon  
D) Murodxon

8. Yuliy Sezar o'limidan so'ng Rimda respublikani tiklashga uringan Brut qo'shinini tor-mor keltirgan ittifoqchilarni aniqlang.

- 1) Oktavian; 2) Pompey; 3) Krass; 4) Mark Antoniy.  
A) 2, 4      B) 1, 3      C) 2, 3      D) 1, 4

9. XII asrda Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida "Faqihlar madrasasi" qurilgan asrga oid ma'lumotni aniqlang.

A) Islom olamidagi birinchi madrasa Farjak bunyod etildi

B) Buxoro "Qubbat ul-Islom" - "Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topdi.

C) Kitob chiqarishda qog'ozdan keng foydalanila boshlandi.

D) Yevropaning yirik shaharlarida oliy maktab - universitetlar ochila boshladi.

10. Shayboniylar tomonidan ta'limni rivojlantirish sohasida islohot o'tkazilishining sababini aniqlang.

A) Yevropaning rivojlanib ketish sabablarini o'rganish va unga imkon qadar yetib olish

B) aniq va tabiiy fanlarda erishilgan yutuqlarni keng ommaga yetkazish

C) Temuriylar davridan yetib kelgan ilmiy muassasalarni yanada rivojlantirish

D) barcha sohalar bo'yicha ilmiy amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish

11. 1944-yil yanvar oyida gitlerchilar harbiy asirlardan tuzilgan "Turkiston legioni" otryadini qaysi hududdagi partizanlarga qarshi jangga soladilar?

- A) Polshadagi      B) Bolgariyadagi      C) Chernogoriyadagi  
D) Belorussiyadagi

12. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Osiyo davlatlari tarixini eslang va quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Yaponiyada ikki palatali parlament joriy qilindi.  
2. "Xitoy uyushmalari ittifoqi" siyosiy tashkiloti tuzildi.  
3. "Hindiston kengashlari haqida qonun" nomli hujjat qabul qilindi.

4. Eronda Majlisga saylov o'tkazildi, Muzaffariddin Konstitutsiyaning birinchi qismini tasdiqladi

- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 3, 4, 2      C) 1, 4, 2, 3  
D) 1, 2, 4, 3

13. Ikkinchi jahon urushi davrida sanoat shahri sifatida vujudga kelgan respublikamizdagi shaharni toping.

- A) Olmaliq      B) Kattaqo'rg'on      C) Bekobod  
D) Qo'qon

14. Otto fon Bismark Reyxstag oldiga sotsialistlarga qarshi qonunga doimiy tus berish masalasini qo'ygan yilda vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Matyoqub pishiq boshchiligida qo'zg'olon bo'ldi.  
B) Kalif bekligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi.  
C) Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.  
D) Ko'lob bekligida qo'zg'olon bostirildi.

15. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tuzilgan sanani toping.

- A) 1991-yil sentabr      B) 1993-yil yanvar  
C) 1992-yil noyabr      D) 1992-yil yanvar

16. O'rta Osiyo hududida ilk o'rta asrlarda tashkil topgan hokimliklar va ularga oid ma'lumotlar to'g'ri

muvofiglashtirilgan javobni toping.

- 1) . . . mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi edi;
- 2) . . . da ayniqsa qurolsozlik rivojlangan;
- 3) . . . qo‘shni mamlakatlarga bo‘yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqargan;
- 4) . . . tangalarining old betida hukmdor surati, ayrim tangalarda esa, hukmdorga yonma-yon malika tasviri tushirilgan.

a) Choch; b) Sug‘d; c) Farg‘ona; d) Toxariston

A) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c      B) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a

C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b      D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

**17.** II jahon urushidan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini tezroq tiklash maqsadida iqtisodiyotning “Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligi” modeli tanlangan davlatni aniqlang

A) Italiya    B) Fransiya    C) Ispaniya    D) GFR

**18.** Otto fon Bismark Germaniyada mavjud davlatlarning Prussiya bilan "Shimoliy Germaniya Ittifoqi"ni tuzish haqida shartnoma imzolashga erishgan yili vatanimiz tarixida sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.

A) Buxoro taxtiga Amir Muzaffar o‘tirdi.

B) Qo‘qon shahrida Po‘latxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi.

C) Jizzax shahri rus askarlari tomonidan egallandi.

D) Kaspiyorti viloyati tashkil topdi.

**19.** Kiyev knyazi Vladimir nima sababdan o‘z o‘g‘li Yaroslavga qarshi yurishga tayyorgarlik ko‘rganligini aniqlang.

A) Kiyevning qipchoqlarga qarshi urushida harbiy yordam ko‘rsatmaganligi uchun

B) Kiyevga boj to‘lashdan bosh tortganligi uchun

C) Vladimiri Kiyev taxtidan tushirish uchun fitna tayyorlaganligi uchun

D) bijanak qabilalari bilan ittifoq tuzganligi uchun

**20.** Quyidagi qaysi davlat ichki siyosiy tarqoqlik natijasida XVII asrning ikkinchi yarmida Yevropaning kuchli davlatlari qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib qoldi?

A) Germaniya    B) Shvetsiya    C) Fransiya

D) Turkiya

**21.** AQSh hukumati trestlarga qarshi 20 dan ortiq sud jarayonini tashkil etishi natijasida kimning temiryo‘l kompaniyasi ikkiga bo‘lindi?

A) Stennesning    B) Karnegining    C) Morganning

D) Rokfellerning

**22.** Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?

A) Genrix VI    B) Buyuk Alfred    C) Richard II

D) Amrosiy Avrelian

**23.** Buxoroda "Tarbiyai atfol" jamiyati tashkil etilgan vaqtda jahon tarixida sodir bo‘lgan voqealarni aniqlang.

1) Meksikada Prezidentlik saylovi o‘tkazildi.

2) Rossiyada saylov to‘g‘risida yangi qonun qabul qilindi.

3) Yaponiya Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o‘ziga qo‘shib oldi.

4) "Hindiston kengashlari haqida qonun" nomli hujjat qabul qilindi.

5) Eron taxtiga Muhammad Alishoh o‘tirdi.

6) Janubiy Afrika Ittifoqi tashkil topdi.

A) 2, 4, 5    B) 1, 3, 6    C) 1, 3, 5    D) 3, 4, 6

**24.** 1941-45-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududida qurilgan zavodlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

1) Xilkovo zement zavodi; 2) Quvasoy kimyo zavodi;

3) Quvasoy zement zavodi; 4) Qo‘qon superfosfat zavodi;

5) Bekobod metallurgiya zavodi; 6) Farg‘ona gidroliz zavodi

A) 1, 3, 4, 6    B) 1, 2, 3, 4    C) 3, 4, 5, 6

D) 2, 4, 5, 6

**25.** O‘zbekiston Respublikasida . . . xalqaro sharnomalarni ratifikatsiya qilish huquqiga ega.

A) Vazirlar Mahkamasi    B) Oliy Majlis

C) Prezident

D) Oliy Sud

**26.** Xiva xonligi tarixi to‘g‘risidagi asarlar bilan bog‘liq quyidagi ma‘lumotlar orasidan to‘g‘rilarini belgilang.

1) XVIII asrda yashagan Hasanbek Rumluning “Eng go‘zal tarix” asari XVI asrning I yarmidagi Xiva tarixiga bag‘ishlangan.

2) Abulg‘oziyxon Bahodirning “Shajarayi turk” asarining X bobi Xiva-Buxoro munosabatlariga bag‘ishlangan.

3) “Firdavs-ul iqbol” asari Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo‘lgan tarixini qamrab olgan.

4) Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixi Yusufbek Bayoniy tomonidan yaratilgan.

A) 1, 3    B) 3, 4    C) 2, 4    D) 1, 2

**27.** Qo‘qon xoni Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuborib, Raim istehkomi qurilganidan noroziligini bildirgan vaqtda Rus podshosi kim edi?

A) Nikolay II    B) Nikolay I    C) Aleksandr I

D) Aleksandr II

**28.** A.Griffit tomonidan “Shinfeyn” partiyasi tuzilgan yilda sodir bo‘lgan voqeani belgilang.

A) Germaniya qurolli kuchlari Bosh shtabi ikki frontda urush olib borish rejasini ishlab chiqdi.

B) Buyuk Britaniya Quvaytda protektorat o‘rnatdi.

C) Turkiya va Germaniya o‘rtasida temiryo‘l masalasida yakunlovchi bitim imzolandi.

D) Vilgelm II “hazrati Iso qabri”ni ziyorat qilish bahonasida Falastinga bordi.

**29.** O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan Xioniyalar davlati qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan?

A) Sirdaryoning shimoliy va janubiy qismlaridagi keng maydon hamda Orol bo‘ylari, qisman janubi-g‘arbiy



Dashti Qipchoqni

- B) Orol va Kaspiy oralig'idagi keng yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi, Dashti Qipchoqning janubiy qismini  
C) Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng hududlarni  
D) Amudaryoning janubiy va shimoliy qismidagi keng yerlardan to Kaspiy havzasigacha yastangan hududlarni

30. "Mehnat xartiyasi" nomli hujjat qabul qilingan mamlakat tarixida 1861-yilda sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Krepostnoylik huquqi bekor qilindi.  
B) Birlashgan qirollik tashkil topdi.  
C) Fuqarolar urushi boshlandi.  
D) Poytaxtida Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

31. XVIII asrning I yarmida Sibirda istehkomlar barpo etgan harbiy guruh rahbarini aniqlang.

- A) I.Buxgols B) I.Kirillov C) F.Berg  
D) B.Cherkasskiy

32. Shayboniylarga amakivachcha bo'lgan ashtarxoniyalar qachondan boshlab Ashtarxon xonligida hukmronlik qila boshlagan?

- A) XVI asr o'rtalaridan B) XIV asrning 80-yillaridan  
C) XVII asr boshlaridan D) XV asrning 20-yillaridan

33. G'azna viloyati noibi (Somoniylar davrida) Alptegin qaysi viloyatlarni mustaqil boshqarishga intilib, G'aznaviylar davlatiga asos solgan edi?

- A) Qobul va G'azna B) Termiz va Balx  
C) G'azna va Nishopur D) Ray va Isfaxon

34. Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan qaysi asarda ta'kidlanishicha xonlikda xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan?

- A) "Tarixi Turkiston" B) "Tarixi Rashidiy"  
C) "Sarlangan tarixlar" D) "Tarixi Toshqand"

35. Parij tinchlik konferensiyasida "katta uchlik" davlatlari vujudga kelgan bo'lib, ulardan qaysi biri urushda eng ko'p zarar ko'rgan edi?

- A) Fransiya B) Buyuk Britaniya C) AQSh  
D) Rossiya

36. "Xitoy uyushmalari ittifoqi" siyosiy tashkiloti qabul qilgan dasturida ko'zda tutgan masalalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Sin monarxiyasini ag'darish;  
2) yevropaliklarni mamlakatdan quvib chiqarish;  
3) respublika ta'sis etish;  
4) sanoat korxonalarini barpo etish;  
5) yerga egalik huquqini tenglashtirish;  
6) mustaqillikni tiklash  
A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 6

Variant-015

1. Turkiyada nechanchi yillarda harbiy to'ntarish bo'lib o'tgan?

- 1) 1960-yil; 2) 1966-yil; 3) 1971-yil; 4) 1975-yil;  
5) 1978-yil

A) 3, 5 B) 2, 5 C) 2, 4 D) 1, 3

2. Italiyada "qizil ikki yillik" davriga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarni anilang.

- 1) 8 soatlik ish vaqti belgilandi; 2) hukumat ishchi va dehqonlardan shakllantirildi; 3) ish haqiga qo'shimcha to'lov to'lanishi e'lon qilindi; 4) yer egalariga yollanib ishlovchilar, ijaraga yer olib ishlovchilar uchun shartlar yengillashtirildi; 5) janubdagi dehqonlar yer egalaridan tortib olgan yerlarining bir qismi ularga qonuniylashtirib berildi; 6) dehqonlar soliqlardan vaqtincha ozod etildilar

- A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 1, 3, 4, 5  
D) 1, 2, 4, 5

3. Quyidagi qaysi yozuvchining asarlarida ko'plab qirollar, kanslerlar, zodagonlar, amaldorlar, xalqqa xiyonat qilganlar, hatto imperator Vilgelm II ham tasvirlangan?

- A) G.de Mopassan B) R.Rollan C) V.Gyugo  
D) G.Mann

4. Quyidagi ma'lumotlardan qaysilari to'g'ri?

1. XVIII asrdan boshlab Buxoro amirligida hasharga keluvchilar oziq-ovqat, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishlari lozim bo'lgan.

2. Buxoro amirligida polizdan olinadigan tanobona solig'i yer haydashga yaroqli har bir juft ho'kiz hisobidan kelib chiqib belgilangan.

3. Buxoro amirligida XVIII asrda xirojning bir qismi pul bilan yig'iladigan bo'ldi.

4. Buxoro amirligida tanobona, zakot, qo'sh puli soliqlari faqat pul shaklida olingan.

- A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3

5. Arab xalifaligi davrida aholidan daromadning 10 foizi hisobida undirilgan va idora ishlari uchun sarflangan soliq turini aniqlang.

- A) targ'u B) kalon C) ushr D) begar

6. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Favqulodda sessiyasi "Yer va suvni milliyashtirish to'g'risida" dekret qabul qilgan yilda quyidagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

A) Jabel-Druz viloyatida dehqonlar qo'zg'oloni boshlandi.

B) Misrda Saad Zag'lul boshchiligida hukumat tuzildi.

C) Mandat tizimi yo'li bilan Buyuk Britaniya Iroq ustidan o'z hukmronligini to'liq o'rnatdi.

D) Suriya va Fransiya hukumati o'rtasida shartnoma imzolandi.

7. 1935-yil 30-iyundagi Buyuk Britaniya-Germaniya dengiz bitimiga ko'ra. . .

- A) Germaniya Buyuk Britaniyaning uchdan bir qismiga teng harbiy-dengiz flotini tuzish imkoniga ega bo'ldi  
 B) Germaniyaning dengiz savdosidagi harakati ingliz kemalari orqali amalga oshiriladigan bo'ldi  
 C) Germaniyaning Atlantika okeanida o'z kemalarini harakatlantirishga imkon yaratdi  
 D) Fransiyaning harbiy-dengiz flotiga teng flot tuzishiga ruxsat berildi

**8.** Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiyaqa yaqinlashgan yillarda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsating.

1. Buyuk Britaniyada parlament islohoti o'tkazildi.
2. Rossiyada agrar islohot o'tkazildi.
3. Skobelev boshchiligida rus qo'shinlari turkmanlarga qarshi harbiy harakatlar boshladi.
4. "Hindiston milliy kongressi" tuzildi.
5. Efiopiya va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi.
6. Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi.

A) 3, 4, 5    B) 2, 4, 5    C) 2, 3, 6    D) 1, 2, 6

**9.** Quyida keltirilgan shartnomalardan qaysi biri 1881-yilda imzolangan?

- A) Xiva xonligi yarimmustamlaka davlatga aylanganligini tasdiqlovchi shartnoma
- B) Rossiya imperiyasining Buxoro amirligida o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi shartnoma
- C) Buxoro amirligi bilan Eron o'rtasidagi chegaralarni belgilovchi maxfiy shartnoma
- D) Afg'oniston va O'rta Osiyo chegaralarini belgilash to'g'risidagi shartnoma

**10.** XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va elchilik munosabatlarining rivojlanishi sabablarini aniqlang.

- 1) Xiva xonligi hududining o'rtaosiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilar uchun Kaspiy dengizi orqali boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi;
- 2) Raim istehkomining qurilishi;
- 3) turkmanlarning yovmut qabilasining Xiva xonligiga bo'ysundirilishi;
- 4) savdoning rivojlanishi davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi;
- 5) "Majburiyatlar akti"ning qabul qilinishi

A) 1, 4    B) 2, 3    C) 4, 5    D) 1, 2

**11.** 1952-yilda "Yevropa Mudofaa Hamkorligi" haqida shartnoma qaysi davlat poytaxtida imzolangan?

- A) Germaniya    B) Angliya    C) Fransiya    D) AQSh

**12.** XIX asrlarga kelib Buxoroda ichki va shaharlararo savdo amalga oshilgan tim va chorsular soni nechta bo'lgan?

- A) yettita    B) o'n ikkita    C) oltita    D) to'qqizta

**13.** Parij Kommunasi tomonidan amalga oshirilgan

chora-tadbirlarga quyidagilardan qaysilari mos kelishini belgilang.

1. Parijdan qochib ketgan T'yer hukumatini butunlay tugatdi.
2. Egallari tashlab ketgan korxonalar shu korxonada ishchilariga topshirildi.
3. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi.
4. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi.
5. Kommuna davlat xazinasini o'z qo'liga olib banklar ustidan nazorat o'rnatdi.
6. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddati kechiktirildi.
7. Xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralarini Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi.
8. Bepul tibbiy xizmat joriy qilindi.

A) 2, 3, 5, 7, 8    B) 2, 3, 4, 6, 7    C) 1, 4, 5, 6, 8  
 D) 1, 3, 4, 5, 6

**14.** Xitoyda to'rt asr davom etgan o'zaro urushlarga barham berilib, yagona davlatga birlashish qachon yuz bergan?

- A) VI asrning I yarmida    B) VI asrning II yarmida  
 C) V asrning I yarmida    D) IV asrning II yarmida

**15.** XVI asr o'rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bilan aloqalari qayerdan o'tgan?

- A) Germaniya    B) Oltin O'rda    C) Konstantinopol  
 D) Venetsiya

**16.** Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin O'zbekistonda barpo etilgan kimyo sanoati korxonalarini ular qurilgan yillari bilan muvofiqlashtiring.

- 1) Farg'ona azot o'g'iti zavodi;
- 2) Navoiy kimyo kombinati;
- 3) Olmaliq kimyo zavodi;

a) 1965-yil;    b) 1969-yil;    c) 1962-yil  
 A) 1-b, 2-a, 3-c    B) 1-a, 2-b, 3-c    C) 1-c, 2-a, 3-b  
 D) 1-c, 2-b, 3-a

**17.** Qo'qon xonligida oltin ma'dani qazib olingan joy nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Ko'krev daryosi    B) Qorasuvning janubi  
 C) Zarafshon daryosi quyi oqimi  
 D) Bobotog'ning shimoli

**18.** Turkistonda dastlabki rus qishlog'i va Buxoro amirligi hududida birinchi rus qishlog'i paydo bo'lgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) 1875, 1885-yillar    B) 1875, 1889-yillar  
 C) 1875, 1888-yillar    D) 1873, 1885-yillar

**19.** Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin Movarounnahrda toj-u taxt uchun kurashlarda kim g'alaba qozonib, Movarounnahr taxtini egallaydi?

- A) Halil Sulton ibn Mironshoh  
 B) Sulton Ahmad ibn Sulton Mahmud

- C) Abu Said Sulton Muhammad  
D) Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Muhammad
- 20.** Qadimgi yunonlar e'tiqodicha Artemida qanday xudo hisoblangan?  
A) donishmandlik B) dehqonchilik va hosildorlik  
C) o'rmonlar va ovchilik D) tongi shafaq
- 21.** Turkistondagi milliy-ozodlik harakati yo'l boshchilari ichida noyob qobiliyati bilan ajralib turuvchi Madaminbek Ahmadbek o'g'li bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni toping.  
1. 1918-yil martida unga musulmon qo'shinlarining bosh qo'mondoni unvoni berildi.  
2. Uning o'z "boshqaruv apparati", "tribunali" va "genshtabi" bo'lgan.  
3. 1919-yil yanvarida Marg'ilon uning qo'shinlari tomonidan egallandi.  
4. 1919-yil aprelda uning qo'shinlari Namangan va Qo'qon shaharlari atrofidagi janglarda g'olib kelishdi.  
5. 1919-yil yozida Monstrov boshchiligidagi rus krestyanlaridan tashkil topgan harbiy qismlar uning kuchlari bilan birlashdi.  
6. 1919-yil oktyabrda Andijondagi Oyimqishloqda uning tarafdorlari tomonidan "Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati" tuzildi.  
A) 2, 3, 4 B) 1, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5
- 22.** XIX asr oxirlarida Germaniya qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish va hosildorlikning ortishini ta'minlagan omillarni to'g'ri ko'rsating.  
1. Yunkerlar xo'jalik yuritishda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tdi.  
2. Chet el mutaxassislari qishloq xo'jaligiga keng jalb etildi.  
3. Qishloq xo'jaligida amerikacha yo'l qo'llanildi.  
4. Qishloq xo'jaligida qo'llash uchun yaratilgan texnikadan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.  
5. Keng miqyosda mineral o'g'itlardan foydalanishga o'tildi.  
6. Mustamlakalardan keltirilgan qullar mehnatidan foydalanildi.  
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 6 C) 1, 4, 5 D) 4, 5, 6
- 23.** AQSh ning birinchi prezidenti saylangan yilda . . .  
A) Fransiyada ta'sis majlisi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"ni qabul qildi.  
B) Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konsitutsiyasi e'lon qilindi  
C) Fransiyada monarxiya ag'darib tashlandi  
D) Fransiyada qonun chiqaruvchi majlis "Vatan havf ostida" chaqirig'i bilan xalqqa murojaat qildi
- 24.** Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?  
A) 1514-yilda B) 1516-yilda C) 1515-yilda  
D) 1517-yilda
- 25.** Akademik I.Mo'minov boshchiligida "Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi" asari qachon yaratilgan?  
A) 1997-yil B) 1976-yil C) 2002-yil D) 1962-yil
- 26.** "Risolai aziza" asarining muallifini aniqlang.  
A) Xo'ja Hofiz B) Nozir Sholikarov  
C) So'fi Olloyor D) Sadridin Ayniy
- 27.** Amir Temur . . . yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qilgan, . . . yilda esa Xorazm uzil-kesil bo'sundirilgan.  
A) 1373 / 1391 B) 1372 / 1388 C) 1371 / 1386  
D) 1374 / 1389
- 28.** Ivan IV oprichnina siyosatini bekor qilishga majbur bo'lgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.  
A) Humoyun Eron yordamida taxtni egalladi  
B) Genrix IV taxtga o'tirdi  
C) Utrext uniyasi imzolandi  
D) "Varfolomey tuni" voqeasi yuz berdi
- 29.** Yuz yillik urush natijasida Angliya . . . tashqari Fransiyadagi barcha yerlaridan mahrum bo'ldi.  
A) Bretaniyadan B) Kale portidan C) Burgundiyan  
D) Lotaringiyadan
- 30.** "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini bo'sundirgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.  
A) Qo'qon xonligida qo'zg'olon ko'tarildi.  
B) Buxoro amirligi taxtiga Amir Muzaffar o'tirdi.  
C) Qo'qon xonligi elchilari Xivaga keldi.  
D) Rossiyada krepostnoylik tuzumi bekor qilindi.
- 31.** Quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?  
A) XIX asrning I yarmida G'arbiy Yevropada o'rta qatlam vakillari orasida, ayniqsa, huquqshunoslar toifasi ajralib turardi.  
B) XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniya parlamenti jamoalar palatasining 652 a'zosidan 489 tasi yer mulkdorlari edi.  
C) XIX asrda G'arbiy Yevropa davlatlarida aristokratiya jamiyatda o'z mavqeini saqlab qola olmadi, ular boyligining asosiy qismini avvalgidek yer-mulklar emas, bank omonatlari tashkil etdi.  
D) 1906-1916-yillarda Buyuk Britaniya vazirlarining uchdan bir qismi elita bilim yurtlari bitiruvchilari edi.
- 32.** Qadimgi dunyoning urush xudolari nomini aniqlang.  
A) Aton, Ea, Femida B) Mars, Ishtar, Ares  
C) Yupiter, Zevs, Ares D) Mars, Ganesh, Ea
- 33.** Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qishloq jamoalari qanday tabaqalarga ajralib borganligini aniqlang.  
A) kadivar va chorvadorlar B) sudxo'r va kashovarlar  
C) sarkor va kashovarlar D) dehqon va kadivarlar



**34.** Qoraqalpoq xalqi tomonidan bunyod etilgan qal'a shaklidagi shaharlarni aniqlang.

- 1) Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a; 2) Jonbosqal'a, Tuproqqal'a; 3) Eshonqal'a; 4) Qo'yqirilganqal'a; 5) Janaqal'a, Ko'ko'zakqal'a.  
A) 2, 4, 5    B) 1, 2, 4    C) 2, 3, 4    D) 1, 3, 5

**35.** 1918-1920-yillar oralig'ida Ispaniya hukumati necha marotaba almashganligini toping.

- A) 10 marotaba    B) 3 marotaba    C) 5 marotaba  
D) 8 marotaba

**36.** Buyuk Alfred daniyaliklar bilan tinchlik sulhini tuzgan yilda. . .

- A) Amir ibn Lays Safforiylar davlati hukmdori bo'ldi.  
B) Sulton Sanjarga qarshi o'g'uzlar qo'zg'olon ko'tardi.  
C) Alptegin G'azna viloyati noibi bo'ldi.  
D) Nasr ibn Ahmad Somoniylar mulkini birlashtirdi.

### Variant-016

**1.** "Vatanparvarlik ittifoqi" deb nomlangan fashistik partiya tuzilgan davlatda 1986-yilda yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'ldi.  
B) Harbiy diktaturaga barham berildi.  
C) Liberal islohotchilar harakati boshlandi.  
D) Eng yirik mafiyachilar ustidan sud jarayoni boshlandi.

**2.** Fransiyada diniy urushlar davom etayotgan davrda katoliklarning fitnasiga ko'ra qaysi qirol olib qochilib, majburan monax qilindi?

- A) Navarralik Genrix    B) Genrix II    C) Genrix Giz  
D) Genrix III

**3.** Quyidagi qo'zg'olonlarni ularning bo'lib o'tgan sanalari bilan mos ravishda keltirilgan javobni aniqlang.

1. Boljuvon bekligidagi qo'zgon;  
2. Ko'lob bekligidagi qo'zg'olon;  
3. Kalif bekligidagi qo'zg'olon;  
4. Matyoqub pishiq qo'zg'oloni;  
5. Yetimxon qo'zg'oloni;  
a) 1902-yil; b) 1888-yil; c) 1885-yil; d) 1889-yil;  
e) 1878-yil  
A) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a, 5-e    B) 1-e, 2-b, 3-d, 4-c, 5-a  
C) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-e    D) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e

**4.** AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan birinchi o'rinni egallagan davrda yuz bergan voqeani toping.

- A) AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.  
B) Meksikada dehqonlar g'alayoni boshlandi.  
C) Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralari masalasida kelishuvga erishildi.  
D) Buyuk Britaniyaning jami mustamlaka hududlari 33 mln km<sup>2</sup>ni tashkil etdi.

**5.** Ilk o'rta asrlarga oid "kuhandiz" atamasi qanday ma'no anglatgan?

- A) shaharning hunarmandlar yashaydigan qismi  
B) shaharning hokim qasri joylashgan qismi  
C) shaharning savdogarlar do'konlari, hunarmandlar ustaxonalari, karvonsaroylar joylashgan qismi  
D) shaharning harbiy garnizon, harbiy omborlar joylashgan qismi

**6.** Germaniya Reyxstagi lyuterchi-knyazlar o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dini tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan yilda. . .

- A) Abdullaxon II Badaxshonni egalladi  
B) Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solindi  
C) Abdullaxon II tavallud topdi  
D) Shayboniy Abu Said taxtga o'tirdi

**7.** Buyuk Britaniya parlamenti hukumat tomonidan Irlandiyaga gomrul berish taklifini rad etgan yillar to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A) 1882-, 1905-yillar    B) 1905-, 1914-yillar  
C) 1886-, 1912-yillar    D) 1881-, 1886-yillar

**8.** Qo'qon xonligida oltin ma'dani qazib olingan joy nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Ko'krev daryosi    B) Zarafshon daryosi quyi oqimi  
C) Bobotog'ning shimoli    D) Qorasuvning janubi

**9.** Buxoro amirligida mavjud bo'lgan quyidagi lavozimlar ma'nosiga mos ravishda juftlangan javobni aniqlang.

- 1) devonbegi; 2) parvonachi; 3) mushrif; 4) sadr;  
a) harbiy qo'shin bosh sarkardasi hisoblangan;  
b) moliya-xazina ishlarini boshqargan, soliq undirilishi ustidan nazorat olib borgan;  
c) vaqf mulklarini boshqargan;  
d) xonga in'om etilgan buymlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan, soliq tushumlarini yozib borgan

- A) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c    B) 1 - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a  
C) 1 - d; 2 - a; 3 - b; 4 - c    D) 1 - a; 2 - b; 3 - d; 4 - c

**10.** XX asrning 60-yillarida Chexoslovakiya iqtisodiyotida bozor munosabatlarini joriy etish, jamiyatni demokratlashtirish rejasini e'lon qilgan siyosiy arbobni aniqlang.

- A) G.Gusak    B) A.Dubchek    C) K.Gotvald  
D) V.Gavel

**11.** Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi va birinchi gimnaziya ochilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) 1884-, 1896-yillar    B) 1889-, 1894-yillar  
C) 1884-, 1894-yillar    D) 1885-, 1911-yillar

**12.** RKP(b) MQ "Turkiston-Buxoro ishlari haqida" qaror qabul qilgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) Vitvatersrandeda qurolli qo'zg'olon kelib chiqdi.  
B) Kichik Antanta tashkil topdi.

C) Germaniya Lokarno shahrida "Reyn pakti"ni imzoladi.  
 D) Baltimor-Ogayo deb nomlangan reja qabul qilindi.

**13.** Quyidagi voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.  
 1) Rossiya va Shvetsiya o'rtasida hozirgi Ukraina hududida urush bo'lib, unda Rossiya g'alaba qozondi;  
 2) Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon bo'ldi va unga Mir Vaisxon rahbarlik qildi;  
 3) Rossiya va Fransiya o'rtasida "Tilzit shartnomasi" nomini olgan shartnoma imzolandi; 4) Rim Papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi.  
 A) 1, 3    B) 2, 4    C) 3, 4    D) 1, 2

**14.** Buyuk Britaniyaning quyidagi qaysi bosh vaziri davrida maktab islohoti o'tkazilgan?  
 A) D. Lloyd-Jorj    B) U. Gladston    C) B. Dizraeli  
 D) Mak-Magon

**15.** German qabilalaridan bo'lgan langobardlar qaysi hududda davlat tuzishgan?  
 A) Portugaliyada    B) Italiyada    C) Ispaniyada  
 D) Galliyada

**16.** Parij Kommunasi tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarga quyidagilardan qaysilari mos kelishini belgilang.  
 1. Parijdan qochib ketgan T'yer hukumatini butunlay tugatdi.  
 2. Egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxonada ishchilariga topshirildi.  
 3. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi.  
 4. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi.  
 5. Kommuna davlat xazinasini o'z qo'liga olib banklar ustidan nazorat o'rnatdi.  
 6. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddati kechiktirildi.  
 7. Xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralari Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi.  
 8. Bepul tibbiy xizmat joriy qilindi.  
 A) 2, 3, 5, 7, 8    B) 1, 4, 5, 6, 8    C) 1, 3, 4, 5, 6  
 D) 2, 3, 4, 6, 7

**17.** Oltin O'rda davlati o'z qudratining cho'qqisiga erishgan davrda. . .  
 A) Movarounnahr o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketdi  
 B) Temuriylar saltanati beqaror siyosiy vaziyatlar tufayli inqirozga yuz tutdi  
 C) Moskva knyazligi Oltin O'rdaga boj-yasoq to'lashdan bosh tortdi  
 D) Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi

**18.** XX asr boshlarida Ispaniyada mavjud yer maydonlarining uchdan ikki qismi kimlarga tegishli bo'lganligini ko'rsating.  
 A) yirik yer egalari va katolik cherkoviga  
 B) chet ellik sarmoyadorlarga  
 C) qirol xonadoni va katolik cherkoviga  
 D) ijarachi dehqonlarga

**19.** 1917-yil 25-dekabr kuni Qo'qonda bo'lib o'tgan o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarning favqulodda qurultoyi qanday shior ostida o'tkazildi?  
 A) Farg'ona vodiysida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish  
 B) Qo'qon muxtoriyatini tezlik bilan tugatish choralarini ko'rish va sovetlashtirishni jadallashtirish  
 C) Muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish  
 D) O'lkada sovet hokimiyati tuzumini mustahkamlash

**20.** O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti; 3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti  
 A) 1, 2, 3    B) 2, 3, 4    C) 3, 4, 5    D) 1, 3, 5

**21.** Xitoyda mo'g'ullarga qarshi xalq ozodlik harakatlari kuchaygan davrda yuz bergan voqeani aniqlang.  
 A) Germaniyaning shimolidagi shaharlar Ganza Ittifoqiga birlashdi.  
 B) Mali davlati butunlay inqirozga yuz tutdi.  
 C) Qo'ng'iroq so'fiylari Xorazmda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.  
 D) Inklar Kusko shahriga asos soldilar.

**22.** Xiva xonligida yerlarni ijaraga oluvchilar yer turiga qarab qanday atalgan?  
 1) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar; 2) xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar; 3) vaqf yerlarini ijaraga oluvchilar;  
 a) koranda; b) vaqfchi; c) bevan  
 A) 1 - c; 2 - b; 3 - a    B) 1 - a; 2 - b; 3 - c  
 C) 1 - c; 2 - a; 3 - b    D) 1 - a; 2 - c; 3 - b

**23.** Abulfayzxon hukmronligi davrida amalda mustaqil bo'lib olgan hududlarni ko'rsating.  
 1) Samarqand; 2) Toshkent; 3) Qarshi; 4) Shahrisabz; 5) Balx; 6) Hisor; 7) Farg'ona; 8) Badaxshon  
 A) 2, 4, 6, 7, 8    B) 1, 2, 4, 6, 7    C) 1, 2, 3, 5, 8  
 D) 1, 3, 5, 7, 8

**24.** Qoraqalpoq adabiyotida alohida o'rin tutgan "Qirq qiz" dostoni qaysi asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirilgan?  
 A) XIV-XVI asrlardagi    B) XVI-XVII asrlardagi  
 C) XVIII-XIX asrlardagi    D) XVII-XVIII asrlardagi

**25.** Ivan IV oprichnina siyosatini bekor qilishga majbur bo'lgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.

- A) Utrext uniyasi imzolandi  
 B) Humoyun Eron yordamida taxtni egalladi  
 C) Genrix IV taxtga o'tirdi  
 D) "Varfolomey tuni" voqeasi yuz berdi
- 26.** Amir Temur Tarozdan to Xo'tangacha bo'lgan hududlarni kimga suyurg'ol qilib bergan?  
 A) Ibrohim Sultonga B) Pirmuhammad Jahongirga  
 C) Mirzo Umar ibn Mironshohga D) Mirzo Ulug'bekka
- 27.** Germaniyada prezident P.Gindenburg tomonidan imzolangan va A.Gitlarga favqulodda vakolatlar bergan hujjatni aniqlang.  
 A) "Reyxstag faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi qonun  
 B) "Xalq va davlatni muhofaza qilish to'g'risida"gi dekret  
 C) "Milliy mehnatni tartibga solish to'g'risida"gi qonun  
 D) "Germaniya siyosiy partiyalari to'g'risida"gi qonun
- 28.** Qadimgi yunonlar Mesopotamiya deb atagan hududda qaysi davrga kelib Ur, Uruk, Lagash, Umma kabi shahar-davlatlar vujudga kela boshladi?  
 A) mil.avv. IV mingyillik boshlarida  
 B) mil.avv. I mingyillik boshlarida  
 C) mil.avv. III mingyillik oxirlarida  
 D) mil.avv. IV mingyillik oxirlarida
- 29.** Quyidagi tarixiy shaxslardan qaysi biri Shohbudoq sultonga otaliq qilgan amir hisoblanadi?  
 A) Boyshayx B) Murodshayx C) Hasan Murod  
 D) Muhammad Mazid
- 30.** Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi harakatlarini olib borishdagi harbiy markazini aniqlang.  
 A) 1852-yilda bosib olingan Oqmachit qal'asi  
 B) 1864-yilda bosib olingan Chimkent shahri  
 C) 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyati  
 D) 1847-yilda barpo etilgan Raim va Kopal istehkomlari
- 31.** Amir Temur davlatidagi qaysi lavozim harbiy lavozim hisoblanmagan?  
 A) aylboshi B) qo'shunboshi C) bakovul  
 D) xonsolar
- 32.** 1920-yilning aprelida Ispaniya hukumati tomonidan joriy etilgan tadbirlarni aniqlang.  
 1) 8 soatlik ish kuni; 2) kasaba uyushmalari tuzishga ruxsat berish; 3) ish haqini oshirish; 4) bolalar mehnati taqiqlash; 5) xotin-qizlar uchun 7 soatlik ish kuni; 6) qarilik va nogironlik sug'urtalari; 7) yakshanbani dam olish kuni deb belgilash  
 A) 2, 4, 6, 7 B) 1, 3, 4, 6 C) 1, 2, 5, 6 D) 2, 5, 6, 7
- 33.** Qadimgi dunyoning urush xudolari nomini aniqlang.  
 A) Aton, Ea, Femida B) Mars, Ganesh, Ea  
 C) Yupiter, Zevs, Ares D) Mars, Ishtar, Ares

**34.** Mashhur bolgar inqilobchisi V.Levski qatl etilgan va Xristo Botev halok bo'lgan yillar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) 1872-yil, 1876-yil B) 1871-yil, 1876-yil  
 C) 1870-yil, 1877-yil D) 1872-yil, 1875-yil

**35.** "Risolai aziza" asarining muallifini aniqlang.

- A) Sadridin Ayniy  
 B) Nozir Sholikarov  
 C) So'fi Olloyor D) Xo'ja Hofiz

**36.** "Avesto"ning 2700 yilligi keng nishonlangan yilni aniqlang.

- A) 2001 yil B) 2000 yil C) 2003 yil D) 2002 yil

#### Variant-017

**1.** 1919-yil Fransiya saylovlarida g'alaba qozongan "Milliy blok" saylovchilarga bergan va'dalarini bajarmaganligiga nima sabab bo'ldi?

- A) mustamlakalarda boshlangan milliy ozodlik harakatlari  
 B) jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi  
 C) Germaniya xavfining kuchayib ketishi  
 D) Milliy blokda boshlangan bo'linish

**2.** Xorazmda Afrig'iylar suloasi davrida qanday tasvirlar tushirilgan tangalar zarb etilgan?

- A) old tarafiga shoh surati, orqa tarafiga bars tasviri tushirilgan oltin tangalar  
 B) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalar  
 C) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan oltin tangalar  
 D) old tarafiga shoh surati, orqasiga malika tasviri tushirilgan kumush tangalar

**3.** Toshkent hokimligining Katta qozoq juzi ustidan nazoratni kuchaytirishi qaysi davlatning iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ydi?

- A) Qo'qon xonligining B) Sibir ma'muriyatining  
 C) Xiva xonligining D) Buxoro amirligining

**4.** Movarounnahr va Xorazmda o'zbek xalqi qaysi asrlarda shakllangan?

- A) XI-XIII asrlarda B) IX-XII asrlarda  
 C) VIII-IX asrlarda D) IV-VII asrlarda

**5.** Eshimxon boshchiligida qoraqalpoqlar davlati tashkil topgan davrda Qo'qon hukumdori bo'lgan shaxsni aniqlang.

- A) Olimxon B) Shohruxbiy C) Erdonabiy  
 D) Abdulkarimbiy

**6.** Fransiyada gotika uslubida bunyod etilgan ibodatxonalarni ko'rsating.

- 1) Ruan; 2) Milan; 3) Reyms; 4) Laax; 5) Bibi Maryam;  
 6) Shartr; 7) Avliyo Mark; 8) Axen  
 A) 2, 4, 5, 7 B) 5, 6, 7, 8 C) 1, 3, 5, 6  
 D) 1, 3, 4, 6



7. Fransiyada minimal ish haqi eng ko'p darajada oshirilib, saylovda qatnashish yoshi 20 dan 18 yoshga tushirilishi qaysi prezident davriga to'g'ri keladi?

- A) J.d'Esten B) N.Sarkozi C) F.Mitteran  
D) J.Shirak

8. Shayboniylarga amakivachcha bo'lgan ashtarxoniyalar qachondan boshlab Ashtarxon xonligida hukmronlik qila boshlagan?

- A) XVI asr o'rtalaridan B) XV asrning 20-yillaridan  
C) XIV asrning 80-yillaridan D) XVII asr boshlaridan

9. X.Kolumb ochgan qit'aga "Yangi dunyo" deb nom bergan dengizchi qayerlik edi?

- A) portugaliyalik B) italiyalik C) lotaringiyalik  
D) genuyalik

10. Quyidagi qaysi shaharda 1947-yilda agronomlar tayyorlaydigan uch yillik maktab tashkil etilgan?

- A) Farg'ona B) Toshkent C) Andijon  
D) Samarqand

11. Polsha davlatiga kim tomonidan qachon asos solingan?

- A) Vatslav, X asr boshlarida  
B) Svyatoslav, XI asrning boshlarida  
C) Meshko, X asrning o'rtalarida  
D) Bolislav, X asrning oxirlarida

12. 1934-yilda jamoaviy xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqqan mamlakatlarni eslang. Ulardan birining tarixida 1923-yil yanvarida sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Qizil Armiya Vladivostok shahrini egalladi.  
B) E.Telman boshchiligida Gamburgda qo'zg'olon ko'tarildi.  
C) Rur viloyatiga qo'shin kiritdi va uni bosib oldi.  
D) Lloyd-Jorj Bosh vazir lavozimidan iste'fo berdi.

13. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida faoliyat yuritgan amaldorlarning vazifalari mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) devonbegi; 2) mushrif; 3) muhtasib; 4) mirzaboshi;  
a) amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul hisoblangan;  
b) moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishini boshqargan; c) shariat qoidalarining bajarilishi va ularga amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan;  
d) soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borish bilan shug'ullangan  
A) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 - b B) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b  
C) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a D) 1 - b; 2 - d; 3 - c; 4 - a

14. XVI asrda Koreyada bosib olgan hududlarda bosqinchilarga qarshi kurashish uchun xalq qo'shinlarining harakatlariga kimning qo'mondonligi ostidagi koreys flotining g'alabalari dalda bo'lgan edi?

- A) De Junsan B) Li Song C) De Dmsu Yong  
D) Li Sun Sin

15. Mo'g'ul xoni Xubilay Xitoyni egallagach, bu yerda qaysi sulolaga asos solgan?

- A) Buyuk mo'g'ullar B) Xan C) Yuan D) Sin

16. O'zbekiston Respublikasida viloyat, tumanlarning chegarasini o'zgartirish qaysi organ roziligi asosida amalga oshiriladi?

- A) Oliy Majlis B) Prezident C) Vazirlar Mahkamasi  
D) Davlat Mulk qo'mitasi

17. Rus qo'shinlari Kattaqo'rg'onga hujum uyushtirishdan oldin Buxoro amirligining qaysi shahrida mahalliy aholining qarshiligiga duch kelgan?

- A) Samarqand B) Jizzax C) Zirabuloq D) Urgut

18. Turkistondagi sovet hokimiyati rahbarlari tomonidan Amudaryo bo'limida Xiva xonligi tuzumiga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan harbiy dastalarga kimlar boshchilik qilgan?

- A) N.A.Shaydulin va M.V.Frunze  
B) N.B.Sherbakov va N.K.Shomansurov  
C) Sh.Eliava va Kuybishev  
D) N.A.Shaydakov va N.M.Sherbakov

19. Quyidagi qurollar ilk bor qachon qo'llanilganligi sanasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) suv osti kemalari; 2) zaharli gaz (xlor); 3) tank;  
4) ognemyot;  
a) 1917-yil noyabr; b) 1916-yil iyul; c) 1915-yil may;  
d) 1915-yil aprel  
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d; B) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a;  
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d; D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a;

20. 1889-yil tashkil topgan Avstriya sotsial-demokratik partiyasi dasturida qanday talablar bor edi?

- 1) siyosiy erkinliklar joriy etish; 2) Germaniya bilan yaqinlashish; 3) parlamentni umumiy va teng ovoz berish yo'li bilan saylash to'g'risida qonun qabul qilish;  
4) cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish;  
5) antisemitizmni targ'ib qilish; 6) ish kunini qisqartirish.

- A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6 C) 3, 4, 5, 6  
D) 1, 2, 3, 4

21. AQShning mustamlakalar zabt etishga ishtiyoq bildirmasligining asosiy omillarini aniqlang.

- 1) juda katta hududga ega ekanligi; 2) harbiy jihatdan hali qoloqligi; 3) boy xomashyo zahiralari egaligi;  
4) mustamlakalardan katta foyda ola bilmasligi; 5) keng ichki bozorga ega bo'lganligi; 6) AQSh hukmron doiralarning harbiy kuch ishlatishga qarshiligi  
A) 1, 2, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) 3, 5, 6

22. Osiyoning qaysi davlatida ishga qabul qilishda «psixologik yondashuv»dan foydalaniladi, ya'ni umrbod ish bilan ta'minlash haqida shartnoma tuziladi?

- A) Hindiston B) Indoneziya C) Yaponiya  
D) Xitoy

23. Fransiya hukmron doiralari norozi bo'lgan Buyuk

Britaniya-Fransiya savdo shartnomasi qachon tuzilgan edi?

A) 1860-y. B) 1857-y. C) 1850-y. D) 1861-y.

**24.** Quyidagi kanallar ochilish yillari bo'yicha to'g'ri joylashtirilgan javobni aniqlang.

1) Suvaysh; 2) Panama; 3) Katta Farg'ona.

A) 2, 1, 3 B) 2, 3, 1 C) 1, 2, 3 D) 3, 1, 2

**25.** Shayboniyar hukmdori Abdullaxon II vafot etgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Nant edikti imzolandi.

B) Polyaklar Moskvani egalladi.

C) Rus podshosi Ivan IV vafot etdi.

D) Angliyada birinchi birja ochildi.

**26.** Quyidagi asarlardan qaysi biri Mir Olim Buxoriy tomonidan yozilgan?

A) "Fathnomayi sultoniy"

B) "Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqeahodisalarini bayoni"

C) "Shohnomayi nusratpoyon"

D) "Saralangan tarixlar"

**27.** XX asrning 30-yillarida Germaniya sarmoyalari Lotin Amerikasining quyidagi qaysi davlatlari iqtisodiyotiga joylashtirilgan?

1) Argentina; 2) Meksika; 3) Urugvay; 4) Braziliya;

5) Chili; 6) Peru; 7) Paragvay; 8) Kolumbiya

A) 1, 2, 5, 6 B) 4, 5, 6, 8 C) 2, 3, 6, 8

D) 1, 4, 5, 7

**28.** G'aznaviy hukmdorlar davriga mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Mahmud G'aznaviy; 2) Ma'sud G'aznaviy;

3) Alptegin; 4) Sobuqtegin;

a) mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqib, tanazzulga yuz tutdi; b) mamlakat hududi kengayib Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi;

c) G'aznaviy davlatiga asos solindi; d) mamlakatning siyosiy nufuzi ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etildi

A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b B) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

**29.** Faysal o'zini Suriya qiroli deb e'lon qilgan vaqtda jahon sahnasida bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.

A) Germaniyada monarxist B.Kapp va general Lyudendorf boshchiligida davlat to'ntarishi o'tkazish uchun isyon ko'tardilar.

B) Sovet davlati yangi iqtisodiy siyosat joriy etdi.

C) Fransiyada Milyeran boshchiligida "Milliy blok" hukumati tuzildi.

D) Buyuk Britaniya bosh vaziri Lloyd-Jorj iste'foga chiqdi.

**30.** Qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga bo'ysundirilishi qaysi voqeadan keyin nihoyasiga yetkazildi?

A) 1812-yilda Quvondaryo atrofida yashovchi qoraqalpoqlar bo'ysundirilgach

B) 1810-yilda Orol bo'yi o'zbeklari va Jana qal'a zabt etilgach

C) 1811-yilda Yangidaryo atrofida yashovchi qoraqalpoqlar bo'ysundirilgach

D) 1813-yil Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlarning bo'ysundirilishi bilan

**31.** Quyidagi qaysi shaharlar 1381-yilda Amir Temurga jangsiz taslim bo'lgan?

1) Hirot; 2) Saraxs; 3) Jom; 4) Seiston; 5) Qavsiya;

6) Sabzavor; 7) Balx

A) 2, 3, 5, 7 B) 3, 4, 5, 6 C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 3, 6

**32.** Buyuk Britaniya hukumati o'zining Markaziy Osiyo xonliklaridagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li sifatida nimaga ahamiyat qaratgan?

A) Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga

B) Markaziy O'siyo xonliklarini harbiy yo'l bilan o'z tasarrufiga o'tkazishga

C) Erondan platsdarm sifatida foydalanishga

D) Markaziy Osiyo xonliklari hududida istehkomlar qurishga

**33.** Prussiya qirolligida konstitutsiya joriy qilingan yilni toping.

A) 1848-yil B) 1847-yil C) 1846-yil D) 1849-yil

**34.** Ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlangan yilda quyidagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

A) Kushka shahri bosib olindi

B) Xitoy-Yaponiya urishi bo'lib o'tdi

C) Berlin kongressi chaqirildi

D) Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Amerika Respublikasiga birlashdi

**35.** Turkiston o'lkasining quyidagi viloyatlaridan Rossiyaga mardikorlikka olinganlarning soni mos ravishda korsatilgan javobni toping.

1) Sirdaryo; 2) Samarqand; 3) Farg'ona;

a) 38 ming; b) 50 ming; c) 87 ming

A) 1 - c; 2 - b; 3 - c B) 1 - c; 2 - a; 3 - b

C) 1 - a; 2 - c; 3 - b D) 1 - b; 2 - c; 3 - a

**36.** Qadimda Old Osiyodagi eng yirik, sopol taxtachalardan iborat kutubxona tashkil qilgan hukmdorni aniqlang.

A) Sargon I B) Oshshurbanipal C) Xammurapi

D) Navuxodonosor II

#### **Variant-018**

**1.** Kichik juz qozoqlari bilan Katta juz qozoqlari Rossiya tobeligiga o'tgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1739, 1747-yillar B) 1732, 1747-yillar

- C) 1739, 1740-yillar D) 1732, 1745-yillar
- 2.** XIX asrning oxirlarida Xitoy-Fransiya munosabatlarining yomonlashuviga nima sabab bo'lganini toping.  
A) Fransiya konsuliga uyushtirilgan fitna  
B) Fransiya tomonidan Vyetnamning bosib olinishi  
C) Afyun urushining kelib chiqishi  
D) Xitoy tomonidan bandargohlarning yopib qo'yilishi
- 3.** 1970-yilda qaysi davlatlar GFR bilan Yevropada tinchlikni mustahkamlashga katta hissa qo'shgan shartnomalar imzolagan?  
1) Yugoslaviya; 2) Polsha; 3) SSSR; 4) Ruminiya;  
5) Bolgariya; 6) Chexoslovakiya  
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 6 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 3
- 4.** XX asr boshlarida Fransiya pensiya haqida qonun qabul qilingan yilda Germaniya va Buyuk Britaniya pensiya yoshi necha yosh deb belgilangan edi?  
A) 70 B) 65 C) 55 D) 60
- 5.** Buyuk Britaniya hukumati o'zining Markaziy Osiyo xonliklaridagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li sifatida nimaga ahamiyat qaratgan?  
A) Erondan platsdarm sifatida foydalanishga  
B) Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga  
C) Markaziy Osiyo xonliklarini harbiy yo'l bilan o'z tasarrufiga o'tkazishga  
D) Markaziy Osiyo xonliklari hududida istehkomlar qurishga
- 6.** Ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniyaning dunyo siyosatidagi o'rni alohida 3 yo'nalishda bajargan vazifasi bilan belgilanadigan bo'ldi. Bular. . .  
1) xalqaro maydonda AQSh ning asosiy ittifoqchisiga aylanishi va shu maqomda dunyoning muhim muammolarini hal etishda qatnashishi; 2) xalqaro maydonda G'arbiy Yevropa davlatlariga bosh bo'lib dunyoning muhim muammolarini hal etishda qatnashishi; 3) G'arbning yetakchi davlatlaridan biri bo'lib qolishi; 4) G'arbning yetakchi davlatlari safidan tushib qolishi; 5) Hamdo'stlik mamlakatlari boshlig'i bo'lishi.  
A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 5
- 7.** Xiva xonligida kimlar bevtan deb atalgan?  
A) qoraqalpoqlar  
B) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar  
C) ko'chmanchi qozoq chorvadorlari  
D) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari
- 8.** Afg'oniston o'z mustaqilligiga erishgan vaqtda Buyuk Britaniya bosh vaziri lavozimini egallab turgan shaxsni aniqlang.  
A) R.Makdonald B) D.Lloyd-Jorj C) S.Bolduin  
D) B.Lou

- 9.** XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida faoliyat yuritgan amaldorlarning vazifalari mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.  
1) devonbegi; 2) mushrif; 3) muhtasib; 4) mirzaboshi;  
a) amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul hisoblangan;  
b) moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishini boshqargan; c) shariat qoidalarining bajarilishi va ularga amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan; d) soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borish bilan shug'ullangan  
A) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a B) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b  
C) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 - b D) 1 - b; 2 - d; 3 - c; 4 - a
- 10.** XIX asrlarga kelib Buxoroda ichki va shaharlararo savdo amalga oshilgan tim va chorsular soni nechta bo'lgan?  
A) o'n ikkita B) to'qqizta C) oltita D) yettita
- 11.** Mashxad-Seraxs-Tajan temiryo'l liniyasi qurilgan davrni aniqlang.  
A) 1991-1996-yillar B) 1994-1996-yillar  
C) 1993-1996-yillar D) 1992-1996-yillar
- 12.** Sho'royi Islomiyanning tashabbusi bilan Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqirilgan vaqtda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.  
A) Brest tinchlik shartnomasi imzolandi.  
B) Ruminiya va Antanta davlatlari o'rtasida shartnoma imzolandi.  
C) Sovet davlati "Sulh to'g'risida"gi dekretni qabul qildi.  
D) Nivel qirg'ini yuz berdi.
- 13.** Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan qaysi asarda ta'kidlanishicha xonlikda xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan?  
A) "Saralangan tarixlar" B) "Tarixi Toshqand"  
C) "Tarixi Rashidiy" D) "Tarixi Turkiston"
- 14.** Xiva xonligida faoliyat yuritgan Oliy Kengash majlislari qancha muddatda o'tkazilgan?  
A) oyiga uch marta B) haftasiga bir marta  
C) oyiga bir marta D) oyiga ikki marta
- 15.** Bolgariyaning Turkiyadan mustaqil davlat deb e'lon qilingani va hokimiyat tepasiga germanparast kuchlar kelgan yillar to'g'ri berilgan javobni toping.  
A) 1908, 1912-yillar B) 1908, 1913-yillar  
C) 1896, 1913-yillar D) 1890, 1910-yillar
- 16.** Kiyev knyazi Vladimir nima sababdan o'z o'g'li Yaroslavga qarshi yurishga tayyorgarlik ko'rganligini aniqlang.  
A) bijanak qabilalari bilan ittifoq tuzganligi uchun  
B) Kiyevning qipchoqlarga qarshi urushida harbiy yordam ko'rsatmaganligi uchun  
C) Vladimiri Kiyev taxtidan tushirish uchun fitna tayyorlaganligi uchun  
D) Kiyevga boj to'lashdan bosh tortganligi uchun



**17.** Ikki jahon urushi oralig'ida Uzoq Sharqda Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya munosabatlari keskinlashgan maydonga aylangan hududni toping.  
A) Xitoy B) Primorye o'lkasi C) Mo'g'uliston  
D) Tinch okeani orollari

**18.** Sopollitepa manzilgohi qaysi davrga oid?  
A) mil.avv. 4-mingyillikka B) mil.avv. 2-mingyillikka  
C) mil.avv. 3-mingyillikka D) mil.avv. 1-mingyillikka

**19.** Andijondagi Dukchi eshon qo'zg'oloni tufayli lavozimidan chetlashtirilgan A.Vrevskiy o'rniga kim Turkiston general-gubernatori etib tayinlandi?  
A) A.Samsonov B) S.Duxovskoy C) A.Kuropatkin  
D) K.Kaufman

**20.** Ikkinchi jahon urushidan keyin Samarqand qishloq xo'jaligi institutida ishlab turgan bir yillik malaka oshirish kurslarida kimlar o'qitilganligini toping.  
A) Zveno boshliqlari va brigadirlar  
B) Kolxoz raislari va brigadirlar  
C) MTS larning katta mexaniklari  
D) MTS direktorlari va tuman qishloq xo'jalik bo'limi mudirlari

**21.** Quyidagi qaysi oliy o'quv yurtlari XX asrning 70-yillarida tashkil etilgan?  
A) Toshkent elektrotexnika aloqa va Toshkent fizkultura institutlari  
B) Toshkent pediatriya va Andijon tillar pedagogika instituti  
C) Andijon paxtachilik va Sirdaryo pedagogika institutlari  
D) Nukus davlat universiteti va Toshkent avtomobil yo'llar instituti

**22.** Turkmanlarga qarshi jangda temuriy hukmdor Abu Said (1469-yil) halok bo'lgan vaqtda turkmanlar egallab turgan viloyatlarni aniqlang.  
A) Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlar  
B) Janubiy Eron, Tabriz va Sultoniyagacha bo'lgan viloyatlar  
C) Panjob, Kobul va G'aznagacha bo'lgan viloyatlar  
D) Ozarbayjon, Gurjiston va Armanistongacha bo'lgan viloyatlar

**23.** Yevropa davlatlarining Afrikadagi mustamlakachilik siyosati tufayli Kongo hududlari quyidagi qaysi davlatlarning mustamlakasiga aylandi?  
1) Buyuk Britaniya; 2) Belgiya; 3) Fransiya;  
4) Gollandiya; 5) Portugaliya; 6) Germaniya  
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 4 D) 3, 4, 5

**24.** Xorazmni bosqinchilardan himoya qilishga otlangan Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib borguniga qadar qaysi shaharlarda mo'g'ullarga qaqshatqich zarbalar bergan?  
1) Marv; 2) Niso; 3) Hirot; 4) Qandahor; 5) Nishopur  
A) 1, 4 B) 3, 5 C) 2, 4 D) 3, 4

**25.** Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?

A) Buyuk Alfred B) Richard II  
C) Amrosiy Avrelian D) Genrix VI

**26.** Qadimgi Rimning qaysi shaharlarida Yer osti xudosi Osiris va Quyosh xudosi Amon-Ra sharafiga ibodatxonalar qurilgan?

A) Baolbek, Abidos B) Ur, Uruk C) Suza, Memfis  
D) Xattusa, Memfis

**27.** 1996-yilda Shoh Muzaffariddin tasdiqlagan Eron Konstitutsiyasining birinchi qismida shohga qanday huquqlar berilganligi ko'rsatilgan javobni toping.

1) barcha qonunlarni tasdiqlash; 2) qonunlar o'rniga oliy farmonlar chiqarish; 3) byudjet qabul qilish; 4) byudjet ijrosi ustidan nazorat qilish; 5) vazirlarni lavozimiga tayinlash; 6) majlis chaqirish va uning faoliyatini to'xtatish

A) 1, 3, 4 B) 2, 5, 6 C) 1, 2, 5 D) 3, 5, 6

**28.** Yevropaning kuchli mustamlakachi davlatlari tomonidan afrikaliklarni qullikka sotish qachongacha davom etgan?

A) XIX asr o'rtalarigacha B) XIX asr boshlarigacha  
C) XVIII asr o'rtalarigacha D) XX asr boshlarigacha

**29.** O'zbekistonning ta'lim muassasalariga ko'mak berayotgan JAICA - Xalqaro hamkorlik agentligi qaysi davlatga qarashli?

A) Yaponiya B) Fransiya C) Koreya  
D) Germaniya

**30.** Angliyada Genrix VIII Tyudor hukmronligi boshlangan yilda Movarounnahrda hukmronlik qilib turgan sulolani aniqlang.

A) Mang'itlar B) Shayboniylar C) Ashtarxoniylar  
D) Temuriylar

**31.** Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi va birinchi gimnaziya ochilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1889-, 1894-yillar B) 1884-, 1894-yillar  
C) 1885-, 1911-yillar D) 1884-, 1896-yillar

**32.** Turklar Yoyiq va Itil bo'ylarini zabt etgan davrda Sosoniylar davlatini boshqargan hukmdorni aniqlang.

A) Peruz B) Kubod C) Xusrav I Anushervon  
D) Shopur II

**33.** Fransiya monarxiya ag'darilib, qirol Lyudovik XVI qatl qilingan yilda . . .

A) Nepal davlati Sin sulolasiga vassallikni majburan tan oldi

B) Rossiyada Ye.Pugachyov boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi

C) Eronda Zend qabilasi o'z o'rnini Qojarlar sulolasiga bo'shatib berdi

D) Yaponiyada Tokugava sulolasining eng mashhur arbobi Yosimune hukmronligi tugadi

34. Quyidagi voqealarni bo'lib o'tgan yillari bilan muvofiqlashtiring.

- 1) "Uchlar Ittifoqi"ning vujudga kelishi;
- 2) Germaniyaning imperiya deb e'lon qilinishi;
- 3) Braziliyada qullarning ozod qilinishi;
- 4) Fransiyada Uchinchi respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

a) 1875-y.; b) 1888-y.; c) 1871-y.; d) 1882-y.

A) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c      B) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b

C) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d      D) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a

35. Quyidagi o'rta asrlarga oid me'moriy yodgorliklar qaysi uslubda yaratilganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Al-Hamro saroyi; 2) Laax ibodatxonasi; 3) Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi; 4) Avliyo Mark ibodatxonasi.

a) vizantiya uslubi; b) gotika uslubi; c) roman uslubi; d) arab uslubi.

A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d      B) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a

C) 1-d; 2-a; 3-c; 4-b      D) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c

36. Lotin Amerikasi davlatlariga yordam berishga qaratilgan "Taraqqiyot yo'lidagi ittifoq" dasturining tashabbuskori bo'lgan AQSh prezidentini aniqlang.

- A) D.Eyzenxauer      B) R.Nikson      C) J.Kennedi
- D) L.Jonson

#### Variant-019

1. Quyida berilgan voqealardan bir yilda bo'lib o'tganlarini toping.

- 1) BXSР Konstitutsiyasi qabul qilindi.
- 2) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topdi.
- 3) O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzildi.
- 4) IV Butun Xorazm qurultoyida respublikaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

5) Moskvaga ma'qul kelmagani uchun P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo'lgan XXSR hukumati tarkibi bekor qilindi

A) 2, 3, 4      B) 1, 3, 4      C) 1, 2, 5      D) 3, 4, 5

2. Milliy istiqlol yillaridagi O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi hamkorligi bilan bo'g'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) 1992-yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida imzolangan shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi.
- 2) 2005-yil dekabrda Rossiya rahbari V.Putinning O'zbekistonga tashrifi chog'ida "Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim" imzolandi.
- 3) 2004-yil 16-iyunda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 15-moddadan iborat "Strategik sherikchilik to'g'risida bitim" imzolandi.

4) 2010-yil 19-20-aprel kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Rossiya Prezidenti V.Putin taklifiga ko'ra Moskvaga tashrif buyurdi.

A) 1, 3      B) 2, 4      C) 1, 2      D) 3, 4

3. Quyidagilardan qaysi biri qirol Yonchjon davrida e'lon qilingan?

1. Dehqonlarning katta yer egalariga shaxsiy qaramligining bekor qilinishi;
2. Qul ayolning farzandi ozod inson bo'lishi haqidagi deklaratsiya;
3. Mamlakatda ayollarning og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanishining qat'iy man etilishi;
4. Qul ayolning nevarasi ozod inson bo'lishi haqidagi deklaratsiya;
5. Mamlakatda katta yer egaligining tugatilishi va barcha yerlarning davlat tasarrufiga olinishi.

A) 2, 3      B) 1, 4      C) 2, 5      D) 1, 3

4. 1936-yilning avgust oyida Misr va Buyuk Britaniya o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, inglizlarga Qohira va Aleksandriya shaharlarida qanday huquq berildi?

- A) Buyuk Britaniya qonunlari bo'yicha boshqarish
- B) bojsiz savdo qilish
- C) o'z armiyasini saqlash
- D) Buyuk Britaniya hukumati tromonidan gubernator tayinlash

5. Quyidagi qaysi voqealar bir yilda sodir bo'lgan?

- 1) Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'ldilar.
- 2) Fransiyada konsullik deb ataluvchi hukumat tuzildi.
- 3) Yaponiyada Yosimune hukmronligi boshlandi.
- 4) Toshkent hokimi Yunusxo'ja vafot etdi.
- 5) Angliya va Shotlandiya o'rtasida uniya qonuniylashtirildi

A) 2, 4      B) 1, 5      C) 3, 5      D) 1, 4

6. Rossiya imperatori tomonidan Bolgariya davlat boshlig'i sifatida taklif etilgan A.Battenberg taxtdan voz kechishga majbur qilinganidan keyin necha yil o'tib Rossiya-Bolgariya munosabatlari tiklandi?

A) 5 yil      B) 15 yil      C) 20 yil      D) 10 yil

7. Amir Temur . . . yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qilgan, . . . yilda esa Xorazm uzil-kesil bo'ysundirilgan.

A) 1373 / 1391      B) 1374 / 1389      C) 1372 / 1388

D) 1371 / 1386

8. Turkiston general-gubernatori bosh qo'mondonlikdan tashqari yana qanday lavozimni egallagan?

A) bosh vazir      B) bosh sudya      C) xazinabon

D) politsiya boshlig'i

9. Buyuk Britaniya tarixida Parlamentning vakolati 5 yil qilib belgilanib, deputatlarga maosh to'lash joriy etilgan yilda . . .

- A) Eron inqilobining ikkinchi davri boshlandi  
 B) Yaponiya Koreya yarimorolini kuch bilan o'ziga qo'shib oldi  
 C) Sun Yat Sen Xitoyga qaytib kelgach, Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat Millat Majlisi to'pladi  
 D) ingliz mustamlakachilari Bengaliyani ikki qismga bo'lib tashladi

**10.** Butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga erishgan Babil podshosini aniqlang. (mil. avv. XVIII asr)

- A) Xammurapi B) Sargon I C) Gilgamesh  
 D) Navuxodonosor II

**11.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda tuzilgan, milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda katta rol o'ynagan zaxiradagi diviziyani toping.

- A) 258-o'qchi diviziya B) Panfilov diviziyasi  
 C) 353-o'qchi diviziya D) 24-o'qchi diviziya

**12.** Mashhur bolgar inqilobchisi V.Levski qatl etilgan va Xristo Botev halok bo'lgan yillar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) 1870-yil, 1877-yil B) 1872-yil, 1876-yil  
 C) 1871-yil, 1876-yil D) 1872-yil, 1875-yil

**13.** AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan birinchi o'rinni egallagan davrda yuz bergan voqeani toping.

- A) Meksikada dehqonlar g'alayoni boshlandi.  
 B) AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.  
 C) Buyuk Britaniyaning jami mustamlaka hududlari 33 mln km<sup>2</sup>ni tashkil etdi.  
 D) Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralari masalasida kelishuvga erishildi.

**14.** 786-809-yillar davomida Arab xalifaligini kim boshqargan?

- A) Umar ibn Abdulaziz B) Ma'mun  
 C) Horun ar-Rashid D) Marvon II

**15.** Amir Temur davlatidagi qaysi lavozim harbiy lavozim hisoblanmagan?

- A) xonsolar B) bakovul C) qo'shunchi  
 D) aylboshi

**16.** XII asrda Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida "Faqihlar madrasasi" qurilgan asrga oid ma'lumotni aniqlang.

- A) Islom olamidagi birinchi madrasa Farjak bunyod etildi  
 B) Yevropaning yirik shaharlarida oliy maktab - universitetlar ochila boshladi.  
 C) Kitob chiqarishda qog'ozdan keng foydalanila boshlandi.  
 D) Buxoro "Qubbat ul-Islom" - "Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topdi.

**17.** Buxoro amirligida qanday soliq turlari faqat pul bilan olingan?

- 1) xiroj; 2) tanobona; 3) juz'ya; 4) zakot; 5) ushr;  
 6) qo'sh puli  
 A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 2, 3, 6

**18.** Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan "Tarixi Turkiston" asari qayerda nashr etilgan?

- A) Toshkentda B) Namanganda C) Marg'ilonda  
 D) Qo'qonda

**19.** Italiyada demokratiyaning barcha ko'rinishlari, jumladan, parlament ham tugatilgan davrni toping.

- A) XX asr 30-yillari B) XX asr boshi  
 C) XX asr 20-yillari D) XX asr o'rtalari

**20.** Qaysi davlat tarixda "Tonggi tarovat" nomini olgan?

- A) Qadimgi Choson (ilk Koreys) davlati  
 B) Ilk o'rta asrdagi Yapon davlati  
 C) Qadimgi Xitoy davlati  
 D) Qadimgi Xorazm davlati

**21.** Bir yilda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan javobni belgilang.

- A) O'rta Osiyo iqtisodiy Kengashi tuzildi. Germaniyada V.Kuno boshchiligidagi hukumat millatchilik g'oyalarini avj oldirdi.  
 B) O'zbek musiqa teatriga asos solindi. AQSh Kongressi "Fermerlarga yordam haqida" qonun qabul qildi.  
 C) Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi e'lon qilindi. Turkiyada xalifalik tugatildi.  
 D) Xivada Xorazm Kompartiyasining ta'sis konferensiyasi bo'ldi. Afg'onistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

**22.** Ma'lumki, 1882-yilda Italiya Avstriya-Vengriya-Germaniya ittifoqiga qo'shiladi. Bunga nima sabab bo'ldi?

- A) Italiya iqtisodiyotini inqirozdan chiqarish maqsadida Germaniyaning yordam berishi  
 B) Germaniya tomonidan katta-katta mustamlakalarga va'da berilishi  
 C) Fransiya bilan munosabatining keskinlashuvi  
 D) Italiyada inqilobning kuchayishi

**23.** Xiva hududlarida Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi yillari oralig'i to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) 1881-1885-yillar B) 1885-1887-yillar  
 C) 1883-1886-yillar D) 1881-1888-yillar

**24.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo'lish vaqti Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi?  
 1) Fransiya Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;  
 2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste'foga



- chiqishi;
- 3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi;
- 4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o'ringa ko'tarilishi;
- 5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi
- A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 5 D) 1, 3, 5
- 25.** Turkiyada nechanchi yillarda harbiy to'ntarish bo'lib o'tgan?
- 1) 1960-yil; 2) 1966-yil; 3) 1971-yil; 4) 1975-yil; 5) 1978-yil
- A) 3, 5 B) 2, 4 C) 2, 5 D) 1, 3
- 26.** Quyidagi AQSh prezidentlarining prezidentlik davri bilan bog'liq voqealar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) G.Trumen; 2) D.Eyzenxauer; 3) L.Jonson; 4) R.Nikson;
- a) televizor ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; b) SSSRga birinchi bo'lib yadro zarbasi berish maqsadini ko'zlovchi doktrina e'lon qilindi; c) kam daromadli oilalarga yordam berish to'g'risida qonun qabul qilindi; d) mamlakatga olib kelinadigan tovarlar uchun 10%lik boj to'lovi joriy qilindi
- A) 1 - d; 2 - b; 3 - c; 4 - a B) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d  
C) 1 - c; 2 - d; 3 - a; 4 - b D) 1 - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d
- 27.** Akbarshoh tomonidan Hindiston shimolidagi Sind va Kashmirning egallanishini Buxoro xonligi Hindistonning Shayboniylar davlatining . . . chegarasiga yaqinlashuvi deb hisoblaganlar.
- A) sharqiy B) janubiy C) shimoliy D) g'arbiy
- 28.** Xitoyda Min sulolasi boshqaruvi davrida qaysi davlat bilan munosabatlari buzilgan? (XV asr boshi)
- A) Yaponiyadagi Asikaga sulolasi bilan  
B) Dehli sultonligi bilan  
C) Amir Temur saltanti bilan  
D) Oltin O'rda xonligi bilan
- 29.** Movarounnahr va Xorazmda o'zbek xalqi qaysi asrlarda shakllangan?
- A) IX-XII asrlarda B) IV-VII asrlarda  
C) XI-XIII asrlarda D) VIII-IX asrlarda
- 30.** Turkistondagi sovet hokimiyati rahbarlari tomonidan Amudaryo bo'limida Xiva xonligi tuzumiga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan harbiy dastalarga kimlar boshchilik qilgan?
- A) N.B.Sherbakov va N.K.Shomansurov  
B) Sh.Eliava va Kuybishev  
C) N.A.Shaydakov va N.M.Sherbakov  
D) N.A.Shayduln va M.V.Frunze
- 31.** Buyuk Britaniya 1997-yilda Xitoyga qaytarib bergan hududni aniqlang.
- A) Gonkong B) Sindao C) Taypey D) Xaynan

- 32.** Miloddan avvalgi III asrda Shimoliy Afrika sohillari, Sardiniya, Korsika orollarini o'z ichiga olgan qadimgi davlatni toping.
- A) Misr B) Rim C) Finikiya D) Karfagen
- 33.** XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o'ralgan bo'lib, oltita darvozasi mavjud edi. Ushbu darvozalar nomlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) Urgut; 2) Buxoro; 3) Paykobod; 4) Qarshi; 5) Shohizinda; 6) Qalandarxona; 7) So'zangaron; 8) Xo'ja Ahror; 9) Registon
- A) 1, 3, 5, 6, 8, 9 B) 2, 3, 5, 6, 7, 8  
C) 2, 4, 5, 6, 7, 9 D) 1, 3, 4, 5, 6, 8
- 34.** Mustaqil Afg'oniston davlati qachon tashkil topgan?
- A) 1749-y. B) 1748-y. C) 1746-y. D) 1747-y.
- 35.** Quyidagi javoblardan XIX asrning I yarmida ijod qilgan, burjuaziya jamiyatini haqqoniy tasvirlashda beqiyos bo'lgan fransiyalik yozuvchini toping.
- A) O.Balzak B) P.Bomarshe C) F.Shiller  
D) J.Svift
- 36.** 1827-yilda Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim qayerda imzolangan?
- A) Istanbulda B) Parijda C) Afinada  
D) Londonda

#### Variant-020

- 1.** 1915-yil 26-aprelda qaysi shaharda Italiya va Antanta o'rtasida shartnoma imzolandi?
- A) Moskva B) London C) Milan D) Parij
- 2.** O'rta asrlar Yevropa universitetlarining ular tashkil topgan davlatlar bilan to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
- 1) Italiya; 2) Ispaniya; 3) Fransiya; 4) Angliya;  
a) Oksford; b) Tuluza; c) Bolonya; d) Seviliya
- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
- 3.** Sug'd ixshidlari ittifoqiga (ilk o'rta asrlar) qaysi vohalarning o'n bitta yirik mulklari kirgan?
- A) Buxoro, Chag'oniyon, Ustrushona  
B) Samarqand, Buxoro, Kesh  
C) Samarqand, Naxshab, Kesh  
D) Poykand, Naxshab, Kesh
- 4.** Xorazmni bosqinchilardan himoya qilishga otlangan Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib borguniga qadar qaysi shaharlarda mo'g'ullarga qaqshatqich zarbalar bergan?
- 1) Marv; 2) Niso; 3) Hirot; 4) Qandahor; 5) Nishopur
- A) 2, 4 B) 3, 5 C) 1, 4 D) 3, 4
- 5.** Buyuk Britaniyada birinchi "Milliy besh yillik iqtisodiy dasturi" qachon qabul qilindi?

A) 1965-yilda B) 1963-yilda C) 1962-yilda  
D) 1964-yilda

**6.** Yaponiyada qishloq xo'jaligi sohasida islohotlar o'tkazilib, yerni erkin oldi-sotti qilishga, istalgan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berilgan davrda quyidagi qaysi voqea sodir bo'ldi?

1. Ural kazaklari hozirgi Qoraqalpog'iston hududlariga surgun qilindi.

2. Kaspiyorti viloyati tashkil topdi.

3. "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risida Nizom" loyihasi qabul qilindi.

4. AQSh Kongressi Janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy avf berish to'g'risida qonun qabul qildi.

5. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi.

A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

**7.** Janubiy Irlandiya Mustaqil davlat deb e'lon qilingan yil sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) "Antikomintern pakti"ga Italiya qo'shildi

B) Yaponiya va Sovet davlati o'rtasida harbiy to'qnashuv yuz berdi

C) Yaponiya Mo'g'ulistonga hujum qildi

D) Italiyada ishlab chiqarishning pasayishi to'xtadi

**8.** Rossiya tarixiga doir quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1. V.Plexanov rahbarligida "Mehnatni ozod qilish guruhi" tuzildi.

2. Peterburgda "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tuzildi.

3. II Davlat dumasiga saylov o'tkazildi.

4. Rossiyadagi barcha sotsial-demokratik guruhlar "Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi" deb atalgan partiyaga birlashdi.

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4, 3 C) 1, 3, 2, 4

D) 2, 1, 4, 3

**9.** Hindistonda sipohiy qo'zg'olonchilar qaysi Boburiy hukmdorni hind xalqini mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga chorlovchi chaqiriqni imzolashga majbur etdi?

A) Bahodirshoh I B) Muzaffarshoh

C) Bahodirshoh II D) Rameshvaran

**10.** Eron shohi Nodir Quli o'ldirilgan yilda . . .

A) taxt uchun uzoq davom etgan kurashlardan so'ng Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi

B) afg'on qabila xonlarining jirg'asi afg'onlarning abdali qabilasi sardori Ahmadxonni Afg'oniston shohi deb e'lon qildi

C) Qandahor xonligi hukmdori Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi

D) Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida ingliz-afg'on do'stlik shartnomasi imzolandi

**11.** Rus qo'shinlari Xo'jand qal'asini qamal qilib, egallagan yilda tarixda yana qanday voqea sodir bo'lgan?

A) Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom loyihasi qabul qilindi.

B) Erjar qishlog'i yaqinida Buxoro amiri va chor Rossiyasi qo'shinlari o'rtasida jang bo'ldi.

C) Zirabuloq shartnomasi imzolandi.

D) Zarafshon okrugi tashkil etildi.

**12.** Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni talab qilgan va Buyuk Britaniya hukumati irlandlarga "Yer-suv akti"ni taklif etgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1879-, 1881-yillar B) 1875-, 1881-yillar

C) 1875-, 1882-yillar D) 1881-, 1886-yillar

**13.** IV asrning o'rtalarida xion qabilalarining O'rta Osiyoga hujumi qaysi hududlardan boshlanganligini aniqlang.

A) Yettisuv va Sharqiy Turkistondan

B) Oltoy va Yettisuvdan

C) Xorazm va Sirdaryo bo'ylaridan

D) Yettisuv va Sirdaryo bo'ylaridan

**14.** O'rta asrlarda mavjud bo'lgan Mali davlati tarixiga oid quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri joylashtiring.

1) o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi; 2) feodal tarqoqlik va sulolaviy nizolar sababli zaiflashdi;

3) butunlay inqirozga uchrab parchalandi; 4) davlat sifatida vujudga keldi; 5) aholisi islomni qabul qildi;

a) XV asr; b) VIII asr; c) XIII asr; d) XI asr;

e) XIV asr oxiri

A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d, 5-e B) 1-c, 2-e, 3-a, 4-b, 5-d

C) 1-c, 2-e, 3-a, 4-d, 5-b D) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c, 5-e

**15.** Quyidagi davlatlarning 1875-1900-yillar oralig'ida chet ellarda joylashtirgan kapitallarining o'sishi mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

1) Buyuk Britaniya; 2) Fransiya; 3) Germaniya;

a) 7,5 baravar; b) 2 baravar; c) 2,25 baravar

A) 1 - b; 2 - c; 3 - a B) 1 - b; 2 - a; 3 - c

C) 1 - a; 2 - c; 3 - b D) 1 - c; 2 - b; 3 - a

**16.** Manbalarda qayd etilishicha, Muhammad Shayboniyxon Eron safaviylariga qarshi kurash to'g'risida Turk sultonlaridan kim bilan shartnoma tuzgan?

A) Boyazid II B) Mexmed VI C) Murod II

D) Sulton Salim

**17.** Toshkentda "Qo'shchi" uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tgan vaqtda jahon sahnasida bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Antanta davlatlari va mag'lub Avstriya o'rtasida Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida shartnoma imzolandi.

B) Xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni cheklovchi "Beshlar shartnomasi" imzolandi.  
 C) Antanta davlatlari va mag'lub Turkiya o'rtasida Sevr shartnomasi imzolandi.  
 D) Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolatlari to'g'risidagi "To'rtlar shartnomasi" imzolandi.

**18.** Quyidagi qaysi voqea Qo'qon xonligida Muhammad Alixon hukmronlik qilgan yillar oralig'ida sodir bo'lgan?

- A) Eron shohi Nodirshoh ichki ziddiyatlar oqibatida o'ldirildi.  
 B) Lion to'qimachilari qo'zg'olon ko'tardilar.  
 C) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat qabul qilindi.  
 D) Xitoyda II afyun urushi bo'lib o'tdi.

**19.** Hozirda Shanxay hamkorlik tashkiloti nomi bilan tanilgan tashkilot dastlab qanday atalgan?

- A) «Iqtisodiy forum»      B) «Shanxay forumi»  
 C) «Shanxay muloqoti»      D) «Shanxay sammiti»

**20.** 1941-45-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida qurilgan zavodlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Xilkovo zement zavodi; 2) Quvasoy kimyo zavodi;  
 3) Quvasoy zement zavodi; 4) Qo'qon superfosfat zavodi; 5) Bekobod metallurgiya zavodi; 6) Farg'ona gidroliz zavodi  
 A) 1, 3, 4, 6      B) 2, 4, 5, 6      C) 1, 2, 3, 4  
 D) 3, 4, 5, 6

**21.** 1895-yilda qaysi davlatlarda elektr dvigatel yordamida harakatlanadigan tramvaylardan foydalanila boshlandi?

- A) Angliya, AQSh      B) AQSh, Fransiya  
 C) Germaniya, Fransiya      D) Angliya, Germaniya

**22.** Quyidagilar orasidan Afrikada mahalliy aholiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan golland, fransuz va nemis mustamlakachilarining avlodlari tomonidan tuzilgan davlatlarni aniqlang.

- 1) Monroviya; 2) Liberiya; 3) Kap; 4) Erkin Oranj;  
 5) Gvineya; 6) Transvaal; 7) Angola; 8) Mozambik  
 A) 7, 8      B) 4, 6      C) 3, 5      D) 1, 2

**23.** Anglosakson solnomasi qaysi hukmdor davrida tuzila boshlangan?

- A) Genrix VI      B) Richard II      C) Amrosiy Avrelian  
 D) Buyuk Alfred

**24.** XX asrning 30-yillarida qaysi davlatda siyosiy partiya davlat xizmatini bajaruvchi fuqaro militsiyasiga aylandi?

- A) Germaniyada      B) Ispaniyada      C) Fransiyada  
 D) Italiyada

**25.** Abdullaxon II vafotidan necha yil o'tib Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?

- A) 3      B) 6      C) 1      D) 5

**26.** Tarixdan ma'lumki, Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Buxoro taxtiga eng munosib nomzod Jonibek Sulton bo'lib qoladi. Lekin u kimning foydasiga taxtdan voz kechadi?

- A) Imomqulixon      B) Din Muhammad  
 C) Vali Muhammad      D) Boqi Muhammad

**27.** Buxoroda "Tarbiyai atfol" jamiyati tashkil etilgan vaqtda jahon tarixida sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.

- 1) Meksikada Prezidentlik saylovi o'tkazildi.  
 2) Rossiyada saylov to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. 3) Yaponiya Koreya yarimrolini harbiy kuch bilan o'ziga qo'shib oldi. 4) "Hindiston kengashlari haqida qonun" nomli hujjat qabul qilindi.  
 5) Eron taxtiga Muhammad Alishoh o'tirdi.  
 6) Janubiy Afrika Ittifoqi tashkil topdi.  
 A) 3, 4, 6      B) 1, 3, 6      C) 1, 3, 5      D) 2, 4, 5

**28.** Qo'ng'iroq qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin inoqlik lavozimiga ko'tarilgan vaqtda Qo'qon xonligi taxtini boshqargan hukmdorni aniqlang.

- A) Abdulkarimbiy      B) Olimbek      C) Erdonabiy  
 D) Norbo'tabiy

**29.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning qaysi shaharlarida yangi teatrlar ochilgan edi?

- A) Qo'qon va Buxoro      B) Xiva va Qarshi  
 C) Andijon va Toshkent      D) Samarqand va Nukus

**30.** "Mehnat xartiyasi" nomli hujjat qabul qilingan mamlakat tarixida 1861-yilda sodir bo'lgan voqeani toping.

- A) Krepostnoylik huquqi bekor qilindi.  
 B) Poytaxtida Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.  
 C) Fuqarolar urushi boshlandi.  
 D) Birlashgan qirollik tashkil topdi.

**31.** Reyn kafolat paktidan norozi bo'lgan sovet davlati quyidagi qaysi davlatlar bilan betaraflik to'g'risida shartnoma imzoladi?

- 1) Germaniya; 2) Eron; 3) Turkiya; 4) Litva;  
 5) Mo'g'uliston; 6) Afg'oniston; 7) Finlandiya  
 A) 1, 3, 4, 6      B) 2, 3, 6, 7      C) 2, 5, 6, 7      D) 1, 2, 5, 6

**32.** ANZYUS harbiy siyosiy bloki tuzilganda uning tarkibiga qaysi davlatlar kirgan?

- 1) Avstraliya; 2) Pokiston; 3) Fransiya; 4) Yangi Zelandiya; 5) Buyuk Britaniya; 6) AQSh  
 A) 1, 4, 6      B) 4, 5, 6      C) 2, 3, 4      D) 2, 5, 6

**33.** B.G.Tilak qaysi shaharda mustaqil o'rta maktab tashkil qilgan?

- A) Bombey      B) Kalkutta      C) Puna      D) Kesari

**34.** 1517-yilda Qohira shahrini egallagan hukmdorni aniqlang.

- A) Ismoil Safaviy      B) Sulton Salim I  
 C) Muhammad Shayboniyxon      D) shoh Taxmasp



35. Buxoro hukmdori Abulfayzxon Peterburgga o'z elchilarini yuborgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.

- A) Xiva elchisi Xo'ja Nafas Astraxanda bo'ldi.
- B) Rossiya hukumati tomonidan Florio Beneveni Buxoroga elchi qilib yuborildi.
- C) Ivan Buxgols qo'shini Toboldan Irtish bo'ylab Yorkentga yo'l oldi.
- D) Bekovich-Cherkasskiy qo'shini Xiva hududlariga kirib keldi va harbiy to'qnashuvlar bo'ldi.

36. Hindiston hukmdori Shohjahon davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan bo'lib, bu nima bilan bog'liq?

- A) Hindiston savdogarlarining erkin savdo qilish imkoni yo'qligi va ularning buxorolik qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilinishi bilan bog'liq
- B) Hindiston bilan Afg'oniston o'rtasida kelishmovchiliklarda Buxoroning Afg'oniston tomonida turishi bilan bog'liq
- C) Buxoro xoni Nodirmuhammad va uning o'g'li Abdullaziz o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq
- D) Buxoro hukmdorining Hindiston hukmdori bilan o'zaro quda-andachilik aloqalari o'rnatish taklifini rad etishi bilan bog'liq

#### Variant-021

1. Ma'lumki, 1905-yilda Eronida inqilobiy harakat boshlangan edi. Qo'zg'olon ko'targan aholi qanday talabni ilgari surganligini aniqlang.

- A) barcha fuqorolarga teng saylov huquqini berish
- B) yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratish va ijara yerlaridan olinadigan soliqlarni kamaytirish
- C) butun mamlakat sanoati tarmoqlariga xo'jayinlik qilayotgan rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborish
- D) yirik mulkdor qatlamlarning daromadlarini hisobga olish va soliqqa tortish

2. Xorazmda Afrig'iyalar suloasi davrida qanday tasvirlar tushirilgan tangalar zarb etilgan?

- A) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalar
- B) old tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan oltin tangalar
- C) old tarafiga shoh surati, orqa tarafiga bars tasviri tushirilgan oltin tangalar
- D) old tarafiga shoh surati, orqasiga malika tasviri tushirilgan kumush tangalar

3. Shayboniylar hukmdori Abdullaxon II vafot etgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) Nant edikti imzolandi.
- B) Angliyada birinchi birja ochildi.
- C) Rus podshosi Ivan IV vafot etdi.

D) Polyaklar Moskvani egalladi.

4. 1902-yilda quyidagi qaysi davrlarlar o'rtasida shartnoma va bitimlar imzolangan?

- 1) Italiya va Fransiya; 2) Rossiya va Yaponiya; 3) Buyuk Britaniya va Yaponiya; 4) Buyuk Britaniya va Fransiya

- A) 1, 3      B) 2, 3      C) 1, 4      D) 2, 4

5. Chig'atoy ulusi davriga oid me'moriy obidalarni aniqlang.

- 1) To'rabekxonim maqbarasi; 2) Bayonqulixon maqbarasi; 3) Nomozgoh masjidi; 4) Ernazar elchi madrasasi.

- A) 3, 4      B) 1, 2      C) 1, 4      D) 2, 3

6. Tarixdan ma'lumki, Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Buxoro taxtiga eng munosib nomzod Jonibek Sulton bo'lib qoladi. Lekin u kimning foydasiga taxtdan voz kechadi?

- A) Vali Muhammad      B) Imomqulixon
- C) Din Muhammad      D) Boqi Muhammad

7. Makedoniyalik Aleksandr bosib olingan shaharlarda nima maqsadda yunonlarni joylashtirgan?

- A) ushbu hududlarda o'ziga tayanch bo'ladigan zodagonlar toifasini shakllantirish
- B) bosib olingan hududlarda yunon davlatlarini barpo etish
- C) mahalliy xalqlarni qirib yuborish
- D) ulkan hududda yunon madaniyatining tarqalishiga imkon yaratish

8. Arablar tomonidan Xuroson deb atalgan hudud yerlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Hozirgi Afg'oniston, Eronning sharqiy qismi, qisman Pokiston, Kaspiy dengizning sharqi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar
- B) Hozirgi Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy qismi, Pokistonning shimoliy qismi hamda Sind yerlaridan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar
- C) Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar
- D) Hozirgi Afg'onistonning sharqiy, Eronning sharqiy qismi, shimoliy Pokiston hamda markaziy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar

9. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya tarixiga oid ma'lumotlardan to'g'rilarini toping.

- 1. Rossiya imperiyasi tarkibida 100 ga yaqin millat va elat vakillari yashardi.
- 2. Rossiya iqtisodiy taraqqiyotiga xos xususiyat, bu - Rossiyaga chetdan kapital kiritishdan ko'ra, chetga kapital chiqarishning ustunligi edi.

3. Rossiya sanoatiga qo'yilgan chet el kapitalining asosiy qismi Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri kelardi.  
4. Rossiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish ham o'sgan bo'lib, asosiy eksport mahsuloti g'alla edi.

5. Rossiya neft qazib chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi.

A) 3, 4    B) 4, 5    C) 2, 3    D) 1, 2

10. Menokal (1916-1920) quyidagi qaysi davlat rahbari bo'lgan?

A) Meksika    B) Argentina    C) Braziliya    D) Kuba

11. Tropik Afrikada joylashgan Nyasalend qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?

A) Ispaniya    B) Belgiya    C) Fransiya    D) Buyuk Britaniya

12. XVIII asrda Zarafshon daryosidan chiqarilgan (3-4 chaqirim uzunlikdagi) ariqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1) Xurmo; 2) Qozonariq; 3) Toyman; 4) To'g'uzariq;  
5) Sarazm; 6) Oqariq

A) 1, 5    B) 1, 2    C) 3, 6    D) 2, 4

13. Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi;

2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi;

3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi;

4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi;

5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi;

6) qalmaq va oyratlarga qarshi

A) 1, 5, 6    B) 2, 3, 4    C) 2, 3, 6    D) 1, 3, 4

14. Quyidagi tarixiy asarlardan qaysi biri Munis Xorazmiyga tegishli bo'lib, uni Ogahiy nihoyasiga yetkazgan?

A) "Riyo'z ud-davla"    B) "Firdavs ul-iqbol"  
C) "Shohidi iqbol"    D) "Zubdat ut-tavorix"

15. "G'alabadan xabar beruvchi shohnoma" asarining muallifini toping.

A) Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon

B) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy

C) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy

D) Mulla Ali qori Qunduziy

16. Nechanchi asrdan boshlab G'arbiy Yevropada usti yopiq bozorlar qurilishi keng avj olgan?

A) XVII asrdan    B) XIV asrdan    C) XVI asrdan  
D) XV asrdan

17. Toshkentda "Qo'shchi" uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tgan vaqtda jahon sahnasida bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Xalqaro munosabatlar tarixida qurollanishni cheklovchi "Beshlar shartnomasi" imzolandi.

B) Antanta davlatlari va mag'lub Turkiya o'rtasida Sevr shartnomasi imzolandi.

C) Tinch okeanidagi qaram orollar va mulklar xavfsizligining kafolatlari to'g'risidagi "To'rtlar shartnomasi" imzolandi.

D) Antanta davlatlari va mag'lub Avstriya o'rtasida Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida shartnoma imzolandi.

18. Quyidagi qaysi davlatda protestant ruhoniylarni ko'chirish jarayonida 1989-yil 17-dekabrda g'alayonlar kelib chiqdi va ular qurol yordamida bostirildi?

A) Yugoslaviya    B) Bolgariya    C) Polsha  
D) Ruminiya

19. XX asrning 20-yillarida Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiga xos xususiyatlar to'g'ri berilgan javobni toping.

1) qishloqda latifundiyachilar zo'rvonligi; 2) qisman qullar mehnatidan foydalanish; 3) ishlab chiqarishning asosan tashqi bozor ehtiyojlariga moslashib qolganligi; 4) yagona ichki bozorning yo'qligi; 5) chet el kapitaliga qaramlik; 6) yerlarning dehqonlarga taqsimlab berilishi  
A) 1, 3, 5    B) 1, 2, 6    C) 2, 4, 5    D) 1, 4, 6

20. Kanada marokashliklar hukmronligiga qachon chek qo'yildi?

A) 1087-yilda    B) 1173-yilda    C) 1076-yilda  
D) 1097-yilda

21. Hindistonda bo'ysunmaslik harakatining ikkinchi bosqichi boshlangan yilni ko'rsating.

A) 1932-yil    B) 1934-yil    C) 1930-yil    D) 1933-yil

22. Buxoro amirligi tashqi savdo aloqalariga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysilari to'g'ri keltirilgan?

1) Orenburgda 1804-yilda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 200 ta xonadon istiqomat qilgan;

2) Buxoro amirligining qozoqlar bilan savdo aloqalarida qirg'izlar vositachilik qilgan;

3) 1844-yilda Buxoro amirligining Markaziy Osiyo-Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 25 foizni tashkil etdi;

4) Orenburgda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilganidan 21 yil o'tib unda istiqomat qilayotgan xonadonlar soni 30 ta bo'ldi

A) 3, 4    B) 2, 4    C) 1, 2    D) 1, 3

23. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda tuzilgan, milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda katta rol o'ynagan zaxiradagi diviziyani toping.

A) 24-o'qchi diviziya    B) 353-o'qchi diviziya  
C) Panfilov diviziyasi    D) 258-o'qchi diviziya

24. Quyida keltirilgan ma'lumotlardan to'g'risini aniqlang.

1) "Marshall rejasi"ga ko'ra AQSh 1948-1952-yillar oralig'ida G'arb davlatlariga 13 mlrd dollar miqdorida yordam ko'rsatdi.

2) 1999-yilning dekabr oyida YHning a'zolari qurolli kuchlarni tuzish haqida qaror qabul qildilar.

3) XX asr 80-yillari oxirlariga kelib Yevropa Hamjamiyatiga a'zo 15 ta davlatning 13 tasida hukumatni sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar vakillari boshqardi;

4) XX asrning 20-40-yillarida totalitar taraqqiyot modelining mavqei kuchli bo'ldi.

5) 2008-yilda Yevropa liderlari Fransiya, Italiya va Ispaniya yangi "O'rtayer dengizi ittifoqi" tashkloti tuzilganligini e'lon qildilar.

A) 1, 3, 4    B) 1, 2, 4    C) 2, 4, 5    D) 1, 2, 3

**25.** O'rta asrlarda Angliyada qaram dehqonlar qachon va qanday tartibda ozodlikka chiqarilgan?

A) mamlakatda qo'shimcha jon solig'i joriy etilishi bilan

B) XVI asrda qirol farmoniga ko'ra

C) XV asrda to'lov evaziga

D) XV asrda qo'zg'olondan so'ng

**26.** O'zbekistonning ta'lim muassasalariga ko'mak berayotgan JAIKA - Xalqaro hamkorlik agentligi qaysi davlatga qarashli?

A) Yaponiya

B) Fransiya

C) Koreya

D) Germaniya

**27.** Qirol Yonchjon hukmronligi tugagan yilda quyidagi qaysi voqea sodir bo'lgan?

A) AQSh mustaqillikka erishdi

B) Rossiya va Turkiya o'rtasida Kuchukqaynarji shartnomasi

imzolandi

C) "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat qabul qilindi

D) Sin sulolasi Nepalni bosib oldi

**28.** Xitoyliklar selitradan porox olishni ixtiro qilgan asrda quyidagi qaysi voqea yuz berdi?

A) Buxoro "Qubbat ul-Islom" nomi bilan shuhrat topdi.

B) Buxoroda musulmonlarning ilk ilmgohi - Farjak madrasasi bunyod etildi.

C) Movarounnahrda yerdan foydalanishning iqto tartibi juda keng yoyilib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylandi.

D) Yettisuvda qarluqlar davlati tashkil topdi.

**29.** Safaviylar sulolasi vakillaridan qaysi birining hukmronligi davrida yirik yer-mulk egalarning mustaqilligi tugatilib, davlat o'z qudratining cho'qqisiga erishdi?

A) Taxmasp

B) Sulton Husayn

C) Ismoil I

D) Abbas I

**30.** Turkiston o'lkasining quyidagi viloyatlaridan Rossiyaga mardikorlikka olinganlarning soni mos ravishda korsatilgan javobni toping.

1) Sirdaryo; 2) Samarqand; 3) Farg'ona;

a) 38 ming; b) 50 ming; c) 87 ming

A) 1 - b; 2 - c; 3 - a    B) 1 - c; 2 - a; 3 - b

C) 1 - a; 2 - c; 3 - b    D) 1 - c; 2 - b; 3 - c

**31.** Qo'qon xonligida me'morchilik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

1) Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir,

Abulg'ozixo'ja kabi me'morlar o'zlari bunyod etgan inshootlari bilan mashhur bo'lgan va ular xattotlik san'ati namunalari bilan bezatilgan.

2) Norbo'tabiy madrasasi XVIII asrning o'rtalarida bunyod etilgan.

3) Daxmayi Shohon maqbarasi XIX asrning I choragida qurilgan.

4) Umarxon Turkiston va uning atroflarini Orolbo'yidan Yettisuvgacha egallab, Avliyoota, Pishpak, Oqmachit qal'alarini bunyod etdi.

5) Daxmayi Shohonda xonning otasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi ham joylashgan.

A) 2, 5    B) 1, 2, 4    C) 1, 3, 5    D) 3, 4

**32.** AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan birinchi o'rinni egallagan davrda yuz bergan voqeani toping.

A) Buyuk Britaniyaning jami mustamlaka hududlari 33 mln km<sup>2</sup>ni tashkil etdi.

B) Meksikada dehqonlar g'alayoni boshlandi.

C) AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi.

D) Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralari masalasida kelishuvga erishildi.

**33.** Ma'lumki, XIX asr o'rtalarida Markaziy Osiyoda uchta xonlik mavjud bo'lib, ular ma'muriy jihatdan beklklarga bo'lingan. Xonliklar tarkibidagi beklklilar soni to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Buxoro amirligi; 2) Xiva xonligi; 3) Qo'qon xonligi;

a) 18 ta; b) 27 ta; c) 15 ta

A) 1 - b; 2 - a; 3 - c    B) 1 - a; 2 - c; 3 - b

C) 1 - b; 2 - c; 3 - a    D) 1 - c; 2 - a; 3 - b

**34.** Germaniya imperiyasi tarixida nechanchi yildan boshlab yakshanba dam olish kuni deb belgilandi?

A) 1891-yildan

B) 1890-yildan

C) 1889-yildan

D) 1892-yildan

**35.** Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin Movarounnahrda toj-u taxt uchun kurashlarda kim g'alaba qozonib, Movarounnahr taxtini egallaydi?

A) Abu Said Sulton Muhammad

B) Halil Sulton ibn Mironshoh

C) Sulton Ahmad ibn Sulton Mahmud

D) Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Muhammad



36. Qadimgi Xitoy tarixchilari qayerni Ansi deb keltirishgan?  
A) Ershini B) Eronni C) Antioxni D) Baqtriyani

**Variant-022**

1. 1944-yil yanvar oyida gitlerchilar harbiy asirlardan tuzilgan "Turkiston legioni" otryadini qaysi hududdagi partizanlarga qarshi jangga soladilar?

A) Polshadagi B) Belorussiyadagi C) Bolgariyadagi D) Chernogoriyadagi

2. Sho'royi Islomiyaning tashabbusi bilan Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqirilgan vaqtda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Nivel qirg'ini yuz berdi.  
B) Ruminiya va Antanta davlatlari o'rtasida shartnoma imzolandi.

C) Brest tinchlik shartnomasi imzolandi.  
D) Sovet davlati "Sulh to'g'risida"gi dekretni qabul qildi.

3. Xiva xonligida tashkil etilgan Kichik Kengash tarkibiga qaysi amaldorlar kiritilgan?

1) xon; 2) qozikalon; 3) mehtar; 4) qo'shbegi; 5) naqib; 6) devonbegi; 7) otaliq; 8) shayxulislom; 9) bey  
A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 B) 1, 3, 4, 5, 6, 8 C) 2, 3, 5, 7, 8, 9 D) 1, 2, 4, 5, 7, 9

4. Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxonning ijoddagi taxallusi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) "Jondullo" B) "Ubayda" C) "Qul Ubaydiy" D) "Kulliyot"

5. Qoraqalpog'iston poytaxtini respublikamizning temir yo'l tarmog'i bilan bog'lagan Taxiatosh-Nukus yo'nalishi qachon ishga tushirilgan?

A) 1975-yilda B) 1962-yilda C) 1957-yilda D) 1969-yilda

6. XVIII asrda Zarafshon daryosidan chiqarilgan (3-4 chaqirim uzunlikdagi) ariqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1) Xurmo; 2) Qozonariq; 3) Toyman; 4) To'g'uzariq; 5) Sarazm; 6) Oqariq  
A) 1, 2 B) 2, 4 C) 3, 6 D) 1, 5

7. 1941-45-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida qurilgan zavodlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Xilkovo zement zavodi; 2) Quvasoy kimyo zavodi; 3) Quvasoy zement zavodi; 4) Qo'qon superfosfat zavodi; 5) Bekobod metallurgiya zavodi; 6) Farg'ona gidroliz zavodi  
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 4, 5, 6 D) 3, 4, 5, 6

8. Platon Afina akademiyasiga asos solgan davrda tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Xorazmiylar Ahamoniylar istibdodidan ozod bo'ldi.  
B) Avesto 21 ta kitobga jamlangan.

C) Xorazmning qadimgi shahri Jonbosqal'a vujudga kelgan.

D) Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylandi.

9. Pyotr I davrida tuzilgan Senatga qanday vakolatlar yuklatilganligini aniqlang.

A) qonunlar ijrosi ustidan nazorat yuritish va gubernatorlarni lavozimlariga tayinlash  
B) qonun loyihalarini tayyorlash, senat a'zolarini saralash va boyarlar dumasiga hisobot berish  
C) qonun loyihalarini tayyorlash va davlat muassasalari faoliyatini nazorat qilish  
D) boyarlar dumasi va davlat muassasalari faoliyati hamda qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish

10. AQShning quyidagi prezidentlari tomonidan ilgari surilgan dasturlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

1) R.Reygan; 2) G.Trumen; 3) L.Jonson; 4) J.Kennedi;  
a) "Adolatli yo'l"; b) "Apollon"; c) "Buyuk jamiyat"; d) Strategik mudofaa tashabbusi  
A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d  
C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b D) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b

11. Amir Temur davlatidagi qaysi lavozim harbiy lavozim hisoblanmagan?

A) bakovul B) qo'shnboshi C) xonsolar D) aylboshi

12. Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilingan yili sodir bo'lgan voqeani toping.

A) Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi.

B) Rossiya O'rta Osiyo xonliklariga olib boradigan yo'lda ikkita istehkom qurdi.

C) Yaponiyadagi AQSh fuqarolariga eksterritoriallik huquqi berildi.

D) Hindistonda sipohilar qo'zg'oloni boshlandi.

13. Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?

A) 1515-yilda B) 1517-yilda C) 1516-yilda D) 1514-yilda

14. Milliy istiqlol yillaridagi O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi hamkorligi bilan bo'g'liq to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) 1992-yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida imzolangan shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi.

2) 2005-yil dekabrda Rossiya rahbari V.Putinning O'zbekistonga tashrifi chog'ida "Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim" imzolandi.

3) 2004-yil 16-iyunda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 15-moddadan iborat "Strategik sherikchilik to'g'risida bitim" imzolandi.

4) 2010-yil 19-20-aprel kunlari O'zbekiston Prezidenti

I. Karimov Rossiya Prezidenti V. Putin taklifiga ko'ra Moskvaga tashrif buyurdi.

- A) 1, 2      B) 2, 4      C) 3, 4      D) 1, 3

**15.** Angliyada kontrreformatsiya yuz bergan vaqtda Vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) Vali Muhammad hukmronligi boshlandi.  
B) Abdullaxon II Balx va Samarqandni egalladi.  
C) Abdullaxon II Buxoro taxtini amalda egalladi.  
D) Imomqulixon Toshkent yerlarini qozoqlardan xalos etdi.

**16.** Movarounnahr va Xurosonda yer egaligining qaysi shakli XI-XII asrlarda kengayib, mulkchilikning asosiy shakliga aylandi?

- A) vaqf      B) tanho      C) mulki xos      D) iqto

**17.** Parij Kommunasini tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarga quyidagilardan qaysilari mos kelishini belgilang.

1. Parijdan qochib ketgan T'yer hukumatini butunlay tugatdi.
  2. Egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxonaga ishchilariga topshirildi.
  3. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi.
  4. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi.
  5. Kommuna davlat xazinasini o'z qo'liga olib banklar ustidan nazorat o'rnatdi.
  6. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddati kechiktirildi.
  7. Xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralari Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi.
  8. Bepul tibbiy xizmat joriy qilindi.
- A) 1, 3, 4, 5, 6      B) 1, 4, 5, 6, 8      C) 2, 3, 4, 6, 7  
D) 2, 3, 5, 7, 8

**18.** Buyuk Britaniyada kimning davrida "narx-navo va daromadlar" siyosati bekor qilindi?

(XX asrning II yarmi)

- A) E. Xit      B) A. Iden      C) G. Vilson  
D) T. Vilson

**19.** 1881-yilda Fransiya tomonidan qayerning bosib olinishi yangi mustamlakalar bosib olish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi?

- A) Tunis      B) Jazoir      C) Sudan      D) Misr

**20.** Quyida berilganlar orasidan bir yilda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni aniqlang.

- 1) Yirik harbiy ittifoq - "Uchlar Ittifoqi"ning tuzilishi;
- 2) Shovinistik tashkilot - "German Ittifoqi"ning tuzilishi;
- 3) Fransiya-Rossiya o'rtasida ittifoq bitimining tuzilishi;
- 4) Otto fon Bismarkning iste'foga chiqishi;
- 5) Vilgelm II ning Germaniya imperiyasi taxtiga o'tirishi

- A) 4, 5      B) 2, 3      C) 1, 3      D) 3, 4

**21.** Rus podshosi tomonidan "Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" tasdiqlanganidan yangi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan yillar oralig'i to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) 1867-1886-yillar      B) 1865-1886-yillar  
C) 1866-1876-yillar      D) 1876-1886-yillar

**22.** 1723-yilda Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallab oladi va bu qaramlik qachongacha davom etadi?

- A) 1756-yilgacha      B) 1785-yilgacha  
C) 1784-yilgacha      D) 1758-yilgacha

**23.** Xitoyda yozuv uchun bambuk o'rnida shoyi matodan foydalanishga o'tilgan davrda Yunoniston tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Drakont qonunlari e'lon qilindi.  
B) Teatr dunyoga keldi.  
C) Ibadatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etila boshlandi.  
D) Yunon-Makedon urushi bo'lib o'tdi.

**24.** Qadimgi Spartada shaxsan ozod bo'lgan, ammo to'la huquqlarga ega bo'lmagan kishilar qanday atalgan?

- A) goplitlar      B) ilotlar      C) meteklar      D) perieklar

**25.** Xiva xonligida faoliyat yuritgan Oliy Kengash majlislari qancha muddatda o'tkazilgan?

- A) oyiga bir marta      B) haftasiga bir marta  
C) oyiga ikki marta      D) oyiga uch marta

**26.** 1945-yil fevralda qaysi davlatning Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilishi unga Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sis konferensiyasida qatnashish huquqini berdi?

- A) Braziliya      B) Iroq      C) Meksika      D) Misr

**27.** Xiva xonligida mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lgan amaldorlarni belgilang.

- A) qoshbegi va mushrif      B) mehtar va otaliq  
C) devonbegi va naqib      D) mehtar va qo'shbegi

**28.** Quyidagi madrasalarni ular barpo etilgan yillar bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Muhammad Aminxon;
- 2) Muhammad Rahimxon;
- 3) Hazrati Kalon Sohibzoda;
- 4) Hokim Oyim;
- 5) Sulton Murodbek;

a) 1862-yil; b) 1871-yil; c) 1851-1855-yillar;  
d) 1869-1870-yillar; e) 1872-yil

- A) 1 - c; 2 - a; 3 - d; 4 - e; 5 - b  
B) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d; 5 - e  
C) 1 - e; 2 - b; 3 - a; 4 - c; 5 - d  
D) 1 - b; 2 - a; 3 - d; 4 - c; 5 - e

**29.** XII asrda Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida "Faqihlar madrasasi" qurilgan asrga oid ma'lumotni aniqlang.

- A) Islom olamidagi birinchi madrasa Farjak bunyod etildi  
 B) Kitob chiqarishda qog'ozdan keng foydalanila boshlandi.  
 C) Buxoro "Qubbat ul-Islom" - "Islom dinining gumbazi" nomi bilan shuhrat topdi.  
 D) Yevropaning yirik shaharlarida oliy maktab - universitetlar ochila boshladi.

**30.** Birinchi jahon urushi yillarida rus podshosi farmoni bilan Turkiston o'lkasidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan aholining qaysi qismi urushga safarbar etilgan?

- A) mahalliy aholi vakillari  
 B) ham mahalliy, ham yevropalik qismi vakillari  
 C) aholining yevropalik qismi vakillari  
 D) aholining uyg'ur va yahudiylerden iborat qismi

**31.** Quyidagi qaysi tarixchi(lar) tomonidan Somoniylar davlatida boshqaruv, asosan, 10 ta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan?

- A) Sharafiddin Ali Yazdiy B) Juzjoniy C) Narshaxiy  
 D) Ibn Havqal va Ishtahriy

**32.** Quyidagilardan Potsdam konferensiyasi qarorlariga muvofiq keladigan javobni toping.

- A) Germaniya to'lashi lozim bo'lgan tovon pulining 22 foizi SSSRga berilishi  
 B) Germaniyaning yaxlit davlat bo'lib qolishi  
 C) Sharqiy Prussiyaning sohil bo'yi, Kenigsberg shahri Polshaga berilishi  
 D) Germaniya chegarasini 1939-yilgi holatiga qisqartirilishi

**33.** Janubi-Sharqiy Osiyo mudofaasi (SEATO) to'g'risidagi shartnomani imzolagan davlatlarni aniqlang.

- A) Birma, Yangi Zelandiya, Filippin, Indoneziya  
 B) Fransiya, Pokiston, Tailand, Hindiston  
 C) Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand  
 D) Angliya, AQSh, Avstraliya, Fransiya

**34.** Yevropadagi ilk uyg'onish va gumanizm davri vakillarini aniqlang. (XIV-XV asrlar)

- A) Eyngard, Bokachcho, Alkuin  
 B) Bekon, Robert de Sorbonn, Salyutati  
 C) Petrarka, Bokachcho, Salyutati  
 D) Avitsenna, Alkuin, Eyngard

**35.** Afrika xalqlari Yevropa mustamlakachilariga qarshi olib borgan kurashlarida ularga rahbarlik qilgan shaxslar mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Muhammad Ahmad; 2) Ketchvayo; 3) Xendrik Vitboy; 4) Samuil Magarero;

a) gererolar; b) namalar; c) sudanliklar; d) zuluslar

- A) 1 - d; 2 - c; 3 - b; 4 - a B) 1 - c; 2 - d; 3 - b; 4 - a

- C) 1 - c; 2 - b; 3 - d; 4 - a D) 1 - a; 2 - d; 3 - b; 4 - c

**36.** Kiyev knyazi Vladimir nima sababdan o'z o'g'li Yaroslavga qarshi yurishga tayyorgarlik ko'rganligini aniqlang.

- A) bijanak qabilalari bilan ittifoq tuzganligi uchun  
 B) Vladimiri Kiyev taxtidan tushirish uchun fitna tayyorlaganligi uchun

C) Kiyevning qipchoqlarga qarshi urushida harbiy yordam

ko'rsatmaganligi uchun

- D) Kiyevga boj to'lashdan bosh tortganligi uchun

### Variant-023

**1.** Zardushtiylik dinida farovonlik va mol-davlat homiysi bo'lgan xudoni aniqlang.

- A) Mitra B) Axuramazda C) Anaxita  
 D) Xumo-Farna

**2.** Oda Nobunaga nima sababdan Yaponiyada xristian dinining tarqalishiga homiylik qilgan?

1. Buddha peshvolari Oda Nobunagaga dushman bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlamogda edi;

2. Oda Nobunaganing fikricha yaponlar xristian dinini qabul qilsa, yevropaliklar Yaponiyaga hech qachon harbiy hujum qilmas edi;

3. Oda Nobunaga tezlik bilan qo'shinini Yevropa qurol-aslahasi bilan to'la qurollantirish maqsadida yevropaliklar ishonchini qozonish uchun ham xristianlikni qo'llab quvvatlagan edi;

4. Oda Nobunaga xristian dini vositasida yaponlarni yagona bayroq ostida birlashtirmogchi edi;

5. Oda Nobunaga shu yo'l bilan Yaponiyaga yevropaliklarni ko'plab kirgizib, shu orqali yapon xalqining naslini ham o'zgartirmogchi edi.

- A) 2, 3 B) 1, 4 C) 2, 5 D) 1, 3

**3.** Quyidagi qaysi hudud Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari davrida egallanmagan?

- A) Suriya B) Xorazm C) Eron D) Misr

**4.** Fransiya qirollarining an'anaviy toj kiyish marosimi qaysi shaharda o'tkazilgan? (O'rta asrlar)

- A) Parij shahri B) Ruan shahri C) Reyms shahri  
 D) Orlean shahri

**5.** Argentinada qaysi prezident davrida universitetlar faoliyat demokratik asosda qayta qurila boshlandi?

- A) I.Irrigoyen B) R.Ortis C) M.Alveor  
 D) P.Xusto

**6.** 1988-yilda Pokiston Bosh vaziri etib saylangan Benazir Bxutto qaysi partiya rahbari edi?

- A) Xalq partiyasi B) Musulmon ligasi C) Avomi liga  
 D) Sotsial demokratik partiya

**7.** Liviya Italiya mustamlakasiga aylangan yilda quyidagi voqealardan qaysi biri sodir bo'lgan?



- A) Italiya Fransiyaning Marokashga bo'lgan huquqlarini tan oldi  
 B) Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida Albaniya mustaqillikka erishdi  
 C) Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o'zini Turkiyadan to'la mustaqil deb e'lon qildi  
 D) Panama kanali ochildi
- 8.** Buyuk Britaniya hukumati ikki davlat harbiy-dengiz flotiga teng keladigan flot saqlash an'anasidan voz kechishga majbur bo'lgan (a) va AQSh Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotining yetakchi mavqeini amalda yo'qqa chiqara olgan (b) yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 A) a-1921-yil; b-1939-yil      B) a-1921-yil; b-1929-yil  
 C) a-1919-yil; b-1929-yil      D) a-1920-yil; b-1930-yil
- 9.** Quyidagi asarlardan qaysi biri Mir Olim Buxoriy tomonidan yozilgan?  
 A) "Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni"  
 B) "Fathnomayi sultoniyy"  
 C) "Saralangan tarixlar"  
 D) "Shohnomayi nusratpoyon"
- 10.** Yevropa Kengashining oliy organlarini aniqlang.  
 A) Parlament Assambleyasi va Strasburg Kengashi  
 B) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Gaaga Sudi  
 C) Yevroparlament va Bosh vazirlar Kengashi  
 D) Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi va Parlament Assambleyasi
- 11.** G'arbiy Rim imperiyasi qulagan vaqtda sosoniylar davlati hukmdori kim bo'lganligini aniqlang.  
 A) Anushervon    B) Pero'z    C) Kubod    D) Shopur II
- 12.** Mulla Olim Mahdumxo'ja Toshkandiyning "Tarixi Turkiston" asari qaysi yilda nashr etilgan?  
 A) 1915-yilda      B) 1913-yilda      C) 1911-yilda  
 D) 1909-yilda
- 13.** XVII asrdagi Hindiston va Buxoro xonligi tarixiga oid ma'lumotlar ichidan bir yilda yuz berganlarini belgilang.  
 A) Humoyun Eron yordamida Hindiston taxtiga da'vogarlarini tor-mor etib, hokimiyatni qaytarib olishi; keksayib qolgan Abdullazizxonning taxtdan voz kechishi  
 B) Xalq hukmdori, Milliy podshoh nomlariga sazovor bo'lgan Akbarshohning vafot etishi; Subhonqulixonning Balxni egallashi  
 C) Hindistonda Akbarshoh hukmronligining tugashi; Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi vakillaridan Vali Muhammad hukmronligining boshlanishi  
 D) Hindiston hukmdori Avrangzeb Olamgir hukmronligining yakunlanishi; Xiva xoni Abulg'oziyxonning katta qo'shin bilan Buxorogacha yetib kelishi

- 14.** Roman uslubida barpo etilgan quyidagi inshootlardan qaysilari Fransiyaga joylashgan?  
 1) Puate; 2) Vorms; 3) Klyune; 4) Axen; 5) Arl; 6) Shpeyer  
 A) 2, 3, 5    B) 1, 2, 4    C) 1, 3, 5    D) 2, 4, 6
- 15.** Bir yilda bo'lib o'tgan voqealarni toping.  
 1) Dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi urush boshlandi; 2) Kuba nomiga mustaqillik oldi; 3) AQSh davlat kotibi Xeyning "Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilindi; 4) Fransuzlar G'arbiy Sudan ozodlik kurashi rahbari Samori Tureni taslim eta olishdi va Gabonga surgun qilishdi.  
 A) 2, 3, 4    B) 1, 3, 4    C) 1, 2, 3    D) 1, 2, 4
- 16.** Ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlangan yilda quyidagi qaysi voqea sodir bo'lgan?  
 A) Berlin kongressi chaqirildi  
 B) Xitoy-Yaponiya urishi bo'lib o'tdi  
 C) Kushka shahri bosib olindi  
 D) Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Amerika Respublikasiga birlashdi
- 17.** Safaviylar sulolasi vakillaridan qaysi birining hukmronligi davrida yirik yer-mulk egalari mustaqilligi tugatilib, davlat o'z qudratining cho'qqisiga erishdi?  
 A) Taxmasp    B) Ismoil I    C) Abbos I  
 D) Sulton Husayn
- 18.** Nasaf shahri yonida o'ziga saroy qurdirgan mo'g'ul xonini aniqlang.  
 A) Chig'atoy    B) Tuvoxon    C) Tarmashirin  
 D) Kebek
- 19.** Quyidagi qo'zg'olonlarni ularning bo'lib o'tgan sanalari bilan mos ravishda keltirilgan javobni aniqlang.  
 1. Boljuvon bekligidagi qo'zgon;  
 2. Ko'lob bekligidagi qo'zg'olon;  
 3. Kalif bekligidagi qo'zg'olon;  
 4. Matyoqub pishiq qo'zg'oloni;  
 5. Yetimxon qo'zg'oloni;  
 a) 1902-yil; b) 1888-yil; c) 1885-yil; d) 1889-yil; e) 1878-yil  
 A) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a, 5-e    B) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e  
 C) 1-e, 2-b, 3-d, 4-c, 5-a    D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-e
- 20.** Buxoro xonligida Ubaydullaxon hukmronlik qilgan yillarda Angliya qiroli bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) Genrix VIII Tyudor    B) Mariya    C) Richard II  
 D) Yelizaveta
- 21.** Mamlakatda yopiq siyosat yuritib, chet elliklar, ayniqsa, yevropaliklarning mamlakatga kirishini taqiqlagan afg'on hukmdorini toping.  
 A) Amir Abdurahmon    B) Habibullo    C) Yoqubxon

D) Omonulloh

**22.** 1821-yilda Gvineya qirg'oqlarida tashkil etilgan manzilgoh qanday atalgan?

- A) Bushmeniya      B) Zambeziya      C) Kalaxari  
D) Monroviya

**23.** Eftaliylar davrida O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, . . .

A) dasht aholisi mahalliy me'morchilik an'analari bilan uyg'unlashib ilk o'rta asr madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi

B) Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylandi

C) Xitoy va Eron tasviriy uslublari bilan uyg'unlashuvi yuz berib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga ta'sir etdi

D) Turkiy xalqlar madaniyati an'alarining qo'shilishi va ilk o'rta asrlar madaniyati ravnaqiga olib keldi

**24.** Quyidagi kanallar ochilish yillari bo'yicha to'g'ri joylashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Suvaysh; 2) Panama; 3) Katta Farg'ona.  
A) 2, 3, 1      B) 3, 1, 2      C) 2, 1, 3      D) 1, 2, 3

**25.** XX asrning 50-80-yillarida qurib ishga tushirilgan O'rta Osiyoda eng yirik Qayroqqum GESi qaysi Respublika hududida joylashgan?

- A) O'zbekiston      B) Qirg'iziston      C) Tojikiston  
D) Qozog'iston

**26.** XIX asrda Eron davlatida beklarbegi lavozimidagi amaldor qanday vazifani bajarganligini aniqlang.

- A) qo'shin sarkardasi hisoblangan  
B) beklardan tashkil topgan guruh rahbari bo'lgan  
C) bosh vazir hisoblangan  
D) viloyatni boshqargan

**27.** Arablar tomonidan Xuroson deb atalgan hudud yerlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) Hozirgi Afg'onistonning sharqiy, Eronning sharqiy qismi, shimoliy Pokiston hamda markaziy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar  
B) Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar  
C) Hozirgi Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy qismi, Pokistonning shimoliy qismi hamda Sind yerlaridan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar  
D) Hozirgi Afg'oniston, Eronning sharqiy qismi, qisman Pokiston, Kaspiy dengizning sharqi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar

**28.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi dehqonlarning chiqishlari stixiyali isyonlar tarzida bo'lib, quyidagi qaysi holatlar bilan kechgan?

- 1) amaldorlarning uyularini vayron qilish;

2) amaldorlarni oila a'zolari bilan qirib tashlash; 3) qarz tilxatlarini yirtib tashlash; 4) soliq yig'uvchilarni quvib yuborish; 5) zodagonlarni haydab yuborish;

- 6) zamindorlarning yerlarida ishlashdan bosh tortish  
A) 2, 3, 6      B) 2, 5, 6      C) 1, 3, 4      D) 1, 2, 5

**29.** Qo'qon xoni Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuborib, Raim istehkomi qurilganidan noroziligini bildirgan vaqtda Rus podshosi kim edi?

- A) Nikolay I      B) Aleksandr I      C) Nikolay II  
D) Aleksandr II

**30.** Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi harakatlarini olib borishdagi harbiy markazini aniqlang.

- A) 1852-yilda bosib olingan Oqmachit qal'asi  
B) 1847-yilda barpo etilgan Raim va Kopal istehkomlari  
C) 1864-yilda bosib olingan Chimkent shahri  
D) 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyati

**31.** Qadimgi davrdan to Turkistonning XX asr boshlarigacha bo'lgan voqealari yilnomasi bayon etilgan asarni belgilang.

- A) "Tarixi Farg'ona"      B) "Zubdat ut-tavorix"  
C) "Tarixi jadidayi Toshkand"      D) "Tarixi Turkiston"

**32.** 1904-yildagi Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi bitimga ko'ra, Marokash sultoni o'z vazifasini bajara olmaslik ehtimoli borligi va shunday bo'lib qolsa Marokash hududining Gibraltar bo'g'oziga bevosita tutash bo'lgan qismini quyidagi qaysi davlatga berish belgilab qo'yildi?

- A) Germaniyaga      B) Buyuk Britaniyaga  
C) Ispaniyaga      D) Fransiya

**33.** O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi . . . zimmasiga yuklatilgan edi.

- A) RKP(b) Markaziy Q'omitasining O'rta Osiyo byurosi  
B) "Turkkomissiya"  
C) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi  
D) "O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi"

**34.** Fransiya Lokarno shartnomasini imzolash orqali o'z ittifoqchisi hisoblangan qaysi davlatlarga nisbatan xiyonat qilgan?

- A) AQSh va Buyuk Britaniyaga  
B) Polsha va Buyuk Britaniyaga  
C) Polsha va Chexoslovakiyaga  
D) Chexoslovakiya va Ruminiyaga

**35.** Birinchi jahon urushudan keyin mustamlakachi davlatlar Osiyo va Afrikadagi o'z mustamlaklaridagi mavqeini saqlab qolishlariga quyidagilardan qaysilari sabab bo'lganligini toping.

- 1) mustamlakachilik tizimining yemirilishi uchun zarur

xalqaro shart-sharoitlar to'la yetilmaganligi; 2) jahon siyosiy xaritasida Sovet Rossiyasining vujudga kelishi; 3) mustamlakalarda mustamlakachilarga qarshi kurashuvchi kuchlarning qaror topish jarayoni hali davom etayotganligi; 4) Millatlarlar Ligasining tashkil etilishi va uning Mandat tizimining joriy etilishi; 5) Germaniya mustamlaklarining Antanta davlatlari o'rtasida taqsimlanishi.

A) 1, 3 B) 1, 5 C) 2, 4 D) 3, 4

**36.** 1880-yilda qaysi dovon ostida 15 kilometrlik temiryo'l tunneli qurilgan?

A) Sen-Deno B) Sen-Gotard C) Sent-Luiz  
D) Sen-Duvr

### **Variant-024**

**1.** 1875-yilda Nasriddinbek va fon Kaufman o'rtasida imzolangan shartnomada quyidagi qaysi shartlar belgilab qo'yilgan edi?

- 1) Nasriddinbek o'zini rus imperatorining sodiq quli deb tan olishi;
- 2) rus imperatori Nasriddinbekni sodiq hamkori deb tan olishi;
- 3) Nasriddinbek tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi;
- 4) Rossiyaga uch million rubl tovon to'lashi;
- 5) Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar - Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi;
- 6) Sirdaryo sohillaridagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tganligi;
- 7) Rossiyaga ikki million rubl tovon to'lashi

A) 2, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 7 C) 1, 3, 4, 6  
D) 1, 3, 5, 7

**2.** Nasaf shahri yonida o'ziga saroy qurdirgan mo'g'ul xonini aniqlang.

A) Chig'atoy B) Tuvoxon C) Kebek  
D) Tarmashirin

**3.** II jahon urushidan keyin Lotin Amerikasida latifundiyachilikning qulashi sabablarini aniqlang.

- 1) dehqonlar kurashi ta'sirida hukumatning agrar islohot o'tkazishga majbur bo'lishi;
- 2) milliy sanoatning gurkirab rivojlanishi;
- 3) kuchli demografik o'zgarishlar yuz berganligi;
- 4) Lotin Amerikasida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning keskin kamayib ketganligi;
- 5) qahva oligarxiyasining hokimiyatdan chetlashtirilganligi

A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 4

**4.** Tropik Afrikada joylashgan Nyasalend qaysi davlat mustamlakasi bo'lgan?

A) Ispaniya B) Belgiya C) Buyuk Britaniya  
D) Fransiya

**5.** Hindistonning shimoliy hududlariga o'rta asrlarda (XI-XII) kimlarning hujumlari, ayniqsa, kuchaygan?

- A) xitoy va mo'g'ullarning
- B) qipchoq va mo'g'ullarning
- C) eron va qipchoqlarning
- D) turk va afg'on qabilalarining

**6.** Parij Kommunasi tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarga quyidagilardan qaysilari mos kelishini belgilang.

1. Parijdan qochib ketgan T'yer hukumatini butunlay tugatdi.
2. Egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxonada ishchilariga topshirildi.
3. Majburiy va bepul ta'lim joriy etildi.
4. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi.
5. Kommuna davlat xazinasini o'z qo'lga olib banklar ustidan nazorat o'rnatdi.
6. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddati kechiktirildi.
7. Xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralarini Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi.
8. Bepul tibbiy xizmat joriy qilindi.

A) 2, 3, 4, 6, 7 B) 2, 3, 5, 7, 8 C) 1, 4, 5, 6, 8  
D) 1, 3, 4, 5, 6

**7.** Franklar qirolligi qachondan imperiya deb yuritila boshlandi?

- A) 800-yili qiroli Karl hukmronligi davridan
- B) 804-yilda sakslar ustidan erishilgan g'alabadan so'ng
- C) Xlodvigning Suassondagi yirik g'alabasidan so'ng
- D) Langobardlar qiroli Dezideriy ustidan g'alabaga erishilgach

**8.** Ikkinchi jahon urushi davrida Yevropadagi ittifoqchi qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan, urush tugagandan keyin AQShda prezident etib saylangan shaxsni aniqlang.

A) G.Trumen B) F.Ruzvelt C) D.Eyzenxauer  
D) U.Garding

**9.** Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini kim topshirgan?

A) Ernazar B) Xoja Nafas C) Haqquli  
D) Qulibek

**10.** XIX asrning I yarmida Xivada xon safarda bo'lgan vaqtlarda xonlikni kim boshqargan?

A) mehtar B) valiahd shahzoda C) devonbegi  
D) qo'shbegi

**11.** "Risoi aziza" asarining muallifini aniqlang.

A) So'fi Olloyor B) Nozir Sholikarov  
C) Sadriddin Ayniy D) Xo'ja Hofiz

**12.** 2009-yilda Respublikamizda 2200 yilligi nishonlangan shaharni ko'rsating.

A) Shahrisabz B) Marg'ilon C) Urganch



D) Toshkent

**13.** 1907-1911-yillar Eron inqilobining ikkinchi davrida katta ta'sirga ega bo'lgan mujohidlar ilgari surgan talablar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) yashirin saylov huquqi; 2) shoh tuzumini ag'darish; 3) parlament joriy etish; 4) shaxs erkinligini joriy qilish; 5) shoh yerlarini musodara qilish; 6) ish vaqtini 8 soat qilib cheklash; 7) chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga parlament roziligi olish; 8) bepul va majburiy ta'lim joriy qilish.

A) 2, 4, 6, 7, 8      B) 2, 3, 5, 6, 7      C) 1, 2, 3, 4, 5  
D) 1, 4, 5, 6, 8

**14.** Quyidagi javoblarning qaysi biri 1814-yildagi Vena kongressi bilan umuman aloqador emas?

A) Buyuk Britaniyaning Seylon oroliga egaligi tan olinishi  
B) Shveysariyaning mustaqilligi tiklanishi va abadiy betaraf maqomga ega bo'lishi  
C) Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritishi  
D) Qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiyaning qabul qilinishi

**15.** Pokiston-Hindiston o'rtasidagi diplomatik aloqalar nechanchi yilda tiklandi?

A) 1976-yil      B) 1969-yil      C) 1974-yil      D) 1984-yil

**16.** Mustaqil Toshkent hokimligi tarixiga doir quyidagi voqealar orasidan bir yilda yuz berganlarini toping.

1) Chimkent va Sayramning Toshkentga qo'shib olinishi;  
2) Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar Toshkentga qo'shib olinishi;  
3) Toshkent elchilari Sankt-Peterburgda Aleksandr I qabulida bo'ldi;  
4) 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvonining Semipalatinsk shahriga kelishi;  
5) Sibir ma'muriyati ikkinchi bor yuborgan elchilarining Toshkentga yetib kelishi

A) 1, 3      B) 2, 5      C) 2, 4      D) 1, 5

**17.** Quyidagi fransuz qirollarining ular hukmronlik qilgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

1) Filipp IV; 2) Lyudovik XI; 3) Karl VII;  
4) Lyudovik VI;  
a) 1285-1314-yy.; b) 1108-1137-yy.; c) 1461-1483-yy.;  
d) 1422-1461-yy.

A) 1 - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a      B) 1 - a; 2 - c; 3 - d; 4 - b  
C) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 - b      D) 1 - a; 2 - d; 3 - c; 4 - b

**18.** 1723-yildagi jung'orlarning bostirib kelishi oqibatida vujudga kelgan quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo va Amudaryo o'rtasida bo'sh yotgan yerlarda joylashib, bu yerda qaysi daryodan suv chiqarib dehqonchilik bilan shug'ullangan?

A) Aqshadaryo      B) Quvondaryo      C) Janadaryo  
D) Ko'ko'zak

**19.** O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti; 3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti

A) 1, 3, 5      B) 2, 3, 4      C) 3, 4, 5      D) 1, 2, 3

**20.** O'zbekiston brezent ishlab chiqaruvchi "Kenaf" qo'shma korxonasini qaysi davlat hamkorligida tashkil etgan?

A) Vengriya      B) Gretsiya      C) Chexiya      D) Italiya

**21.** Quyidagi qaysi davlatlar armiyasi 1925-yilda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshlagan?

A) Ispaniya va Buyuk Britaniya      B) Italiya va Fransiya  
C) Fransiya va Buyuk Britaniya  
D) Ispaniya va Fransiya

**22.** Turkistonda mustamlaka davrigacha boshlang'ich ta'limdan keyingi bosqichda o'quvchilarga o'qitilgan kitoblar ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) "Haftiyak", "Chor kitob", "Risolai aziza"  
B) "Chor kitob", "Haftiyak", "Sabot ul-ojizin"  
C) "Haftiyak", "Risolai aziza", "Chor kitob"  
D) "Chor kitob", "Risolai aziza", "Haftiyak"

**23.** XVI asrda Niderlandiya sanoati, savdosi, qishloq xo'jaligi, rivojlangan davlat bo'lsa ham qaysi davlatning mulkiga aylantirilgan edi?

A) Portugaliya      B) Daniya      C) Angliya      D) Ispaniya

**24.** O'rta asrlarda Xorazm davlatining mustaqillikka erishishi qaysi hukmdor nomi bilan bog'liq?

A) Otsiz      B) Anushtegin      C) Qutbiddin Muhammad  
D) Elarslon

**25.** Quyidagi kanallar ochilish yillari bo'yicha to'g'ri joylashtirilgan javobni aniqlang.

1) Suvaysh; 2) Panama; 3) Katta Farg'ona.  
A) 1, 2, 3      B) 2, 1, 3      C) 3, 1, 2      D) 2, 3, 1

**26.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi dehqonlarning chiqishlari stixiyali isyonlar tarzida bo'lib, quyidagi qaysi holatlar bilan kechgan?

1) amaldorlarning uylarini vayron qilish;  
2) amaldorlarni oila a'zolari bilan qirib tashlash; 3) qarz tilxatlarini yirtib tashlash; 4) soliq yig'uvchilarni quvib yuborish; 5) zodagonlarni haydab yuborish;  
6) zamindorlarning yerlarida ishlashdan bosh tortish  
A) 1, 3, 4      B) 2, 5, 6      C) 1, 2, 5      D) 2, 3, 6

**27.** Germaniya Bag'dod temir yo'li loyihasining Izmir-Anqara qismini qo'lga kiritgan va bu loyihani to'la qo'lga kiritgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1889-, 1904-yillar      B) 1888-, 1905-yillar  
C) 1888-, 1903-yillar      D) 1889-, 1902-yillar

28. Ikkinchi jahon urushidan keyin Samarqand qishloq xo'jaligi institutida ishlab turgan bir yillik malaka oshirish kurslarida kimlar o'qitilganligini toping.

- A) MTS larning katta mexaniklari  
 B) MTS direktorlari va tuman qishloq xo'jalik bo'limi mudirlari  
 C) Zveno boshliqlari va brigadirlar  
 D) Kolxoz raislari va brigadirlar

29. Birinchi jahon urushidan keyin AQSh iqtisodiyotida yangi yuksalish boshlangan vaqtini ko'rsating.

- A) 1923-yilning o'rtalari      B) 1921-yilning boshlari  
 C) 1922-yilning oxiri      D) 1924-yilning boshi

30. Buxoro amirligida xiroj solig'ining to'lanish tartibini aniqlang. (XIX asrgacha)

- A) hosil ulushidan, mahsulot yoki ishlab berish orqali to'langan  
 B) hosil ulushidan, asosan, mahsulot bilan to'langan  
 C) mol-mulk hisobidan, asosan pul bilan to'langan  
 D) yer miqdoridan, asosan, mahsulot bilan to'langan

31. Angliyada Tyudorlar sulolasi davri tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri to'g'ri berilgan?

- A) Angliyada xalqning xohish-irodasi bilan reformatsiya amalga oshdi va bu qirol hikimiyatini yanada mustahkamladi.  
 B) Genrix VIII Tyudor o'zi taxtga o'tirgan vaqtga qadar hali ham mustaqilligini saqlab qolgan ayrim janubiy grafliklar, Shotlandiya, Uels yerlariga yurish qilib, butun mamlakatni birlashtirdi.  
 C) Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yer va boshqa mol-mulk bilan taqdirladi, ya'ni unumdor yerlarning 2/3 qismini ularga tortiq qildi va sotdi.  
 D) Toifaviy vakillik organi bo'lmish parlament butunlay bo'lmasa-da, o'z ahamiyatini yo'qotdi, yangi soliq joriy etish masalasida parlament roziligining shartligi belgilab qo'yildi.

32. 1902-yilda quyidagi qaysi davrlarlar o'rtasida shartnoma va bitimlar imzolangan?

- 1) Italiya va Fransiya; 2) Rossiya va Yaponiya;  
 3) Buyuk Britaniya va Yaponiya; 4) Buyuk Britaniya va Fransiya  
 A) 1, 3      B) 2, 3      C) 1, 4      D) 2, 4

33. Qadimgi yunonlarda Xronos qanday xudo hisoblangan?

- A) uyqu xudosi      B) adliya xudosi      C) zamon xudosi  
 D) yer ilohasi

34. 1881-yilda Fransiya tomonidan qayerning bosib olinishi yangi mustamlakalar bosib olish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi?

- A) Sudan      B) Jazoir      C) Misr      D) Tunis

35. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qishloq jamoalari qanday tabaqalarga ajralib borganligini aniqlang.

- A) dehqon va kadivarlar      B) sudxo'r va kashovarlar  
 C) kadivar va chorvadorlar      D) sarkor va kashovarlar

36. Quyidagi asarlardan qaysi biri XV-XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan Toshkent tarixi, Qo'qon xonligi tarixi ilmiy nuqtai nazardan yozilgan qimmatli asar hisoblanadi?

- A) "Saralangan tarixlar"      B) "Tarixi Shohruxiy"  
 C) "Tarixi Muhojiron"      D) "Tarixi Jadidayi Toshkand"

#### Variant-025

1. Xiva xonligida xonlik hayotiga oid kundalik masalalar . . . tomonidan ko'rib chiqilgan.

- A) inoq      B) xon kutvoli      C) Kichik Kengash  
 D) Nozirlar Kengashi

2. Quyidagi qaysi voqea Germaniyaning o'rta asrlar tarixida umuman imperator saylanmagan davrga to'g'ri keladi?

- A) Vladimir Monomax Lyubech shahrida knyazlarning birinchi syezdini chaqirdi.  
 B) Usmonli turklari Bolqonda dastlabki istilochilik yurishlarini olib bordilar.  
 C) Xuloku Abbosiylar sulolasiga xotima berdi.  
 D) Xitoyda Min sulolasi hokimiyatga keldi.

3. 1955-yilda Yevropa tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.

- A) Vengriyada qo'zg'olon ko'tarildi  
 B) Varshava shartnomasi tuzildi  
 C) Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati faoliyat boshladi  
 D) NATO harbiy tashkilotiga asos solindi

4. XIX asr oxirlarida Shimoliy Afrikadagi fransuz mustamlakalari to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Liviya, Sudan      B) Misr, Marokash  
 C) Tunis, Jazoir      D) Tunis, Sudan

5. O'zbekistonda 1943-1944-yillarda yangidan ochilgan institutlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Chimboy pedagogika instituti; 2) Marg'ilon o'qituvchilar instituti; 3) Toshkent teatr san'ati instituti; 4) Andijon tillar instituti; 5) Toshkent pediatriya instituti

- A) 1, 3, 5      B) 1, 2, 3      C) 2, 3, 4      D) 3, 4, 5

6. Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kirgan qaysi hududdagi shaharlar german imperatorlariga hech qachon to'liq bo'ysunmagan?

- A) Italiyaning shimoliy hududlaridagi shaharlar  
 B) Germaniyaning sharqidagi shaharlar  
 C) Italiyaning markaziy hududidagi shaharlar  
 D) Germaniyaning shimoliy shaharlari

7. Sovet hokimiyati o'lka hayotiga biroz moslashib, tomir yozib olgach, o'zbek xalqi ma'naviy hayotining uzviy tarkibiy qismi bo'lib kelgan eski maktab va madrasa ta'lim-tarbiya tizimini barham toptirgan vaqtini aniqlang.

A) XX asr 20-yillari o'rtalaridan  
 B) XX asr 30-yillari boshidan  
 C) XX asr 40-yillari boshida  
 D) 1918-1919-yillarda

**8.** XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va elchilik munosabatlarining rivojlanishi sabablarini aniqlang.

1) Xiva xonligi hududining o'rtaosiyolik savdogarlar va haj safariga boruvchilar uchun Kaspiy dengizi orqali boshqa shaharlarga o'tish manzilgohiga aylanganligi;  
 2) Raim istehkomining qurilishi; 3) turkmanlarning yovmut qabilasining Xiva xonligiga bo'ysundirilishi;  
 4) savdoning rivojlanishi davlat xazinasiga katta daromad keltirayotganligi; 5) «Majburiyatlar akti»ning qabul qilinishi

A) 2, 3      B) 4, 5      C) 1, 2      D) 1, 4

**9.** O'zbekistonda "Sihat-salomatlik yili" deb nomlangan yilda yuz bergan voqealarni aniqlang.

1) Toshkentda Moskva Davlat Universitetining filiali ochildi.  
 2) "Isuzu" markali avtobuslar ishlab chiqarish boshlandi.  
 3) Sankt-Peterburg shahrida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti davlat rahbarlarining kengashida Markaziy Osiyo Umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi.  
 4) Moskvada O'zbekiston-Rossiya o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma imzolandi.  
 5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tuzilib, faoliyat yurita boshladi

A) 1, 3, 4      B) 1, 2, 4      C) 1, 2, 5      D) 3, 4, 5

**10.** Turkistonda mustamlaka davrigacha boshlang'ich ta'limdan keyingi bosqichda o'quvchilarga o'qitilgan kitoblarni ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) "Chor kitob", "Haftiyak", "Sabot ul-ojizin"  
 B) "Haftiyak", "Chor kitob", "Risolai aziza"  
 C) "Chor kitob", "Risolai aziza", "Haftiyak"  
 D) "Haftiyak", "Risolai aziza", "Chor kitob"

**11.** Quyidagi harbiy bloklar tashkil etilgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni aniqlang.

1) SENTO; 2) ANZYUS; 3) SEATO.

A) 2, 1, 3      B) 2, 3, 1      C) 3, 1, 2      D) 1, 2, 3

**12.** XVI asrda yaponlarga o'qotar qurollar yasash san'atini o'rgatgan yevropalikni aniqlang.

A) Anketil Dyuperon      B) Kristiyan Kuper  
 C) Mendish Pintu      D) Plano Kapraniy

**13.** 1723-yilda Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallab oladi va bu qaramlik qachongacha davom etadi?

A) 1785-yilgacha      B) 1784-yilgacha  
 C) 1758-yilgacha      D) 1756-yilgacha

**14.** Birinchi jahon urushidan keyin Millatlar Ligasi tomonidan Buyuk Britaniyaning dominioni hisoblangan Yangi Zelandiyaning boshqaruviga berilgan hududni aniqlang.

A) Marshall orollari      B) Sharqiy Karolin oroli  
 C) G'arbiy Samoa orollari  
 D) Yangi Gvineyadagi mustamlakalar

**15.** Xitoyda mo'g'ullar zulmi barham topgandan keyin mamlakat xo'jaligini tiklash maqsadida o'tkazilgan tadbirlarni aniqlang.

A) hunarmand va savdogarlardan olinadigan to'lovlar 5 yilga bekor qilinib, dehqonlarning soliqlari kamaytirildi  
 B) dehqonlarga yerlar umrbodga sotildi, endi ulardan soliq ikki yilda bir marta olinadigan bo'ldi  
 C) erkin savdoga ruxsat berilib, davlat tomonidan moliyalashtirish boshlandi, mo'g'ul savdogarlarining imtiyozlari daxlsiz bo'lib qoldi  
 D) hunarmand va savdogarlardan olinadigan to'lovlar kamaytirildi, qullarni ozod qilish haqida qonun qabul qilindi

**16.** Xitoyda Gomindan va XKP o'rtasida

a) umummilliy birlashgan inqilobiy fronti hamda  
 b) yagona antiyapon milliy fronti vujudga kelgan yillarni toping.

A) a-1924-yil; b-1937-yil      B) a-1923-yil; b-1937-yil  
 C) a-1927-yil; b-1935-yil      D) a-1923-yil; b-1931-yil

**17.** Quyidagi atamalardan qaysi biri xalqaro shartnoma, bitim ma'nosini bildiradi?

A) ssuda      B) demobilizatsiya      C) urbanizatsiya  
 D) traktat

**18.** 1918-1921-yillarda O'zbekiston madaniy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

1) Toshkentda Turkiston xalq universiteti ochildi;  
 2) Hamza nomidagi Akademik drama teatri ochildi;  
 3) Sharq instituti faoliyat yurita boshladi; 4) Toshkent davlat konservatoriyasi ish boshladi; 5) «Chig'atoy gurungi» adabiy uyushmasi qizg'in ish boshladi;  
 6) Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti ochildi

A) 1, 3, 5      B) 2, 4, 6      C) 1, 2, 4      D) 1, 2, 3

**19.** Yaponiyada aholining barcha tabaqalari - feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand, savdogarlar rasman teng huquqli deb e'lon qilingan yilda. . .

A) Eronda mujohidlar tashkiloti shaxs erkinligi, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy etish talablari bilan chiqdi  
 B) Buyuk Britaniyada saylovda qatnashuvchilar uchun mulk senzi kamaytirildi va erkak aholining 50 foizi saylov huquqiga ega bo'ldi



C) Buyuk Britaniya parlamenti deputati, olsterlik protestant, yer egasi Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni talab qildi  
D) Avstriya-Vengriya imperiyasi poytaxti Vena shahrida ishchilarning demokratik erkinliklar berilishini talab qilgan ommaviy namoyishlari o'tkazildi

**20.** Qoraqalpoq xalqining jiddiy tus olgan va qariyb o'n yil davom etgan qo'zg'oloni rahbarini aniqlang.

A) Oydo'stbiy B) Ernazarbiy C) Maman botir  
D) Bobo Go'klan

**21.** Rossiyada Ivan IVni G'arbiy Yevropa qirollari bilan bir qatorga qo'ygan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan voqea sodir bo'lgan yilni aniqlang.

A) 1485-yil B) 1549-yil C) 1547-yil D) 1520-yil

**22.** Rim qachon Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan talon-taroj qilingan?

A) 422-yilda B) 476-yilda C) 455-yilda  
D) 410-yilda

**23.** Angliyada cherkov qachondan boshlab parlamentga bo'ysundirildi?

A) 1646-yildan B) 1688-yildan  
C) 1716-yildan D) 1832-yildan

**24.** Quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?

A) XIX asrning 70-yillarigacha industrial davlatlarda ish kunining uzunligi 10-12 soatni tashkil etardi.  
B) XIX asrning o'rtalariga kelib Parij shahri ichimlik va oqava suv tarmoqlariga, tramvay va metroga ega bo'ldi.  
C) XX asr boshida AQSh sanoat ishchilarining soni jihatidan 2-o'rinni egallari edi.  
D) XX asr boshlarida "ishchi aristokratiyasi" Buyuk Britaniyada umumiy ishchilar sonining uchdan bir qismini tashkil etardi.

**25.** G'aznaviy hukmdorlar davriga mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Mahmud G'aznaviy; 2) Ma'sud G'aznaviy;  
3) Alptegin; 4) Sobuqtegin;  
a) mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqib, tanazzulga yuz tutdi; b) mamlakat hududi kengayib Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi;  
c) G'aznaviy davlatiga asos solindi; d) mamlakatning siyosiy nufuzi ortib, somoniyalar tomonidan e'tirof etildi  
A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b  
C) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

**26.** Quyidagi voqealardan qaysilarining sodir bo'lish vaqti Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi davriga to'g'ri keladi?

1) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi;  
2) Germaniya kansleri Otto fon Bismarkning iste'foga chiqishi;  
3) Qirolicha Viktoriya Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi;

4) AQShning sanoat mahsulotlari hajmi jihatdan birinchi o'ringa ko'tarilishi;

5) San-Stefanoda Rossiya-Turkiya sulh shartnomasining imzolanishi

A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 5

**27.** Mashhur bolgar inqilobchisi V.Levski qatl etilgan va Xristo Botev halok bo'lgan yillar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

A) 1871-yil, 1876-yil B) 1872-yil, 1876-yil  
C) 1870-yil, 1877-yil D) 1872-yil, 1875-yil

**28.** Quyidagi tarixiy shaxslardan qaysi biri Shohbudoq sultonga otaliq qilgan amir hisoblanadi?

A) Murodshayx B) Muhammad Mazid  
C) Boyshayx D) Hasan Murod

**29.** Janubi-Sharqiy Osiyo mudofaasi (SEATO) to'g'risidagi shartnomani imzolagan davlatlarni aniqlang.

A) Fransiya, Pokiston, Tailand, Hindiston  
B) Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand  
C) Birma, Yangi Zelandiya, Filippin, Indoneziya  
D) Angliya, AQSh, Avstraliya, Fransiya

**30.** Buxoro aholisining qozoqlar bilan savdo aloqalarida kimlar vositachilik qilgan? (XIX asr)

A) qirg'izlar B) turkmanlar C) tojiklar  
D) qoraqalpoqlar

**31.** Kubada S.Martin hukumati tomonidan qanday to'lovlar 45%ga kamaytirilgan?

A) gaz, aloqa xizmati, uy-joy solig'i  
B) elektr energiyasi, gaz, telefon  
C) elektr energiyasi, ichimlik suvi, pochta-telegraf  
D) kommunal xizmat, uy-joy solig'i, gaz

**32.** Buxoroda amirlik taxti Shohmurod qo'liga o'tgan yili tarixda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Afg'oniston shohi Ahmadshoh "Durri-Duron" unvonini oldi.  
B) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat tuzildi.  
C) Qrim xonligi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.  
D) Eronda Qojarlar hukmronligi boshlandi.

**33.** Mo'g'ullar davrida undirilgan "shulen" nomli oziq-ovqat solig'i davlat xazinasi uchun olingan bo'lib, uning miqdori qacha bo'lgan?

A) olingan hosilning 1/10 ulushi  
B) har yuz bosh chorvadan bir bosh jonliq  
C) sotilgan mahsulotning 1/10 qismi  
D) har bir podadan ikki yashar qo'y, har ming otdan bir biya

**34.** Yaponiyada modernizatsiya davri boshlangan yilda Buyuk Britaniyada . . .

A) Dublinda Irlandiya ishlari bo'yicha stats-sekretar va Irlandiya lord-hokimi o'ldirildi

- B) Parlament Lordlar palatasining veto huquqlari cheklandi  
 C) Dizraeli hukumati haftasiga 54 soatlik ish vaqtini belgiladi  
 D) erkak aholining 50 foizi saylov huquqiga ega bo'ldi

**35.** Quyidagi qaysi voqealar bir yilda sodir bo'lgan?

- 1) Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'ldilar.  
 2) Fransiyada konsullik deb ataluvchi hukumat tuzildi.  
 3) Yaponiyada Yosimune hukmronligi boshlandi.  
 4) Toshkent hokimi Yunusxo'ja vafot etdi.  
 5) Angliya va Shotlandiya o'rtasida uniya qonuniylashtirildi

A) 1, 5      B) 1, 4      C) 2, 4      D) 3, 5

**36.** Islom olamida "musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafiga sazovor bo'lgan allomani aniqlang.

- A) Imom al-Buxoriy  
 B) Mahmud az-Zamaxshariy  
 C) Abu Mansur al-Moturidiy  
 D) Burhoniddin al-Marg'inoniy

#### Variant-026

**1.** XIX asrda Xiva xonligida . . . obro'li oqsoqollar, qozilar va miroblar tomonidan boshqarilgan.

- A) masjid qavmlari      B) shahar      C) tuman  
 D) amlodkorlik

**2.** Puritanlar kimlar?

- A) amaldagi hukumat va uning siyosati bilan kelishmay, boshqacha faoliyat yuritish tarafdorlari  
 B) Germaniyada katolik cherkovining zulmiga va zo'rvonligiga qarshi kurashgan islohotchilar  
 C) kapitalistik jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan o'rta asr tarafdorlari  
 D) Angliyada protestant anglikan cherkovini katolik qoldiqlaridan tozalash uchun kurashganlar

**3.** Amir Temur qo'shinlari tuzilishini esga oling. Quyidagi qaysi atama qo'shinning har bir qanoti yon tomonidagi qo'riqchi askariy qo'shilmani anglatgan?

- A) manglay-avangard      B) qanbul      C) yasovul  
 D) izofa

**4.** Sheralixon Qo'qon xonligini necha yil boshqargan?

- A) 2 yil      B) 3 yil      C) 6 yil      D) 1 yil

**5.** O'zbekistondagi eng yirik Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurilgan davrni toping.

- A) XX asrning 60-yillarida  
 B) XX asrning 70-yillarida  
 C) XX asrning 50-yillarida  
 D) Ikkinchi jahon urushi yillarida

**6.** Reyn kafolat paktidan norozi bo'lgan sovet davlati quyidagi qaysi davlatlar bilan betaraflik to'g'risida shartnoma imzoladi?

- 1) Germaniya; 2) Eron; 3) Turkiya; 4) Litva;  
 5) Mo'g'uliston; 6) Afg'oniston; 7) Finlandiya  
 A) 2, 5, 6, 7      B) 2, 3, 6, 7      C) 1, 3, 4, 6  
 D) 1, 2, 5, 6

**7.** Quyidagi O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarini ochilgan yillari bilan to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti;  
 2) Moskva davlat universiteti filiali; 3) Moskva neft va gaz universiteti filiali; 4) Toshkentdagi Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti.

a) 2008-y.; b) 2007-y.; c) 2006-y.; d) 2002-y.

- A) 1-c; 2-a; 3-b; 4-d      B) 1-b; 2-d; 3-c; 4-a  
 C) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c      D) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a

**8.** Harbiy diktatorlik hukumatlarining tarix sahnasidan ketishi yillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Peru; 2) Gvatemala; 3) Boliviya; 4) Argentina;  
 5) Salvador;

a) 1983; b) 1980; c) 1985; d) 1982; e) 1989

- A) 1-c; 2-d; 3-b; 4-a; 5-e      B) 1-e; 2-c; 3-d; 4-b; 5-a  
 C) 1-b; 2-c; 3-d; 4-a; 5-e      D) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c; 5-e

**9.** Italiyada fashistlar yanada faollashib, o'zlarining harbiy otryadlarini tuza boshlagan yilda bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.

- A) Fransiya kommunistik partiyasi tuzildi.  
 B) Argentinada Radikal-fuqaro ittifoqi partiyasi vakili I.Irrigoyen hukumati davri nihoyasiga yetdi.  
 C) Ispaniya parlamentiga saylovlarda liberal partiya g'alaba qozondi.  
 D) AQShda "Sanoatni qayta tiklash haqida" qonun qabul qilindi.

**10.** Afg'onistondagi kurash maydoniga "tolibonlar" nechanchi yildan qo'shildi?

- A) 1996-yil      B) 1995-yil      C) 1997-yil      D) 1994-yil

**11.** Turklar Yoyiq va Itil bo'ylarini zabt etgan davrda Sosoniylar davlatini boshqargan hukmdorni aniqlang.

- A) Peruz      B) Shopur II      C) Kubod  
 D) Xusrav I Anushervon

**12.** B. Dizraeli Buyuk Britaniya bosh vaziri bo'lgan davrda amalga oshirilgan tadbirlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

1. Haftasiga 54 soatlik ish vaqti belgilandi.  
 2. Xotin-qizlarning ish vaqti 8 soatga keltirildi.  
 3. 10 yoshdan kichik bolalarni ishga qabul qilish taqiqlandi.  
 4. Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi.

- A) 1, 3      B) 1, 4      C) 2, 4      D) 2, 3

**13.** 1952-yilda "Yevropa Mudofaa Hamkorligi" haqida shartnoma qaysi davlat poytaxtida imzolangan?

- A) Fransiya B) AQSh C) Angliya  
D) Germaniya
- 14.** Xiva xonligida mamlakat miqyosida soliqlar yig'ilishiga javobgar bo'lgan amaldorlarni belgilang.  
A) mehtar va qo'shbegi B) mehtar va otaliq  
C) qoshbegi va mushrif D) devonbegi va naqib
- 15.** Quyidagi qaysi voqeaning sodir bo'lish vaqti Movarounnahrda Nasr II hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi?  
A) Vladimir Monomax ilk bor qipchoq xonlari qo'shinini yengishi  
B) Chexiyada knyaz Vatslav hukmronlik qilishi  
C) Kiyev Rusida xristian dinining qabul qilinishi  
D) Xitoyda Sun sulolasi hukmronligining boshlanishi
- 16.** Odamzod ajdodlarining qadimiy yodgorliklari topilgan Olduvay darasi qayerda joylashgan?  
A) Germaniyada B) Mesopotamiyada  
C) Sharqiy Afrikada D) Kichik Osiyoda
- 17.** I.Lazarev boshchiligidagi rus qo'shinlarining turkman qabilalariga qarshi dastlabki harbiy harakatlari boshlangandan ularning batamom bo'ysundirilishigacha bo'lgan yillar oralig'i to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
A) 1880-1885-yillar B) 1879-1885-yillar  
C) 1879-1884-yillar D) 1878-1885-yillar
- 18.** Afg'on hukmdori Ahmadshox hukmronligi davrida Amudaryoning janubiy hududlarida istiqomat qilib turgan o'zbeklar qo'zg'olon ko'targan yilni toping.  
A) 1769-y. B) 1768-y. C) 1767-y. D) 1765-y.
- 19.** Turkiston o'lkasining quyidagi viloyatlaridan Rossiyaga mardikorlikka olinganlarning soni mos ravishda korsatilgan javobni toping.  
1) Sirdaryo; 2) Samarqand; 3) Farg'ona;  
a) 38 ming; b) 50 ming; c) 87 ming  
A) 1 - b; 2 - c; 3 - a B) 1 - c; 2 - b; 3 - c  
C) 1 - a; 2 - c; 3 - b D) 1 - c; 2 - a; 3 - b
- 20.** Xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qaysi davrda bo'lib o'tgan?  
A) IV-VI asrlar B) V-VII asrlar C) IV-VII asrlar  
D) V-IX asrlar
- 21.** Quyida keltirilgan shartnomalardan qaysi biri 1881-yilda imzolangan?  
A) Rossiya imperiyasining Buxoro amirligida o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi shartnoma  
B) Buxoro amirligi bilan Eron o'rtasidagi chegaralarni belgilovchi maxfiy shartnoma  
C) Xiva xonligi yarimmustamlaka davlatga aylanganligini tasdiqlovchi shartnoma  
D) Afg'oniston va O'rta Osiyo chegaralarini belgilash to'g'risidagi shartnoma
- 22.** Fosfor olish jarayoni quyidagi qaysi olim tomonidan soddalashtirilgan?

- A) Tomson B) Mendeleev C) Daymler  
D) Kostovich
- 23.** Germaniya Reyxstagi lyuterchi-knyazlar o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan yilda. . .  
A) Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos solindi  
B) Abdullaxon II Badaxshonni egalladi  
C) Abdullaxon II tavallud topdi  
D) Shayboniy Abu Said taxtga o'tirdi
- 24.** Quyida keltirilgan voqealardan aynan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.  
1) Liberiya ozod davlati tuzilganligi e'lon qilindi.  
2) Kasa o'zini Efiopiya imperatori deb e'lon qildi.  
3) Jazoirliklar yo'l boshchisi Abdulqodir qo'shini qurshab olindi va tor-mor etildi.  
4) Urugvay mutaqil davlat deb e'lon qilindi.  
5) Rossiya tomonidan Kopal istehkomi barpo etildi.  
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 3, 4, 5
- 25.** Avstriya-Vengriya imperiyasi vujudga kelgach oradan necha yil o'tib imperiya poytaxti Vena shahrida ishchilarning demokratik erkinliklar berilishini talab qilgan ommaviy namoyishlari bo'lib o'tdi?  
A) 3 yil B) 2 yil C) 4 yil D) 1 yil
- 26.** Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?  
A) 1515-yilda B) 1516-yilda C) 1517-yilda  
D) 1514-yilda
- 27.** 1925-yilda Xitoyda boshlangan xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi milliy inqilobning asosiy shiorlarini ko'rsating.  
1) Xitoy suverenitetini tiklash; 2) mustamlakachi davlatlar bilan hamkorlik qilayotgan militaristik katta yer egalari hukmronligini ag'darish; 3) demokratik milliy harakat hokimiyati ostida Xitoyning butunligini ta'minlash; 4) yapon militaristlari va Manchjou-Go davlatiga qarshi kurash; 5) Gomindan va XKP umummilliy birlashgan inqilobiy frontini tuzish  
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3
- 28.** O'rta asrlarda mavjud bo'lgan qaysi davlatda viloyat hukmdori voliy, shahar hokimi rais deb yuritilgan?  
A) Qoraxoniylar davlatida B) Somoniylar davlatida  
C) G'aznaviylar davlatida D) Qoraxitoylar davlatida
- 29.** Yaponiyada aholining barcha tabaqalari - feodal zamindor, samuray, dehqon, hunarmand, savdogarlar rasman teng huquqli deb e'lon qilingan yilda. . .  
A) Eronda mujohidlar tashkiloti shaxs erkinligi, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy etish talablari bilan chiqdi  
B) Buyuk Britaniyada saylovda qatnashuvchilar uchun mulk senzi kamaytirildi va erkak aholining 50 foizi saylov huquqiga ega bo'ldi



C) Avstriya-Vengriya imperiyasi poytaxti Vena shahrida ishchilarning demokratik erkinliklar berilishini talab qilgan ommaviy namoyishlari o'tkazildi

D) Buyuk Britaniya parlamenti deputati, olsterlik protestant, yer egasi Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni talab qildi

**30.** Quyidagi qaysi oliy o'quv yurtlari XX asrning 70-yillarida tashkil etilgan?

A) Toshkent elektrotexnika aloqa va Toshkent fizkultura institutlari

B) Andijon paxtachilik va Sirdaryo pedagogika institutlari

C) Toshkent pediatriya va Andijon tillar pedagogika instituti

D) Nukus davlat universiteti va Toshkent avtomobil yo'llar instituti

**31.** 1996-yilda Shoh Muzaffariddin tasdiqlagan Eron Konstitutsiyasining birinchi qismida shohga qanday huquqlar berilganligi ko'rsatilgan javobni toping.

1) barcha qonunlarni tasdiqlash; 2) qonunlar o'rniga oliy farmonlar chiqarish; 3) byudjet qabul qilish; 4) byudjet ijrosi ustidan nazorat qilish; 5) vazirlarni lavozimiga tayinlash; 6) majlis chaqirish va uning faoliyatini to'xtatish

A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 3, 5, 6 D) 2, 5, 6

**32.** Quyidagi qaysi asarlar Qadimgi Yunonistonda yaratilgan?

1) "Iliada", "Odissey"; 2) "Rigveda", "Avesto"; 3) "Shoh Edip", "Antigona"; 4) "Olamning yaratilishi haqida afsona", "To'fon rivoyati"; 5) "Arilar", "Qushlar", "Baqalar"; 6) "Eneida", "Marhumlar kitobi"

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 6

**33.** Xiva xonligida tashkil etilgan Kichik Kengash tarkibiga qaysi amaldorlar kiritilgan?

1) xon; 2) qozikalon; 3) mehtar; 4) qo'shbegi; 5) naqib; 6) devonbegi; 7) otaliq; 8) shayxulislom; 9) bey

A) 1, 3, 4, 5, 6, 8 B) 1, 2, 4, 5, 7, 9  
C) 2, 3, 5, 7, 8, 9 D) 1, 3, 4, 6, 7, 8

**34.** Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan "Tarixi Turkiston" asari qayerda nashr etilgan?

A) Qo'qonda B) Toshkentda C) Namanganda  
D) Marg'ilonida

**35.** Tarixdan ma'lumki, Shayboniylar sulolasidan taxt vorisi qolmagach, Buxoro taxtiga eng munosib nomzod Jonibek Sulton bo'lib qoladi. Lekin u kimning foydasiga taxtdan voz kechadi?

A) Din Muhammad B) Vali Muhammad  
C) Boqi Muhammad D) Imomqulixon

**36.** G'arbiy Rim imperiyasi qulagan vaqtda sasoniylar davlati hukmdori kim bo'lganligini aniqlang.

A) Anushervon B) Kubod C) Shopur II D) Pero'z

### Variant-027

**1.** XIX asr oxirlarida Germaniya qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish va hosildorlikning ortishini ta'minlagan omillarni to'g'ri ko'rsating.

1. Yunkerlar xo'jalik yuritishda yollanma mehnatdan foydalanishga o'tdi.

2. Chet el mutaxassislari qishloq xo'jaligiga keng jalb etildi.

3. Qishloq xo'jaligida amerikacha yo'l qo'llanildi.

4. Qishloq xo'jaligida qo'llash uchun yaratilgan texnikadan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

5. Keng miqyosda mineral o'g'itlardan foydalanishga o'tildi.

6. Mustamlakalardan keltirilgan qullar mehnatidan foydalanildi.

A) 1, 2, 4 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 6 D) 4, 5, 6

**2.** Eron hukmdori Nodirshoh qo'shinlari Xivani o'ziga bo'ysundirgan yili sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Rim Papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qildi.

B) Muhammad Ali Misr va Sudanni boshqarishni meros qilib qoldirish huquqini qo'lga kiritdi.

C) Xiva va Rossiya o'rtasida "Majburiyatlar akti" imzolandi.

D) Muhammad Alixon Qo'qon xonligi taxtidan voz kechdi.

**3.** Yuz yillik urush natijasida Angliya . . . tashqari Fransiyadagi barcha yerlaridan mahrum bo'ldi.

A) Bretaniyadan B) Burgundiyadan

C) Lotaringiyadan D) Kale portidan

**4.** G.Prinsipning qaysi harakati keskinlik keltirib chiqarib, oxir-oqibat katta siyosiy o'zgarishlarga olib keldi?

A) portlovchi moddalarni kashf etishi

B) sovuq urush siyosati g'oyalarini ilgari surishi

C) vodorod bombasini yaratishi

D) shahzoda Frans Ferdinandni o'ldirishi

**5.** XX asr 30-yillari oxirlariga kelib Lotin Amerikasi davlatlari xo'jaligining qaysi tarmoqlari AQSh sarmoyasiga qaram bo'lib qolganligini toping.

1) elektrostansiyalar; 2) neft; 3) mashinasozlik; 4) temir yollar; 5) pochta-telegraf; 6) go'sht; 7) port va tog' sanoati; 8) kemasozlik va avtomobilsozlik

A) 4, 5, 6, 8 B) 1, 4, 5, 7 C) 2, 3, 6, 8

D) 1, 2, 5, 8

**6.** Parij tinchlik konferensiyasida "katta uchlik" davlatlari vujudga kelgan bo'lib, ulardan qaysi biri urushda eng ko'p zarar ko'rgan edi?

A) AQSh B) Buyuk Britaniya C) Rossiya

D) Fransiya

**7.** Muhammad Amin hukmronligining so'nggi yillarida

kimlarning madadiga tayanib, mamlakatda nisbatan osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi?

- A) o'z qabilasining faol qatlami, turk sarbozlari, Buxoro harbiylari
- B) o'z qabilasining faol qatlami, ruhoniylar, savdogarlar
- C) turkman sardorlari, ruhoniylar, harbiylar
- D) harbiylar, ruhoniylar, hunarmandlar

**8.** Yuliy Sezar o'limidan so'ng Rimda respublikani tiklashga uringan Brut qo'shinini tor-mor keltirgan ittifoqchilarni aniqlang.

- 1) Oktavian; 2) Pompey; 3) Krass; 4) Mark Antoniy.  
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 2, 3

**9.** Raqiblarini sarosimaga solib qo'yuvchi "to'lg'ama" jang usuli qaysi lashkarboshi tomonidan qo'llangan?

- A) Muhammad Shayboniyxon B) Amir Temur
- C) Chingizxon D) Jaloliddin Manguberdi

**10.** Turkiston Sovetlarining qaysi syezdida o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqilib, unda aholining boy qismi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, ovrupolik aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlikka barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topilgan edi?

- A) 1917-yil oktabrdagi IX syezdida
- B) 1921-yil dekabrda XI syezdida
- C) 1918-yil apreldagi X syezdida
- D) 1920-yil sentabrdagi XI syezdida

**11.** Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?

- A) 1514-yilda B) 1516-yilda C) 1515-yilda
- D) 1517-yilda

**12.** "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafta sazovor bo'lgan buyuk alloma ismini aniqlang.

- A) Ismoil ibn Muhammad al-Buxoriy
- B) Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy
- C) Abu Mansur al-Moturidiy
- D) Muhammad ibn Iso at-Termiziy

**13.** Arablarga qarshi qaysi davlatda bo'lgan qo'zg'olon 20 yildan ortiq davom etgan? (IX asr)

- A) Movarounnahrda B) Misrda C) Xurosonda
- D) Ozarbayjonda

**14.** Mussolini boshchiligidagi fashistlar bir necha vazirlik lavozimlarini talab qilib, Rimga yurish uyushtirgan yili bo'lib o'tgan voqealarni toping.

- 1) Buyuk Britaniyada Lloyd-Jorj iste'fo berishga majbur bo'ldi.
- 2) Fransiya-Polsha harbiy ittifoqi tuzildi.
- 3) Germaniyaning Rur viloyatidan Fransiya ko'mir yuborish to'xtatildi.

4) Sovet Rossiyasida mahsulotlarni taqsimot asosida berish bekor qilindi.

5) Myunxenda bir guruh fashistlar fashistik diktatura o'rnatish talabi bilan miting o'tkazdilar.

6) Rapallo shartnomasi imzolandi.

7) AQShda K.Kulij prezidentligi boshlandi.

A) 2, 4, 6, 7 B) 2, 4, 5, 6 C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 3, 4, 6

**15.** Parijda gugenotlar qirg'ini uyushtirilgan yilda . . .

A) Filipp II ga muxolifatda bo'lgan Niderlandiyaning eng boy va obro'li katta yer egasi shahzoda Vilgelm Van Oranyeni shimoliy hududlar hukmdori deb e'lon qilindi

B) Gollandiya Respublikasi shimolida "Utrext uniyasi" deb atalgan ittifoq tuzildi

C) Koreya tarixida mashhur qo'mondon Sun Sin yapon flotini tor-mor etdi

D) Buyuk Britaniyada Karl I bilan parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi

**16.** Xitoy XVIII asrda tashqi dunyodan ajratib qo'yish siyosati boshlangan yilni toping.

A) 1776-y B) 1757-y C) 1753-y D) 1754-y

**17.** Quyidagi tarixiy shaxslardan qaysi biri Shohbudoq sultonga otaliq qilgan amir hisoblanadi?

- A) Muhammad Mazid B) Hasan Murod
- C) Murodshayx D) Boyshayx

**18.** Eronda Ismoil Safaviy hukmronligi tugagan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.

A) Germaniyada katolik cherkovi zulmiga qarshi boshlangan harakat yer egalari zulmiga qarshi urushga aylanib ketdi.

B) Germaniya protestant knyazlari Rim Papasi bilan bitim tuzishga muvaffaq bo'ldi.

C) M.Lyuter "95 tezis" deb atalgan murojaatnomani e'lon qildi va 30 yillik diniy urushga chek qo'ydi.

D) Germaniya reyxsstagi lyuterchi-knyazlar bilan kelishuvga erishdi va cherkovga qarshi harakat to'xtadi.

**19.** Xitoyliklar selitradan porox olishni ixtiro qilgan asrda quyidagi qaysi voqea yuz berdi?

A) Yettisuvda qarluqlar davlati tashkil topdi.

B) Buxoroda musulmonlarning ilk ilmgohi - Farjak madrasasi bunyod etildi.

C) Buxoro "Qubbat ul-Islom" nomi bilan shuhrat topdi.

D) Movarounnahrda yerdan foydalanishning iqto tartibi juda keng yoyilib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylandi.

**20.** O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi . . . zimmasiga yuklatilgan edi.

- A) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi
- B) "Turkkomissiya"
- C) "O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi"

D) RKP(b) Markaziy Q'omitasining O'rta Osiyo byurosi

**21.** XX asr boshlarida Fransiyada pensiya haqida qonun qabul qilingan yilda Germaniya va Buyuk Britaniyada pensiyayoshi necha yosh deb belgilangan edi?

A) 60 B) 55 C) 65 D) 70

**22.** XX asrning 20-yillari o'rtasida Xitoyda xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakatlar boshlanishiga turtki bo'lgan voqeani aniqlang.

A) Gomindan armiyasi Sovet davlatidan iqtisodiy va harbiy yordam ola boshlashi  
B) Sun Yat Senning prezidentlik lavozimiga saylanishi  
C) talabalar namoyishining ingliz politsiyasi tomonidan o'qqa tutilishi  
D) Gomindan va XKP umummilliy birlashgan frontining tuzilishi

**23.** O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi" qachon qabul qilingan?

A) 1998-y. B) 1994-y. C) 1997-y. D) 1995-y.

**24.** Misr davlati tarixiga doir quyidagi voqealardan qaysi biri polkovnik Ahmad Orabibey Seylon oroliga umrbod surgun qilingan yilda sodir bo'lgan?

1. Hadiv yangi qonunga imzo chekdi, unga ko'ra birorta qonun deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo'ldi.

2. Buyuk Britaniya qo'shini Iskandariyani to'plardan o'qqa tutdi.

3. Jamoliddin al-Afg'oniy "Xizb ul-Vatan" partiyasini tuzdi.

4. Xartumga misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi.

5. General Xiks boshliq ingliz qo'shini sudanliklar tomonidan tor-mor etildi.

A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 5

**25.** Xiva xonligida kimlar bevatn deb atalgan?

A) ko'chmanchi qozoq chorvadorlari  
B) davlat yerlarini ijaraga oluvchilar  
C) Xurosondan qaytib kelgan turkman qabilalari  
D) qoraqalpoqlar

**26.** 1954-yilning aprel-iyul oylarida Jenevada bo'lib o'tgan Konferensiya qanday masalaga bag'ishlanganligini aniqlang.

A) Germaniyani yagona davlatga birlashtirish  
B) Hindixitoyda tinchlik o'rnatish  
C) Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik  
D) Yadro qurolidan foydalanish va uni tarqatishni man etish

**27.** Qaysi davrdan boshlab Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklari bilan bo'lgan munosabatlarida tazyiq o'tkazish ustunlik qila boshladi?

A) XVII asrdan B) XIX asrdan C) XVI asrdan  
D) XVIII asrdan

**28.** Mo'g'ullar hukmronli davriga joriy etilgan soliq turlarini aniqlang.

1) xiroj; 2) kalon; 3) tamg'a; 4) targ'u; 5) qopchur; 6) shulen; 7) ushr; 8) tuz solig'i; 9) tutun solig'i; 10) jun solig'i; 11) jiz'ya; 12) kumush solig'i.

A) 2, 3, 5, 6, 10, 11, 12 B) 2, 4, 7, 8, 10, 11, 12

C) 1, 2, 4, 5, 6, 9, 10 D) 2, 4, 5, 6, 8, 10, 12

**29.** Xiva xonligida Olloqulixon hukmronlik qilgan davrda jahon tarixida quyidagi qaysi voqea bo'lib o'tgan?

A) AQSh harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi.

B) Karl X tomonidan Fransiya parlamenti tarqatib yuborildi.

C) Rossiya-Turkiya urushi nihoyasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi.

D) Chili mustaqil davlatga aylandi.

**30.** Quyida nomlari keltirilgan Qadimgi dunyo hukmdorlarining ular hukmronlik qilgan davlatlari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Ashoka, Chandragupta; 2) Solon, Perikl, Drakont; 3) Sezar, Oktavian Avgust; 4) Sin Shixuandi, U Di;  
a) Xitoy; b) Yunoniston; c) Rim imperiyasi;  
d) Hindiston.

A) 1-d; 2-b; 3-c; 4-a B) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d

C) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c D) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b

**31.** Mil.avv. VII asrlarda etrusklar Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun kimlarga qarshi kurash olib borgan?

A) karfagenliklarga B) doriylarga  
C) yunon koloniyalariga D) elamiylarga

**32.** XIII asr boshlarida Orolbo'yi qoraqalpoqlarining bir qismini Volga va Ural daryolari bo'ylariga, Sirdaryo vohalariga ko'chib ketishga majbur qilgan voqeani aniqlang.

A) No'g'ay xonligining tarkib topishi  
B) Xorazmshohlar davlatining barham topishi  
C) qipchoq qabilalarining beto'xtov va ayovsiz hujumlari

D) Chingizxon tomonidan Amudaryo to'g'oni buzdirib tashlangach, Amudaryo o'zani o'zgarib, bu yerlarning suvsiz qolishi

**33.** Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi va birinchi gimnaziya ochilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1885-, 1911-yillar B) 1889-, 1894-yillar

C) 1884-, 1896-yillar D) 1884-, 1894-yillar

**34.** Nechanchi yilda Yugoslaviyada ittifoqdosh respublikalar huquqlarini cheklaydigan konstitutsiya qabul qilingan?

A) 1972-yil B) 1974-yil C) 1973-yil D) 1971-yil

**35.** 1512-yilda Shayboniylar Movarounnahrni tamoman



egallagach, shayboniy sultonlar mamlakat viloyatlarini qayta taqsimlashni kimga topshirgan?

- A) Jonibek Sultonga                      B) Ubaydulla Sultonga  
C) Ko'chkunchi Sultonga                D) Suyunchxo'ja Sultonga

**36.** Quyidagi qo'zg'olonlarni ularning bo'lib o'tgan sanalari bilan mos ravishda keltirilgan javobni aniqlang.

1. Boljuvon bekligidagi qo'zgon;
  2. Ko'lob bekligidagi qo'zg'olon;
  3. Kalif bekligidagi qo'zg'olon;
  4. Matyoqub pishiq qo'zg'oloni;
  5. Yetimxon qo'zg'oloni;
- a) 1902-yil; b) 1888-yil; c) 1885-yil; d) 1889-yil;  
e) 1878-yil
- A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-e                B) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c, 5-e  
C) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a, 5-e                D) 1-e, 2-b, 3-d, 4-c, 5-a

**Variant-028**

**1.** Xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qaysi davrda bo'lib o'tgan?

- A) V-IX asrlar                      B) V-VII asrlar                      C) IV-VII asrlar  
D) IV-VI asrlar

**2.** Amir Temur Tarozdan to Xo'tangacha bo'lgan hududlarni kimga suyurg'ol qilib bergan?

- A) Ibrohim Sultonga  
B) Pirmuhammad Jahongirga  
C) Mirzo Ulug'bekka  
D) Mirzo Umar ibn Mironshohga

**3.** XIX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish tufayli Fransiyada qaysi davrga kelib mo'tadil barqarorlik ta'minlandi?

- A) XX asrning oxiriga                B) XX asrning boshlariga  
C) XX asrning 60-70-yillariga  
D) XX asrning o'rtalariga

**4.** Quyidagi davlatlar 1875-1900-yillarda chet ellarda joylashtirgan kapitalining o'sish darajasi kamayish tartibida joylashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Buyuk Britaniya; 2) Fransiya; 3) Germaniya  
A) 3, 1, 2                      B) 2, 1, 3                      C) 3, 2, 1                      D) 1, 3, 2

**5.** 1857-yilda imzolangan Parij Tinchlik shartnomasidan keyin Eron va Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo qaysi davlat vositachiligida hal etiladigan bo'ldi?

- A) Buyuk Britaniya                      B) Fransiya                      C) Germaniya  
D) AQSh

**6.** Yaponiyaga birinchi bo'lib Yevropaning qaysi davlati savdogarlari qachon kirib kelganligini aniqlang.

- A) XVI asrda fransuzlar                B) XVI asrda portugallar  
C) XV asrda ispanlar                      D) XV asrda inglizlar

**7.** Toshkentda Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qachon qad ko'targan?

- A) XX asr oxirida                      B) XIX asrning I yarmida

C) XIX asr oxirida                      D) XX asr o'rtalarida

**8.** 1944-yil yanvaridayoq ammiyak ishlab chiqarishni boshlagan Chirchiq elektrkimyo kombinatining ikkinchi navbati qaysi shaharlardan keltirilgan uskunalar asosida qurilgan?

- A) Ximki va Belovejsk                      B) Beloretsk va Dobryanka  
C) Gorkiy va Stalinogorsk                D) Guryev va Makeyevka

**9.** Yevropaning kuchli mustamlakachi davlatlari tomonidan afrikaliklarni qullikka sotish qachongacha davom etgan?

- A) XIX asr boshlarigacha                B) XIX asr o'rtalarigacha  
C) XX asr boshlarigacha                D) XVIII asr o'rtalarigacha

**10.** 1441-1442-yillarda Shohrux Mirzo Hindistonga yuborgan elchilarga kim rahbarlik qilgan?

- A) Qozizoda Rumiy                      B) G'iyosiddin Jamshid  
C) Ardasher                                      D) Abdurazzoq Samarqandiy

**11.** Angliyada Tyudorlar sulolasi davri tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri to'g'ri berilgan?

- A) Genrix VIII Tyudor o'zi taxtga o'tirgan vaqtga qadar hali ham mustaqilligini saqlab qolgan ayrim janubiy grafliklar, Shotlandiya, Uels yerlariga yurish qilib, butun mamlakatni birlashtirdi.  
B) Toifaviy vakillik organi bo'lmish parlament butunlay bo'lmasa-da, o'z ahamiyatini yo'qotdi, yangi soliq joriy etish masalasida parlament roziligining shartligi belgilab qo'yildi.  
C) Angliyada xalqning xohish-irodasi bilan reformatsiya amalga oshdi va bu qirol hikimiyatini yanada mustahkamladi.  
D) Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yer va boshqa mol-mulklar bilan taqdirladi, ya'ni unumdor yerlarning 2/3 qismini ularga tortiq qildi va sotdi.

**12.** Turkistondagi milliy-ozodlik harakati yo'l boshchilari ichida noyob qobiliyati bilan ajralib turuvchi Madaminbek Ahmadbek o'g'li bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni toping.

1. 1918-yil martida unga musulmon qo'shinlarining bosh qo'mondoni unvoni berildi.
  2. Uning o'z "boshqaruv apparati", "tribunali" va "genshtabi" bo'lgan.
  3. 1919-yil yanvarida Marg'ilon uning qo'shinlari tomonidan egallandi.
  4. 1919-yil aprelida uning qo'shinlari Namangan va Qo'qon shaharlari atrofidagi janglarda g'olib kelishdi.
  5. 1919-yil yozida Monstrov boshchiligidagi rus krestyanlaridan tashkil topgan harbiy qismlar uning kuchlari bilan birlashdi.
  6. 1919-yil oktyabrda Andijondagi Oyimqishloqda uning tarafdorlari tomonidan "Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati" tuzildi.
- A) 2, 3, 4                      B) 1, 5, 6                      C) 1, 3, 5                      D) 2, 4, 6

13. Quyidagi qaysi asarlar Qadimgi Yunonistonda yaratilgan?

- 1) "Iliada", "Odiseya"; 2) "Rigveda", "Avesto";  
3) "Shoh Edip", "Antigona"; 4) "Olamning yaratilishi haqida afsona", "To'fon rivoyati"; 5) "Arilar", "Qushlar", "Baqalar"; 6) "Eneida", "Marhumlar kitobi"  
A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 4

14. Butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga erishgan Babil podshosini aniqlang. (mil. avv. XVIII asr)

- A) Sargon I B) Gilgamesh C) Navuxodonosor II  
D) Xammurapi

15. Slovakiya Yevropa Ittifoqi va NATOga qabul qilingan yil sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) L.Kachinskiy Polsha Prezidenti bo'ldi.  
B) M.Karzay Afg'oniston Prezidenti qilib saylandi.  
C) A.Akayev Qirg'iziston Prezidenti lavozimidan ketdi.  
D) Ozarbayjonda I.Aliyev Prezident qilib saylandi.

16. O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byornis;  
a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil  
A) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d B) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d  
C) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d D) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b

17. Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi istilochilik yurishlarining to'rtinchi bosqichi amalga oshirilgan davrda tarixda sodir bo'lgan voqearni toping.

- A) Braziliyada qullikka qarshi kuchlar "Ozodlik manifesti"ni e'lon qildi.  
B) Bolgariyada qo'zg'olon ko'tarildi.  
C) Meksikada dehqonlar harakati yuz berdi.  
D) Peterburgda "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tuzildi.

18. AQShning mustamlakalar zabt etishga ishtiyok bildirmasligining asosiy omillarini aniqlang.

- 1) juda katta hududga ega ekanligi; 2) harbiy jihatdan hali qo'loqligi; 3) boy xomashyo zahiralarga egaligi; 4) mustamlakalardan katta foyda ola bilmasligi; 5) keng ichki bozorga ega bo'lganligi; 6) AQSh hukmron doiralarning harbiy kuch ishlatishga qarshiligi  
A) 3, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 6 D) 2, 3, 4

19. Germaniyada davlat boshqaruvining burjua demokratik shaklidan totalitar diktatura shakliga o'tish qachon yuz berdi?

- A) 1948-yil B) 1933-yil C) 1925-yil D) 1919-yil

20. Xiva xonligida XIX asr boshlarida barpo etilgan kanal nomini belgilang.

- A) To'g'uzariq B) Afshona C) Lavzan  
D) Tuyatortar

21. Quyidagi qaysi davlatlar armiyasi 1925-yilda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshlagan?

- A) Italiya va Fransiya  
B) Ispaniya va Fransiya  
C) Ispaniya va Buyuk Britaniya  
D) Fransiya va Buyuk Britaniya

22. Turkiston general-gubernatori bosh qo'mondonlikdan tashqari yana qanday lavozimni egallagan?

- A) bosh sudya B) politsiya boshlig'i C) bosh vazir  
D) xazinabon

23. XVIII asrdayoq paydo bo'lgan Konservatizm qaysi toifa mafkurasi sanalar edi?

- A) yirik yer egalari bo'lgan pomeschchiklar  
B) burjua jamiyatidagi aslzodalar  
C) burjua jamiyatidagi o'rta toifa D) intelligensiya

24. O'zbekistondagi eng yirik Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurilgan davrni toping.

- A) XX asrning 70-yillarida  
B) XX asrning 50-yillarida  
C) Ikkinchi jahon urushi yillarida  
D) XX asrning 60-yillarida

25. Fransiyaning markazlashuviga olib kelgan davlat tasarrufidagi yerlarni birlashtirish jarayonini boshlab bergan qirol Lyudovik VI nechanchi asrda hukmronlik qilgan?

- A) X asrda B) XIII asrda C) XII asrda D) XI asrda

26. Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan qaysi asarda ta'kidlanishicha xonlikda xondan keyingi o'rinda mingboshi turgan?

- A) "Saralangan tarixlar" B) "Tarixi Turkiston"  
C) "Tarixi Rashidiy" D) "Tarixi Toshqand"

27. Quyidagi qaysi voqea Qo'qon xonligida Muhammad Alixon hukmronlik qilgan yillar oralig'ida sodir bo'lgan?

- A) Lion to'qimachilari qo'zg'olon ko'tardilar.  
B) Xitoyda II afyun urushi bo'lib o'tdi.  
C) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat qabul qilindi.  
D) Eron shohi Nodirshoh ichki ziddiyatlar oqibatida o'ldirildi.

28. Pokistonda qaysi rahbar davrida mamlakat tarixida birinchi marta pensiya ta'minoti joriy etildi?

- A) Yahyoxon B) Z.Bxutto C) M.Rahmon  
D) P.Musharraf

29. Qur'oni Karim tafsiriga oid bo'lgan Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub asarni aniqlang.

- A) "Al-Kashshof" B) "Al-Mufassal"  
C) "Muqaddamat ul-adab" D) "Kitob at-Tavhid"

30. II jahon urushidan keyin Lotin Amerikasida latifundiyachilikning qulashi sabablarini aniqlang.

- 1) dehqonlar kurashi ta'sirida hukumatning agrar islohot o'tkazishga majbur bo'lishi; 2) milliy sanoatning gurkirab rivojlanishi; 3) kuchli demografik

o'zgarishlar yuz berganligi; 4) Lotin Amerikasida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning keskin kamayib ketganligi; 5) qahva oligarxiasining hokimiyatdan chetlashtirilganligi  
 A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 1, 3, 5

**31.** Quyidagi qaysi shaxs boshchiligidagi harbiy guruh Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarishi lozim edi?  
 A) I.Kirillov B) F.Beneveni C) I.Buxgols D) F.Berg

**32.** Chor Rossiyasi qo'shinlari O'ratepa va Jizzaxga qarshi harbiy harakatlar olib borgan davrda Orenburg general-gubernatori bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) P. Chernyayev B) F.Romanovskiy  
 C) N.Krivososov D) N.Krijanovskiy

**33.** 1919-yilda HMK syezdi saylovni boykot qilish haqida qaror qilgan edi. Boykotda yana nimalar nazarda tutilgan edi?  
 1) ingliz tovarlarini sotib olmaslikni; 2) inglizlar joriy etgan unvonlar va mansablardan voz kechishni;  
 3) Buyuk Britaniya oliy o'quv yurtlariga o'qimaslikni;  
 4) xristianlikni rad etishni; 5) rasmiy qabullarga bormaslikni; 6) ingliz maktablariga o'qimaslikni;  
 7) ingliz tilida gapirmaslikni; 8) ingliz sudlarini rad etishni; 9) davlat soliqlarini to'lmaslikni;  
 10) inglizlar qo'li ostida ishlamaslikni  
 A) 1, 3, 4, 6, 7, 10 B) 1, 2, 3, 5, 7, 9  
 C) 1, 2, 5, 6, 8, 9 D) 1, 4, 5, 6, 9, 10

**34.** Buyuk Britaniya tarixida Parlamentning vakolati 5 yil qilib belgilanib, deputatlarga maosh to'lash joriy etilgan yilda . . .  
 A) Sun Yat Sen Xitoyga qaytib kelgach, Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat Millat Majlisi to'pladi  
 B) ingliz mustamlakachilari Bengaliyani ikki qismga bo'lib tashladi  
 C) Eron inqilobining ikkinchi davri boshlandi  
 D) Yaponiya Koreya yarimorolini kuch bilan o'ziga qo'shib oldi

**35.** O'rta asrlarda mavjud bo'lgan Mali davlati tarixiga oid quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri joylashtiring.  
 1) o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi; 2) feodal tarqoqlik va sulolaviy nizolar sababli zaiflashdi;  
 3) butunlay inqirozga uchrab parchalandi; 4) davlat sifatida vujudga keldi; 5) aholisi islomni qabul qildi;  
 a) XV asr; b) VIII asr; c) XIII asr; d) XI asr;  
 e) XIV asr oxiri  
 A) 1-c, 2-e, 3-a, 4-d, 5-b B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d, 5-e  
 C) 1-c, 2-e, 3-a, 4-b, 5-d D) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c, 5-e

**36.** Abulxayrxon o'z davlati poytaxtini Turadan qaysi shaharga ko'chirgan?  
 A) Sig'noqqa B) Oqqo'rg'onga C) Suzoqqa  
 D) Marvga

**Variant-029**

**1.** Birinchi jahon urushidan so'ng Sen-Jermen saroyida imzolangan bitimga ko'ra, Avstriyaga tegishli bo'lgan quyidagi hududlar qaysi davlatga qo'shib berildi?  
 1) Bukovina; 2) Janubiy Tripolning bir qismi;  
 3) Moraviya;  
 a) Italiya; b) Chexoslovakiya; c) Ruminiya  
 A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-c, 2-a, 3-b  
 D) 1-b, 2-c, 3-a

**2.** Hindistonda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tuz solig'i joriy etilgan yili O'rta Osiyoda . . .  
 A) Turkiston viloyati tashkil etildi  
 B) Sirdaryo viloyati tashkil etildi  
 C) Zarafshon okrugi tuzildi  
 D) Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi

**3.** Quyidagi qaysi yozuvchining asarlarida ko'plab qirollar, kanslerlar, zodagonlar, amaldorlar, xalqqa xiyonat qilganlar, hatto imperator Vilgelm II ham tasvirlangan?  
 A) V.Gyugo B) G.Mann C) G.de Mopassan  
 D) R.Rollan

**4.** Chor Rossiyasi qo'shinlari O'ratepa va Jizzaxga qarshi harbiy harakatlar olib borgan davrda Orenburg general-gubernatori bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) P. Chernyayev B) N.Krivososov C) F.Romanovskiy  
 D) N.Krijanovskiy

**5.** Buxoro xonligi qaysi hukmdor davrida Boburiylar davlatini tan oldi hamda u bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatdi?  
 A) Abu Said B) Abdullaxon II C) Ko'chkunchixon  
 D) Ubaydullaxon I

**6.** Konservatizm ta'limotining ko'zga ko'ringan arbobini aniqlang.  
 A) Sharl Monteskye B) Lui de Bonald  
 C) Sharl Fyure D) Sen Simon

**7.** Mashxad-Seraxs-Tajan temiryo'l liniyasi qurilgan davrni aniqlang.  
 A) 1994-1996-yillar B) 1993-1996-yillar  
 C) 1991-1996-yillar D) 1992-1996-yillar

**8.** Fransiya-Prusiya urushi bo'lib o'tgan davrida Rim papasi bo'lgan shaxsni aniqlang.  
 A) grigoriy IX B) Piy IX C) Silvestr VII  
 D) Piy II

**9.** Fransiya minimal ish haqi eng ko'p darajada oshirilib, saylovda qatnashish yoshi 20 dan 18 yoshga tushirilishi qaysi prezident davriga to'g'ri keladi?  
 A) J.Shirak B) J.d'Esten C) F.Mitteran  
 D) N.Sarkozi

**10.** Mo'g'ullar davrida undirilgan "shulen" nomli oziq-ovqat solig'i davlat xazinasi uchun olingan bo'lib, uning miqdori qacha bo'lgan?



A) har bir podadan ikki yashar qo'y, har ming otdan bir biya

B) har yuz bosh chorvadan bir bosh jonliq

C) sotilgan mahsulotning 1/10 qismi

D) olingan hosilning 1/10 ulushi

**11.** Muhammad Amin hukmronligining so'nggi yillarida kimlarning madadiga tayanib, mamlakatda nisbatan osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi?

A) harbiylar, ruhoniylar, hunarmandlar

B) o'z qabilasining faol qatlami, ruhoniylar, savdogarlar

C) o'z qabilasining faol qatlami, turk sarbozlari, Buxoro harbiylari

D) turkman sardorlari, ruhoniylar, harbiylar

**12.** Liviya Italiya mustamlakasiga aylangan yilda quyidagi voqealardan qaysi biri sodir bo'lgan?

A) Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida Albaniya mustaqillikka erishdi

B) Panama kanali ochildi

C) Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o'zini Turkiyadan to'la mustaqil deb e'lon qildi

D) Italiya Fransiyaning Marokashga bo'lgan huquqlarini tan oldi

**13.** Qaysi davrdan boshlab Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o'zbeklar deb atala boshlangan?

A) XIV asrning 60-yillaridan

B) XV asr boshlaridan

C) XV asrning 60-yillaridan

D) XII asrning 20-yillaridan

**14.** Quyidagi harbiy bloklar tashkil etilgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni aniqlang.

1) SENTO; 2) ANZYUS; 3) SEATO.

A) 2, 3, 1      B) 3, 1, 2      C) 1, 2, 3      D) 2, 1, 3

**15.** "Kitob at-tavhid" asari muallifini aniqlang.

A) Abu Mansur al-Moturidiy

B) Mahmud az-Zamaxshariy

C) Burhonuddin al-Marg'inoniy

D) Hakim at-Termiziy

**16.** XIX asr oxirlarida Rossiya Buxoro amirligi hududlari orqali Afg'onistonga qanday buyumlarni katta miqdorda chiqarib turgan?

1) temir; 2) movut; 3) farang matolari; 4) chinni buyumlar; 5) baxmal; 6) mo'yna; 7) chit; 8) g'alla; 9) gugurt; 10) kerosin; 11) cho'qqi qalpoqlar

A) 1, 3, 4, 8, 9, 11      B) 2, 4, 5, 7, 9, 10

C) 3, 5, 7, 9, 10, 11      D) 1, 4, 5, 6, 8, 10

**17.** Eshimxon boshchiligida qoraqalpoqlar davlati tashkil topgan davrda Qo'qon hukumdori bo'lgan shaxsni aniqlang.

A) Olimxon      B) Shohruxbiy      C) Erdonabiy

D) Abdukarimbiy

**18.** Rossiya imperatori Nikolay II taxtga o'tirgan yilda bo'lib o'tgan voqeani aniqlang.

A) Kongo havzasidagi yerlar Belgiya mustamlakasi deb e'lon qilindi.

B) Buganda Buyuk Britaniya tomonidan tuzilgan Uganda protektorati tarkibiga kiritildi.

C) Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi.

D) Buyuk Britaniya Transvaalni bosib oldi, Zululendni ham o'ziga qarashli mustamlaka deb e'lon qildi.

**19.** Koreyaning o'rta asrlar tarixiga oid quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri joylashtiring.

1) Parxe qirolligi o'zining qudrat cho'qqisiga erishdi;

2) Pekche davlati vujudga keldi; 3) Choson qirolligi iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaldi; 4) Silla qirolligining oltin davri boshlandi; 5) qadimgi Choson uch qirollikka bo'linib ketdi;

a) mil.av. I asr; b) VIII asr o'rtalari; c) XV asr o'rtalari; d) III-IV asrlar; e) IX asrning I yarmi

A) 1-c, 2-a, 3-e, 4-d, 5-b      B) 1-e, 2-d, 3-c, 4-b, 5-a

C) 1-b, 2-c, 3-e, 4-a, 5-d      D) 1-e, 2-d, 3-a, 4-b, 5-c

**20.** O'rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarining tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

1) Murkroft; 2) I.Volf; 3) J.Abbot; 4) A.Byorns;

a) 1843-yil; b) 1825-yil; c) 1844-yil; d) 1832-yil

A) 1 - b; 2 - a; 3 - c; 4 - d      B) 1 - d; 2 - a; 3 - c; 4 - b

C) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - d      D) 1 - c; 2 - b; 3 - a; 4 - d

**21.** Zahiriddin Muhammad Boburning qaysi asari islom huquqshunosligi va islom dinining asoslari, xususan namoz va zakot, haj ziyoratlarining mezonlariga bag'ishlangan?

A) "Turkiy devon"      B) "Mubayyin"

C) "Xatti Boburiy"      D) "Boburnoma"

**22.** Yevropada dastlabki banklar qachon va qayerda paydo bo'lgan?

A) XV-XVI asrlarda Germaniyada

B) XIV-XV asrlarda Italiyada

C) XIII-XIV asrlarda Belgiyada

D) XIV-XV asrlarda Angliyada

**23.** Xitoyda shoyi gazlama ishlab chiqarila boshlanganidan qancha o'tib paxtadan mato tayyorlana boshlangan?

A) 4 asr      B) bir vaqtda      C) 3 asr      D) 2 asr

**24.** Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi;

2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi;

- 3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi;  
 4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi;  
 5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi;  
 6) qalmaq va oyratlarga qarshi  
 A) 2, 3, 6 B) 1, 5, 6 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 4
- 25.** XX asrning 50-80-yillarida qurib ishga tushirilgan O'rta Osiyoda eng yirik Qayroqqum GESi qaysi Respublika hududida joylashgan?  
 A) Qozog'iston B) Tojikiston C) Qirg'iziston D) O'zbekiston
- 26.** 1995-yilda O'zbekiston Prezidenti huzurida tuzilgan mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta'minlash, zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi maslahat organini aniqlang.  
 A) Milliy xavfsizlik kengashi  
 B) Milliy xavfsizlik qo'mitasi Chegara qo'shinlari boshqarmasi  
 C) Milliy xavfsizlik qo'mitasi  
 D) Bojxona qo'mitasi
- 27.** Turkistondagi sovet hokimiyati rahbarlari tomonidan Amudaryo bo'limida Xiva xonligi tuzumiga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan harbiy dastalarga kimlar boshchilik qilgan?  
 A) Sh.Eliava va Kuybishev  
 B) N.B.Sherbakov va N.K.Shomansurov  
 C) N.A.Shaydakov va N.M.Sherbakov  
 D) N.A.Shaydulin va M.V.Frunze
- 28.** Mauriya davlati parchalanib ketgach uning hududlarining katta qismini qaysi davlat bosib oldi?  
 A) Kushon podsholigi B) Sosoniylar  
 C) Kidariylar D) Eftaliylar
- 29.** Kubada S.Martin hukumati tomonidan qanday to'lovlar 45%ga kamaytirilgan?  
 A) elektr energiyasi, ichimlik suvi, pochta-telegraf  
 B) elektr energiyasi, gaz, telefon  
 C) kommunal xizmat, uy-joy solig'i, gaz  
 D) gaz, aloqa xizmati, uy-joy solig'i
- 30.** Fransiyada Napoleon I davrida qayta tiklangan monarxiya qaysi kuchlarga tayanar edi?  
 1) zodagonlarga; 2) yirik burjuaziyaga; 3) mayda mulkdorlarga; 4) hunarmandlarga; 5) qo'shinga;  
 6) davlat amaldorlariga  
 A) 2, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 4, 6
- 31.** Afg'on hukmdori Ahmadshox hukmronligi davrida Amudaryoning janubiy hududlarida istiqomat qilib turgan o'zbeklar qo'zg'olon ko'targan yilni toping.  
 A) 1765-y. B) 1768-y. C) 1769-y. D) 1767-y.
- 32.** II jahon urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyotini tezroq tiklash maqsadida iqtisodiyotning "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi" modeli tanlangan davlatni aniqlang

- A) Ispaniya B) Fransiya C) Italiya D) GFR
- 33.** Mashhur bolgar inqilobchisi V.Levski qatl etilgan va Xristo Botev halok bo'lgan yillar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.  
 A) 1872-yil, 1875-yil B) 1872-yil, 1876-yil  
 C) 1870-yil, 1877-yil D) 1871-yil, 1876-yil
- 34.** Parijda gugenotlar qirg'ini uyushtirilgan yilda . . .  
 A) Buyuk Britaniyada Karl I bilan parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi  
 B) Koreya tarixida mashhur qo'mondon Sun Sin yapon flotini tor-mor etdi  
 C) Gollandiya Respublikasi shimolida "Utrext uniyasi" deb atalgan ittifoq tuzildi  
 D) Filipp II ga muxolifatda bo'lgan Niderlandiyaning eng boy va obro'li katta yer egasi shahzoda Vilgelm Van Oranyeni shimoliy hududlar hukmdori deb e'lon qilindi
- 35.** XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Shimoliy Afrika mamlakatlari tarixiga oid to'g'ri ma'lumotni toping.  
 A) XIX asrning oxirida Misr, Tripolitaniya, Kirenaika va Tunis amalda Turkiya sultoniga itoat etardi.  
 B) 1888-yildagi konvensiyaga ko'ra Suvaysh kanalidan barcha davlatlar xoh urush, xoh tinchlik vaqtida bo'lsin, erkin foydalanish huquqini olishdi.  
 C) XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoli-g'arbida, ya'ni arablar yashamaydigan hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi.  
 D) 1882-yilda Misr qo'shini rahbarlaridan biri Jamoliddin al-Afg'oniy Qohirada oliy davlat organi – Muvaqqat Kengash tuzdi.
- 36.** Turk xoqonligining Sosoniylar va Vizantiya bilan yaqinlashuviga sabab bo'lgan siyosiy vaziyatni aniqlang.  
 A) Sosoniylar va Vizantiya bilan savdo-sotiq aloqalarining manfaatliligi  
 B) Turk xoqonligining ikkiga bo'linib ketishi  
 C) Eftallar bilan to'qnashuvning muqarrarligi  
 D) Bu davlatlar o'rtasida diniy yaqinlikning mavjudligi

### Variant-030

- 1.** Vengriya hukumati tomonidan Xorvatiya Seymi tarqatib yuborilib, Konstitutsiyasi to'xtatib qo'yilgan yilda quyidagi qaysi voqea ro'y bergan?  
 A) Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi  
 B) Chexiyada sud va ma'muriy ishlar uchun 2 til joriy qilindi  
 C) Avstriya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi  
 D) Chexiyada qamal holati joriy qilindi
- 2.** Tropik Afrika davlatlari tarkibiga kirmagan davlatni aniqlang.  
 A) Nyasalend B) Lesoto C) Eritreya

- D) Serra-Leone
- 3.** XX asr 30-yillarida Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasida imzolangan o'zaro hujum qilmaslik va yarashuv to'g'risidagi shartnoma AQSh tomonidan ham imzolandi. Bu shartnoma tarixga qanday nom bilan kirdi?
- A) Reyn kafolat pakti  
B) Yaxshi qo'shnichilik tamoyili  
C) Brian Kellog pakti D) Savedro Lamas pakti
- 4.** 1897-1898-yillarda Germaniya tomonidan egallangan bandargohni aniqlang.
- A) Veyxaybey B) Guamchjuvan C) Sindao  
D) Lyuishin
- 5.** XIX asrning oxirida Yaponiya to'qimachilik sanoati juda tez rivojlandi. 1890-yilda u barcha sanoat tarmoqlarining necha foizini tashkil etdi?
- A) 52 B) 44 C) 47 D) 45
- 6.** Janubiy Afrika Respublikasining birinchi qora tanli prezidentini aniqlang.
- A) F. Le Klerk B) P. Lumumba C) N.Mandela  
D) M.Snegur
- 7.** Fransiya tomonidan 1891-1896-yillar davomida quyidagi qaysi hududlar bosib olingan?
- 1) Laos; 2) Mavritaniya; 3) Vyetnam; 4) Gvineya;  
5) Senegal; 6) Madagaskar; 7) Tunis; 8) Efiopiya;  
9) Mozambik; 10) Angola
- A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 9, 10 C) 3, 4, 5, 10  
D) 1, 3, 7, 8, 9
- 8.** Qaysi davlatga Asparux tomonidan asos solingan?
- A) Chexiya B) Xorvatiya C) Bolgariya D) Polsha
- 9.** Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni toping.
- 1) G'arbiy Rim imperiyasining qulashi;  
2) Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi;  
3) Verden bo'linishi;  
4) Franklar davlatining tashkil topishi
- A) 3, 2, 1, 4 B) 1, 3, 2, 4 C) 2, 3, 4, 1 D) 1, 4, 3, 2
- 10.** O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi . . . zimmasiga yuklatilgan edi.
- A) RKP(b) Markaziy Q'omitasining O'rta Osiyo byurosi  
B) "O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi"  
C) "Turkkomissiya"  
D) Markaziy Ijroiya Qo'mitasining O'rta Osiyo bo'limi
- 11.** 1947-yilda O'zbekistonning qaysi shaharlarida ochilgan ikki yillik kurslar kolxoz raislari va brigadirlar tayyorlab berib turgan?
- A) Toshkent va Samarqand B) Samarqand va Farg'ona  
C) Toshkent va Andijon D) Samarqand va Buxoro
- 12.** Qo'qon xonligida oltin ma'dani qazib olingan joy nomi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
- A) Zarafshon daryosi quyi oqimi  
B) Ko'krev daryosi  
C) Bobotog'ning shimoli D) Qorasuvning janubi
- 13.** Xiva xonlari kutubxonalarida qachondan xattotlik, husnixat maktabi shakllandi?
- A) XVII asrda B) XV asrda C) XIV asrda  
D) XVI asrda
- 14.** Germaniyada protestant knyazlar Rim Papasi bilan bitim tuzib, unga ko'ra har bir knyaz o'z fuqarolari uchun istagan dinni tanlash huquqiga ega bo'lgan yilda Angliyada kim qirol(icha) edi?
- A) Genrix VIII B) Mariya  
C) Viktoriya D) Yelizaveta I
- 15.** Turkistondagi milliy-ozodlik harakati yo'lbo'shchilari ichida noyob qobiliyati bilan ajralib turuvchi Madaminbek Ahmadbek o'g'li bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni toping.
1. 1918-yil martida unga musulmon qo'shinlarining bosh qo'mondoni unvoni berildi.  
2. Uning o'z "boshqaruv apparati", "tribunali" va "genshtabi" bo'lgan.  
3. 1919-yil yanvarida Marg'ilon uning qo'shinlari tomonidan egallandi.  
4. 1919-yil aprelida uning qo'shinlari Namangan va Qo'qon shaharlari atrofidagi janglarda g'olib kelishdi.  
5. 1919-yil yozida Monstrov boshchiligidagi rus krestyanlaridan tashkil topgan harbiy qismlar uning kuchlari bilan birlashdi.  
6. 1919-yil oktyabrda Andijondagi Oyimqishloqda uning tarafdorlari tomonidan "Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati" tuzildi.
- A) 1, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6
- 16.** XVIII asrning II yarmidan boshlab Rossiya savdo iqtisodiy aloqalarida Markaziy Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada ortib bordi. Bunga sabab nimada edi?
- 1) Ingliz mollarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi tobora ko'payishi;  
2) Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish;  
3) Hindistonda Buyuk Britaniya ta'sirining kuchayib borayotganligi;  
4) Rossiya aholisining Markaziy Osiyodan keltirilgan mollarga ehtiyoji balandligi va mollarning nihoyatda arzonligi;  
5) Markaziy Osiyo xonliklarida inglizlar ta'sirining kuchliligi va xonliklarning inglizlar bilan ittifoqini yo'qqa chiqarish zaruriyati;  
6) Xonliklarning suv orqali savdo qilishda Rossiyaga qulayligi va savdo portlarining doimo ruslar uchun ochiqligi.



- A) 4, 6 B) 2, 6 C) 2, 3 D) 1, 5
- 17.** Quyidagi qaysi shaharlar 1381-yilda Amir Temurga jangsiz taslim bo'lgan?
- 1) Hirot; 2) Saraxs; 3) Jom; 4) Seiston; 5) Qavsiya; 6) Sabzavor; 7) Balx
- A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 6 C) 2, 3, 5, 7  
D) 2, 3, 5, 6
- 18.** "Taypin tyango" davlatining markazi qaysi shahar bo'lgan?
- A) Pekin B) Shanxay C) Nankin D) Incheon
- 19.** Birinchi jahon urushi tufayli Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga sabab bo'lgan holatlarni toping.
- 1) urushayotgan davlatlarda Lotin Amerikasi mamlakatlari xomashyosi va qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning ortib ketganligi; 2) urushayotgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish orqali katta miqdordagi foiz hisobiga foyda ko'rishi; 3) urush tufayli Yevropadan keltiriladigan tayyor mahsulotlar keskin kamayib, Lotin Amerikasi davlatlarida qayta ishlash sanoatining kuchayishi; 4) Jahon bozorida xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxining ko'tarilishi; 5) urushayotgan davlatlarga qurol-yarog' sotish va undan foyda olinishi; 6) urushayotgan davlatlar oltin zahiralarning sotib olinishi.
- A) 2, 3, 5 B) 2, 5, 6 C) 1, 4, 6 D) 1, 3, 4
- 20.** Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi, Turkiston muzeyi tashkil etilgan yillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
- A) 1871, 1877-yillar B) 1872, 1879-yillar  
C) 1870, 1878-yillar D) 1870, 1876-yillar
- 21.** Fon Kaufman Turkiston general-gubernatori lavozimini egallab turgan davrda jahon tarixida quyidagi voqealardan qaysilari yuz bergan?
- 1) Fransiya-Prussiya urushi bo'lib o'tdi.  
2) Uchlar Ittifoqi tuzildi.  
3) Buyuk Britaniya hukumati irlandlarga "Yer-suv akti"ni taklif qildi.  
4) Porfilio Dias Meksika prezidenti deb e'lon qilindi.  
5) O'rta Osiyo chor Rossiyasiga to'la bo'ysundirildi.  
6) Rim Italiya qirolligi poytaxti deb e'lon qilindi.
- A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 1, 2, 4, 5  
D) 2, 3, 5, 6
- 22.** "Shahanshohbank" ochish to'g'risidagi shartnomaga ko'ra bank qanday huquqlarni olganligini toping.
- 1) qog'oz pullar chiqarish; 2) o'z aksiyalarini muomalaga chiqarish; 3) mamlakat yer osti boyliklaridan erkin foydalanish; 4) Eronda sanoat korxonalarini qurilishini moliyalashtirish
- A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 3

- 23.** Buxoro hukmdorlaridan Abdullaxon II ning faoliyatiga bog'liq quyidagi tarixiy voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini toping.
- 1) Abdullaxon II ning Eronni o'zaro taqsimlab olish taklifi bilan Hindiston hukmdori Akbarshoh huzuriga o'z elchisini jo'natishi; 2) Buxoroda yirik usti berk bozor – Abdullaxon timining qurilishi; 3) Abdullaxon II tomonidan Badaxshonning egallanishi; 4) Abdullaxon II qo'shini Tavakkal qo'shinini tor-mor etib, Movarounnahr hududini qozoqlar bosqinidan ozod etishi
- A) 1, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 4
- 24.** Qaysi davlat tarixda "Tonggi tarovat" nomini olgan?
- A) Qadimgi Xitoy davlati  
B) Ilk o'rta asrdagi Yapon davlati  
C) Qadimgi Choson (ilk Koreys) davlati  
D) Qadimgi Xorazm davlati
- 25.** XIX asrda Buyuk Britaniya tarixida bir yilda yuz bergan voqealarni toping.
1. Shaharda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida xonadonda turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berilishi;  
2. Londonda ishchilarning "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi" tuzilishi;  
3. Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan ish tashlashlarni taqiqlovchi qonun qabul qilinishi;  
4. Kanadaga dominion maqomi berilishi.
- A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3
- 26.** Turkmanlarga qarshi jangda temuriy hukmdor Abu Said (1469-yil) halok bo'lgan vaqtda turkmanlar egallab turgan viloyatlarni aniqlang.
- A) Panjob, Kobul va G'aznagacha bo'lgan viloyatlar  
B) Ozarbayjon, Gurjiston va Armanistongacha bo'lgan viloyatlar  
C) Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlar  
D) Janubiy Eron, Tabriz va Sultoniyagacha bo'lgan viloyatlar
- 27.** Buyuk Britaniya tarixiga oid quyidagi voqealar orasidan bir yilda sodir bo'lganlarini toping.
- 1) Misrning egallanishi;  
2) Bur respublikasining taslim bo'lishi;  
3) Panama kanali masalasida AQShga yon bosishi;  
4) Yaponiya bilan shartnoma imzolab, unga katta moliyaviy yordam ko'rsatishi;  
5) Misr hukumatidan Suvaysh kanalining 45 foiz aksiyasini sotib olishi;  
6) Qirolicha Viktoriyaning Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi
- A) 3, 4 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 5, 6

28. Qadimgi davrdan to Turkistonning XX asr boshlarigacha bo'lgan voqealari yilnomasi bayon etilgan asarni belgilang.

- A) "Tarixi jadidayi Toshkand"  
 B) "Zubdat ut-tavorix"  
 C) "Tarixi Farg'ona" D) "Tarixi Turkiston"

29. Turk xoqonligining Sosoniylar va Vizantiya bilan yaqinlashuviga sabab bo'lgan siyosiy vaziyatni aniqlang.

- A) Eftallar bilan to'qnashuvning muqarrarligi  
 B) Sosoniylar va Vizantiya bilan savdo-sotiq aloqalarining manfaatligi  
 C) Bu davlatlar o'rtasida diniy yaqinlikning mavjudligi  
 D) Turk hoqonligining ikkiga bo'linib ketishi

30. Yaponiya Sovet davlati bilan betaraflik shartnomasini tuzgan yili. . .

- A) Germaniya armiyasi G'arbiy frontda hujumga o'tdi  
 B) Germaniya armiyasi Italiyaning Bolqon yarimorolidagi armiyasiga yordamga keldi  
 C) SSSR Millatlar Ligasidan chiqarildi  
 D) Sovet davlati va Turkiya o'rtasida "Do'stlik va birodarlik to'g'risida" shartnoma imzolandi

31. Subhonqulixon hukmronligi davrida kimlarga qarshi kurash olib borganligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Balx viloyatida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi;  
 2) Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan qozoq sultonlariga qarshi;  
 3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi;  
 4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlariga qarshi;  
 5) Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqqa qarshi;  
 6) qalmaq va oyratlarga qarshi  
 A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 4 C) 1, 5, 6 D) 2, 3, 4

32. Muhammad Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxonning ijoddagi taxallusi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) "Qul Ubaydiy" B) "Kulliyot" C) "Jondullo"  
 D) "Ubayda"

33. Litva nechanchi yilda NATOga a'zo bo'lgan?

- A) 1998-yilda B) 2004-yilda C) 2001-yilda  
 D) 2008-yilda

34. 1543-yilda Bungo viloyati hukmdori bilan Yaponiyaga turli tovarlar qatori qurol-aslaha, porox olib kelish va ularni oltin hamda kumushga ayirboshlash to'g'risida shartnoma imzolagan portugaliyalik shaxs kim edi?

- A) Plano Kapraniy B) Mendish Pintu  
 C) Alonso Mendiyar D) Kristiyan Kuper

35. Quyidagi atamalar nimani anglatishi to'g'ri juftlangan javobni toping.

- 1) aqinak; 2) sagaris; 3) bargustivon;  
 a) jangovar oybolta; b) jangovar otlar ustiga va ko'kragiga yopiladigan yopinchiq; c) xanjar  
 A) 1 - a; 2 - c; 3 - b B) 1 - c; 2 - b; 3 - a  
 C) 1 - c; 2 - a; 3 - b D) 1 - b; 2 - a; 3 - c

36. AQSh ning birinchi prezidenti saylangan yilda . . .

- A) Fransiyada monarxiya ag'darib tashlandi  
 B) Fransiyada qonun chiqaruvchi majlis "Vatan havf ostida" chaqirig'i bilan xalqqa murojaat qildi  
 C) Fransiyada ta'sis majlisi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"ni qabul qildi.  
 D) Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konsitutsiyasi e'lon qilindi



# TARIX

# TestLIDER

## Jalol BOLTAYEV

### (97) 299 00 66

## testlar turkumi




Tarix TestLIDER nima?

Tarix\_TestLIDER bu – Jalol Boltayev tomonidan ishlab chiqilgan tarixni **innovatsion o'qitish** tizimining nomi va u tomonidan tuzilgan **8 xil darajadagi** testlardir. Bu testlarni siz TestLIDER dasturida (EXE va APK) **online tarzda** ham ishlashingiz mumkin.

Tarix siz uchun juda qiyin va murakkab tuyilyaptimi? Siz tarixni qiyin fan deb hisoblaysizmi? Yo'q, aslo unday emas! Buning uchun siz tarixni **aniq reja bo'yicha tuzilgan tizim** asosida o'qishingiz kerak. Bu tizim bizda yaratilgan. Har kitob bo'yicha 8 bosqichli tizimdan o'tib bo'lganingizdan so'ng siz shu kitobni **95-100 %** gacha o'zlashtirasiz.



JBE EDUCATION	EDUCATION
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI UCHUN 2017-YILDA NASHR ETILGAN DARSLIKLAR ASOSIDA TUZILGAN	313 476
XRONOLOGIYA	701 809
6-7-8-9-10-sinf	999 1076
JALOL BOLTAYEV	1231 1326
	1381 1405
	1555 1601
	1778 1888
	1917 1991



KUNDALIK

SAYLANMA

MAXSUS

DTM  
2013-2017

DTM  
(exemplar)

DTM  
(standart)

Axborotnoma

SINOV 30

XRONOLOGIYA

KUHLILAR  
UCHUN

Telegram kanalimizga a'zo bo'ling va testlarni bepul yuklab oling!



[t.me/@testLIDERtarix](https://t.me/@testLIDERtarix)